




MAKTAB
KUTUBXONASI

Zulfiya

Saylanma




**«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT-2016**



**Hamon e'tiqodim — haqiqat, haqdir,
So'zlayman, yuzimni tutib Ka'baga,
Yemira olmaydi o'tkinchi taqdir,
Osuda o'tadi ruhim abadga.**

**E'zozlar, ardog'lar uchun tashakkur,
Asli Siz oftobim, men ziyo siman.
Tonglaringiz kulsin dorilomon, hur,
Baxtim shul — o'zbekning Zulfiyasiman.**



Z u l f i y a

Saylanma

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT – 2016

UO'K 821.512.133-1

KBK 84(5O')6

Z-91

Nashrga tayyorlovchilar:

*Hulkar Olimjonova
Omon Olimjonov*

Z-91 **Zulfiya**

Saylanma. Nashrga tayyorlovchilar H. Olimjonova, O. Olimjonov. — T.: «Sharq», 2016. — 224 b.

ISBN 978-9943-26-608-7

**UO'K 821.512.133-1
KBK 84(5O')6.**

ISBN 978-9943-26-608-7

23548/4

© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririysi, 2005, 2006, 2012, 2015, 2016.

Xalqimga aytar so'zlarim

O'zing tashna etding, o'zing suv tutding,
Qalbimdagi sahrom, daryomsan, xalqim!
Seni seva-seva men boyib ketdim,
Dunyo ichra topgan dunyomsan, xalqim!

Yurak chaqmoq tekkan osmon yuziday,
Lekin e'tiqodim, iymonim butun,
Umrimda qilganim ozmi-ko'pimdan,
Mehrim daryosidan serobman bu kun.

Menga Navoiydan aytgin alla deb,
Lutfiydan ongimga ziyo taratding,
Qiynalgan olamga bo'lgin dalda deb,
Asli o'zing meni shoir yaratding...

Yosh shuur, kurashchan tuyg'ular bilan
Sening taqdiringga mahkam tutashdim,
Ne-ne g'animlar-la kurashganing on
Ko'pning biri bo'lib malhamga shoshdim.

Sarg'aygan dashtlarga berding yashil qon,
Tuproq tepalarda shahar ko'tarding:
Har bir g'alabangni ko'rgan suyuk on
Dildagi o'z g'amim kuyi cho'kardi.

Yo'l yurdim, sog'indim, to'kildi baytim
Xorijning shomlari, saharlarida,

Ezgu istaklaring jaranglab aytdim
Osiyo, Afrika minbarlarida.

Paxta xirmonining o'sdi bo'ylari,
Tanidi, tan oldi yaqin-u yiroq
G'ururdan dengizday to'lib kuyladim,
Tolelar tiladim bundan yorqinroq.

Maktublar yozding sen, maktublar bitdim,
Goh ko'zga nam qalqib, gohida xushbaxt.
She'r bilan, so'z bilan qalbingga yetdim,
O'sha qalb men uchun eng sharaflı taxt.

Ko'zim ustidasan bu tug'yonli dam,
Sen bilan taqdirdosh kunduzli bo'ldim.
Seni deb siyladi Umr, aziz Vatan,
E'zozli bo'ldim men, yulduzli bo'ldim.

Hali bor oldimda o'tmagan burchim,
O'tayman ko'zimda tirik tursa nur.
Umrimdag'i barcha fasllar uchun
O'ziga bek xalqim, Senga tashakkur.

1985



*Baxtiyor
sevgini
kuylardı sozim*

Muhabbat tongi kulganda

Oqshom edi, oydin ko'prikda
Barno qiz-u yigit turardi,
Oyni kutgan oqshomgi ko'kda
Beshik-beshik bulut yurardi.

Bulutlarning yorib quchog'in,
Oy ko'rsatdi olmos yuzini.
Mag'rur tashlab yerga nigohin,
Tinglab qoldi yigit so'zini.

«Xohi inon, xohi inonma,
Sening sevging qilmoqda shaydo.
Bunday yonish begona jonda
Bir o'chmas o't bo'libdi paydo!»

Oy suzadi yel sari mayin,
Ikki qalbni yoqar bir otash.
Yoniq dilning baxtiyor nayin
Yutmoq bo'lur sukut jafokash.

Yigit sevgi tongini kutar,
Qiz ko'ziday quyuladi tun.
Lekin uzun kipriklar o'ta —
Yarqiraydi baxtga to'la kun.

«U bir o'tki, seni ko'rmasam
Iztirobga solar jismimni,

Lol qolaman — axtarib topsam,
Unutaman hatto ismimni.

Xoh inongin, inonma xohi,
Xayolimda kezasan yolg'iz.
Meni sevgin!»
Yigit nigohi
Sevgi tilar — sukut qilar qiz.

Oppoq pag'a bulut ustida
Hayron suzar keksa oysuluv.
Yulduzlarni quchib ko'ksida,
Anhor to'lib jo'shib oqar suv.

Shu choqqacha ishqin qiz faqat
Dildan so'rab aytgandi dilga.
Ilk, musaffo, katta muhabbat
Qiz dilidan kelmasdi tilga.

Hozir yurak bir nigoh bo'lib
Boqqan edi yigit ko'ziga.
Oqshom og'ushiga nur to'lib,
Tong kulganday bo'ldi yuziga.

Elda qo'shiq, ko'prikda shu'la,
Baxt-la tepdi ikki yosh yurak...
Oy so'zjadi yulduzni to'plab,
Sevgi tongi haqida ertak.

1936

Sening maftuning

Yaxshiki yigitda er yuragi bor,
U sevsə hech qachon yonmas yashirin.
Sevging to'g'risida o'zing ochding so'z,
Ey ko'zi qop-qora, so'zlari shirin!

Mening sevganimni hali bilmasding,
Tanho o'rtanishdan men oldim lazzat.
Dilimni kemirgan muhabbat sirin,
O'zim ardoqladim, ham qildim izzat.

Qalbimga yozilgan muhabbat so'zi
O'yimni chulg'adi mening har minut,
Lekin ishondimki, sen so'z ochmasang,
Shu dardda o'lsam ham etaman sukut.

Hatto bilmas edim sevarmiding sen,
Balki sevganingdir bir baxtiyor qiz.
Balki xayolingdan men behad yiroq,
Ammo sen dilimda kecha-yu kunduz.

Faqat o'yladimki, uyatdir qizga
Yigitga sevgisin aylasa izhor.
Bu – dog' solar dedim qizning husniga,
Endi ilojim yo'q bo'lmayin iqror.

Uzoq men axtardim, ammo o'zimda
Bir kuch topolmadim sevgidan ustun!
Men seni sevaman, sehrgar yigit,
Butun borlig'im-la men senga maftun.

Soy kechasi

Tog' ortidan ko'tarildi oy,
 So'lim qirg'oq nur-la o'pishdi.
 Ko'zgu bo'lди jimjit oqqan soy,
 Oyning aksi suvlarni quchdi.

Soymi yoki shabboda oldi
 Mening ko'zimdagi uyquni?
 Oy yorimni yodimga soldi,
 Dilda toshdi sevgi to'lqini.

1943

Farzand

Nega sevmay, erkalab o'pmay,
 Nechun demay uni hayotim?
 Nega demay ko'zimning nuri,
 So'zlaganda qandim, novvotim?

Shirin ekan farzand, u bilan
 Oilaga kirar ekan jon.
 Ko'zi ko'zga tushishi bilan
 Mehri balqir ekan bepoyon.

Iqbol bo'lib ko'zing oldida,
 Kundan kunga toparkan kamol,
 Ne baxt, toza hayot bog'ingda
 O'ssa toza, bebaho nihol.

U bor yerda qayg‘u va hasrat
Hayotingga begona ekan.
Qani aytinq, farzanddan qimmat
Bu dunyoda nima bor ekan?

O... farzandim, ko‘zim nurisan,
Menga senday bo‘la olur kim?
Sen hayotim, seni ko‘rarkan,
Dilda behad jo‘shadi mehrim.

Qora ko‘zlaringga qarayman,
Unda borliq bo‘lar namoyon.
Mening baxtim yorqin, begumon
Jilvalanib ko‘rinar ayon.

Shirin so‘zing, cheksiz mehring bor,
Qilig‘ingda bir olam orom,
Sen bilan dil chiroyli gulzor,
Qo‘shig‘imga tuganmas ilhom.

Sen o‘s — sog‘lom, beqayg‘u, erkam,
Muhabbatim boshingga soya,
Men baxtiyor alla aytayin,
Qo‘shiqlarim ko‘p, benihoya.

Ko‘z yosh nima, sen bilma zinhor,
Senga porloq tilayman iqbol,
Bu dunyoda na yaxshiki bor
Senga, qo‘zim, senga bo‘lsin, ol!

1943

Oltin kuz

Sevaman, oltin kuz, sevaman jondan,
Atlas tabiatli go'zal chog'ingni.
Daraxtlar libosi rango-rang, gulgum,
Ko'zni erkalagan chaman bog'ingni.

Sevaman, yerkunda rangdor yaproqlar
Yumshoq va rang-barang gilam to'shasa,
Gul terganday terib barg qizaloqlar,
Qushlarday gurpanglab yayrab o'ynasa.

Dalada paxtalar kumushi porlab,
Momiq yuzlarini quyoshga tutsa,
Terimchi chechanlar etaklab, qoplab
Tog'day xirmonlarga keltirib to'ksa —

Men behad sevaman! Yengim shimarib,
Qizlar orqasidan yuraman men ham.
Keng vodiy qo‘ynida ko‘ksim qabarib,
Yayrayman, nash’aga to‘lamан bu dam.

Simob to‘lqinlari tutib osmonni,
Muttasil yomg‘irlar zeriktirsa ham,
Kumush buloqlarning suvlari sokin,
Qushlar inlariga kirib olsa ham.

Men g‘amgin boqmayman, ko‘nglimda
bahor,
Oltin yaproqlarga qarab tolmayman.

Yasan kelinchakday har bir daraxtni
Sevaman! Nigohim uza olmayman.

Bulut chodirini yirtib, mo'ralab
Chiqsa quyosh, ko'kka bo'laman maftun,
Sevaman nurlarda pati yaltirab,
Oppoq kabutarlar qilsalar o'yin.

To'zoni yuvilgan barglar shamolda,
Rangini ko'z-ko'zlab qilganda huzur,
Hozir tingan yomg'ir tomchilarida,
Oltin yaproqlarda yonib toza nur —

Gavhar marjon kabi yaltirab tursa,
Meni ham o'raydi she'riy hayajon!
Quyoshni qarshilab chiqib ayvonga,
Nurlarga ko'milib yuraman shodon.

Sevaman, oltin kuz, sevaman jondan!
Tovusday bezangan daraxt, bog'larni!
Yomg'irli oqshoming, quyoshli tonging,
Xayolga cho'mganim go'zal onlarni!

1943

Fun

Tog' ortiga o'tib ketdi kun,
Sekin cho'kdi toza, salqin tun...

Men deraza ochganim chorborg'
Sokin uxlар tun ko'rpasida.
Mayin qo'shiq yoyilar har yon
Esib o'tgan yel sharpasida.

Suv oqadi allalab tunni,
Hamma uxlар, uyda men uyg'оq,
Parcha qog'oz, kichik bir qalam,
Boshim uzra porlaydi chiroq.

Tunda qancha xayol, qancha kuy,
Men berilib qulоq solaman.
So'z topolmay ifodasiga,
Rang axtarib shoshib qolaman.

Sof yel esar... Parvona uchar
Chiroq atrofida о'grilib,
O'zin urib part bo'ladi-yu,
Stolimga tushadi kelib.

Men yozaman, yulduzlar o'tar,
Har birisi so'ylar bir ertak.
Mana, Hulkar qarshimda chaqnar,
Yorqin tongdan keltirib darak.

Tun o'tadi, yana chorborg'dan
Ko'tarilar sahargi tuman.
Men-chi, asta chiroq so'ndirib,
Otayotgan tongni kutaman.

Ko'zlarimda erib ketdi tun,
Yoyilmoqda yorqin juvon kun...

1944

* * *

Deydilarki, seni ko'rganda
Ko'zlarimda yonar jonli o't,
O'sha o'tning yolqinlarida
Sendan o'zga bor narsa unut.

Mudom dilga sodiq ko'zlarim
Haqiqatni ko'mishi qiyin.
Ko'zlarimda, qonimda kezgan
O'sha sevinch, o'sha olov sen.

Mayli, o'zing mendan uzoqda,
Lekin dilning o'ti bo'lib qol.
Mening kuyim emas tuzoqda,
She'r kerakmi, jon kerakmi, ol!

1944

Kechir, qoldim g'aflatda

Seni bordan jonsiz ko'rdim,
Jonim chiqdi mening-da.
Es-hushimdan ajrab turdim,
Tuyg'um ketdi sening-la.

Koshki edi, men boshingda
Turgan bo'lsam o'sha dam.
Kirmasmidim men qoningga,
Bermasmidim jonni ham.

Ajal degan beshafqatga
Koshki otsam ishqimni,
To'ldirsam ham ko'kni dodga,
Saqlasam men baxtimni.

Koshki edi, so'ng qo'lingda
Erkalanib bersam jon.
So'nggi nigoh senda qolsa,
Men ko'z yumsam bearmon...

Yashash sening haqqing dedim,
Kechir, qoldim g'aflatda.
Yo'q edi-ku bo'lmoq mahrum
Bizning ilk munis ahdda?

1944

Biz tongni sevgan-chun

Tinchgina tong otar. Chiqadi quyosh,
Ko'm-ko'k maysalarda yaltirar shabnam.
Osmon ham tip-tiniq, yellar musaffo,
Erkin nafas olib uyg'onar el ham.

Biz tongni sevamiz – alvon rangida
Kurash qurbanlarin yashaydi xuni.
Qon berib, jon berib butun jahonda
Dastlab qarshilagan biz bo'ldik uni.

Biz tongni sevgan-chun, uni qarshilab
Har kun zafar bilan ko'tarilar qad,
Shu tong tiniqligin saqlar muqaddas
Qudrat, sevgimizdan yaratilgan sad.

Bu cheksiz sevgida, qudratimizda
Shonli otalarning hissasi ulkan,
Shuning-chun tinch mehnat shiori bilan
Balqib yuksaladi jonajon o'lkam.

Biz tongni sevgan-chun, sof ko'kimizga
Ufqdan o'tolmas zulmat dudlari,
Shu erkin tebrangan maysalar damin
Bo'g'olmas poroxning zahar hidlari.

Onaday ardoqlab, boladay sevib
Saqlaymiz tuproqni, sharafni, dongni,
O'tkir ko'zimizni ufqdan uzmay
Har kun qarshilaymiz safobaxsh tongni.

1947



*Hijron
kuntarida*

* * *

Baxtiyor sevgini kuylardi sozim,
O'lim xanjariga tegdi-yu sindi.
Hijron faryodiday sovuq ovozim,
Nahot, lirikaning yolqini tindi?

1944

Yulduz

Uyda bo'g'ildim-u chiqdim eshikka,
Yer ustiga cho'kkан oqshomgi tuman,
Go'yo ko'zlarimga boqqanday tikka
Yashnardi bir yulduz xuddi sensimon.

Xuddi senday uzoq va senday yorqin,
Avji chaqnaganda so'nadi u ham,
Bir yupanch: sevgimning osmonidan
O'chmasdan yonasan, ey go'zal hamdam!

1944

Bahor keldi seni so'roqlab...

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...

Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni.
Har uyg'ongan kurtak hayot bergen kabi
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.

Mana, qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.
Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,
Ul ham yosh to'kdi-yu, chekindi nari.

Seni izlar ekan, bo'lib shabboda,
Sen yurgan bog'larni qidirib chiqdi.
Yozib ko'rsatay deb husn-ko'rkinisini,
Yashil yaproqlarni qidirib chiqdi.

Topmay, sabri tugab bo'ron bo'ldi-yu,
Jarliklarga olib ketdi boshini.
Farhod tog'laridan daraging izlab,
Soylarga qulatdi tog'ning toshini.

Qirlarga ilk chiqqan qo'ychivonlardan
Qayda shoir, deya ayladi so'roq.
Barida sukunat, ma'yuslik ko'rib,
Horib-charchab keldi, toqatlari toq...

So'ngra jilo bo'lib kirdi yotog'imga,
Hulkar va Omonning o'pdi yuzidan.
Singib yosh kuydirgan za'far yonog'imga
Sekin xabar berdi menga o'zidan.

Lekin yotog'imda seni topolmay,
Bir nuqtada qoldi uzoq tikilib.
Yana yel bo'ldi-yu, kezib sarsari,
Mendan so'ray ketdi qalbimni tilib:

«Qani men kelganda kulib qarshilab,
Qo'shig'i mavjlanib bir daryo oqqan?
«Baxtim bormi deya, yakkash so'roqlab»
Meni she'rga o'rab suqlanib boqqan?

O'rik gullariga to'nmaydi nega,
Yelda hilpiratib jingala sochin?
Nega men keltirgan sho'x nashidaga
Peshvoz chiqmaydi u yozib qulochin?

Qanday ishqqa to'lib boqardi tongga,
Kamol toptirardi keng xayolimni.
Uning rangdor, jozib qo'shig'ida
Mudom ko'rар edim o'z jamolimni.

Qani o'sha kuychi, xayolchan yigit?
Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol.
Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko'klamda sen parishonhol?»

Qanday javob aytay, loldir tillarim.
Baridan tutdim-u, keldim qoshingga.
U ham g'amming bilan kezdi aftoda,
Boqib turolmayin qabring toshiga.

Alamda tutoqib daraxtga ko‘chdi,
Kurtakni uyg‘otib so‘yladi g‘amnok.
Sening yoding bilan yelib beqaror,
Gullar g‘unchasini etdi chok-chok.

Gul-u rayhonlarning taraldi atri,
Samoni qopladi mayin bir qo‘sinq.
Bu qo‘sinq naqadar oshno, yaqin,
Naqadar hayotbaxsh, otashga to‘liq.

Bahorga burkangan sen sevgan elda
Ovozing yangradi jo‘sinqin, zabardast.
O‘limgan ekansan, jonim, sen hayot,
Men ham hali sensiz olmadim nafas.

Hijroning qalbimda, sozing qo‘limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam,
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

1945

Ne baloga etding mubtalo

O‘tdi oylar g‘am bilan oqib,
Dil topmadi zarra tasallo.
Firoqingda qoldim tutoqib,
Ne baloga etding mubtalo!

Ko‘z ochgani qo‘ymaydi alam,
Boshim qo‘ysam kuydirar bolish.
Yupatolmas kitob va qalam,
Misralarim ko‘tarar nolish.

Nahot shuncha ma’sum, shunday pok
Sevishmoqda alam bor shuncha?
Bardosh bermas iroda, idrok,
Tamoman lol aql, tushuncha.

Tog‘day bor deb bilgan yuragim
Qush boshicha qolmadi chog‘i?
G‘amni yengarman degan sarim
Yana ortar alami, dog‘i.

Erib ketmagandim sevgingdan,
Bo‘lmaslik-chun baxtingdan judo,
Birga qolish uchun sen bilan
Kuyaman-u, bo‘lmayman ado.

1945

Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh?

Sog'inganda izlab bir nishon,
Qabring tomon olar edim yo'l.
Keltirarding menga bir zamon,
Endi har chog' men eltaman gul.

Keldim. Uzoq qoldim men sokin
Sening aziz boshingda yolg'iz,
Osmon tiniq edi va lokin,
Parcha bulut yetib kelib tez,

Ko'kda mening boshimda turib
Go'yo yuragimday qalqdi u.
Ko'zimdag'i yoshimni ko'rib
U ham to'kdi yoshini duv-duv.

Biz yig'ladik tepangda shu kun,
Keldingmi, deb ko'tarmading bosh.
Ayt-chi, sen-la baxtiyor onlar
Ko'rganmiding ko'zimda bir yosh?

1945

Sen qaydasan, yuragim

Qalb bo‘lganda yiroqda
Iroda ekan ojiz.
Do‘stlar ham ko‘p atrofda,
Ammo men yakka-yolg‘iz...

Birdan qalbim keksarib,
Qon ham qochdi yuzimdan.
Sen, sirdoshni axtarib,
Xayol ketar izingdan.

Qayga ketding yuragim,
Bitdi bardosh va toqat.
Suhbatingdir tilagim,
Dilda hasratim qat-qat.

Ko‘pdir aytajak so‘zim,
O‘gitlaringga zormen,
Yig‘laysan deb do‘stlarim
Ta’na qilar. Netay men?

Sovush bermaydi menga,
Yoqib ketganing olov.
Netay, yetmayman senga,
O‘rtaga tashlangan g‘ov.

Ishqqa maskan yuragim,
Topib ber, deb qistaydi.
Nima qilay, berahm –
Ruhim seni istaydi.

1945

Hayot jilosi

Yana yilday uzun bo'ldi tun,
Ko'zlarimga kelmadi uyqu.
Turli xayol chulg'ab o'yimni,
O'tday yoqdi boshimni parquv.

To'shagimda kuchsiz va horg'in
To'nib yotdim xayolga botib,
Devordagi gardish palakka
Shu'la tushdi kuyunday oqib.

So'ylamadi yupanchli so'zlar,
Odatdag'i do'stlar singari.
Ammo yengil tortib nafasim,
Nazarimda g'am ketdi nari.

Uyga kirgan hayotbaxsh jilo,
Tashga boq, deb qilganday xitob.
Ko'tarilib darchadan boqdim,
Og'ushiga oldi oftob.

Qaradim-u, ko'zimni ortiq
Uzolmadim tirik hayotdan.
Sozim, qalbim, qo'shig'im bilan
Maftun bo'ldim men qayta, boshdan.

Ana, qushlar qanotida nur,
Nur-la o'ynar bargdagi shabnam.
Shu giyohday, ey aziz oftob,
Intilaman sen tomon men ham.

O'rik gullaganda

«Terazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi...»
Gulni ko'rib ishqparast qalbim,
Ming aytilgan darddan kuyladi.

Seni qo'msab oqshom chog'ida
Hijron qo'shar ekan harorat.
O'lgudayin mushtoq bo'libman —
Visolingga, yo'q chog'i toqat.

Seni qo'msab oqshom chog'ida
Kirib keldim shu tanish uyga.
Biz bir choqlar yashagan uyda
Tunab qoldim xayol-la birga.

Buncha issiq, buncha ham shinam
Yoshlik kechgan torgina shu joy.
Bunda yashar ajib onlardan,
Ishq-la o'tgan tunlardan chiroy.

Har burchagi elitar hushim,
Naqadarlik oshno, yaqin.
Xuddi tunda kamolga yetgan
Qo'shig'ingda chaqnagan chaqin.

Bunda hayot — ilhom onlari
Qalamingdan to'kilgan gavhar.
Gul bo'yini olganda shamol
Rashkka to'lib to'ngan u ko'zlar.

Sen tugatgach chanqoqlik bilan
O'qib maftun bo'lganim hayot.
«Qalay degan» bo'lib termulgan
Ko'zlarining otashi hayot.

Hali hayot, takror o'qirkan
Zavqqa to'lib yayragan ko'ksim.
Yuzingdagi ulug'vor, mayin,
Bir jahonga arzir tabassum.

Bari hayot, muhabbat kabi,
Hamma yerda ko'rinar izing.
Parrandalar nag'ma kuyida
Jaranglaydi tovushing, so'zing.

Meni o'rab oldi hayajon,
Yana ortdi sevgining kuchi.
Sharq qizarib, chiqmoqda quyosh,
Oltinlandi terakning uchi.

Sen kuylagan o'rik shu kecha
Burkandi oq — oppoq chechakka.
Men qadrdon xotira bilan
Jo'nab ketdim uyimga yakka.

1947

Sog'inganda

Qancha bo'ldi ko'rmaganimga,
Ey qalbimning dilbari shoir!
Qancha bo'ldi birga o'ltirib,
So'zlashmadik dillarga doir.

Dil-chi, dilim unutib bo'lmas
Ishq qo'shig'i yozilgan kitob.
Xayol xiyol chertib o'tdimi —
Topib ber deb qiladi xitob.

Ikkimizga ma'lum bir qudrat
Yillar o'ta senga tortadi.
Unutayin deyman-u, faqat
Dilda uning o'ti ortadi.

Ham tabiat, ham do'st, ham raqib,
Barchasini qoldirib dog'da,
Ko'rishsak-u, yana tirilsa
O'sha o'lgan bo'sa dudog'da.

Yuragimning shohi deb seni,
Mayli, bu gal o'zim tiz cho'ksam.
Huzuringda baxtdan tebranib,
Ishq va sog'inch yoshini to'ksam.

1950

Bu hayotning hamma toza, chiroyli dami,
Aziz do'stim, mudom seni esga soladi.
Ko'zlar amri, yurak erki, jo'shqin his bilan
Kecha-kunduz jang qilmoqdan aqlim toladi.

Faqat dilga oshno bo'lgan ajoyib damlar,
Tuyg'ularning zid xohishi berganda alam,
Ko'kraklarni to'ldirganda orom va ozor
Baxtsizmidik? Nahot unut bo'lar o'sha dam?

1954

Haykal

(*Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on tumanidagi Hamid Olimjon nomli jamoa xo'jaligida shoirga haykal qo'yildi.*)

Bu yerda shoirga qo'yildi haykal,
Inson zakovati, aqli, mehri bu!
Keksa tabiatga berilgan sayqal,
She'riyat qudrati, san'at sehri bu.

Boq, deb, quyosh, yulduz, tog', dalalarga,
O'lim yiqitganin ko'tardi xalqi.
Endi men ham farzand, nevaralarga
Ko'rsata olaman tog'dek tik qaddin.

Ana, yuzda ilhom, qo'lida qog'oz,
Hozir vodiy kezib qo'shiq bitguday,
So'zlariga qayta berganga parvoz,
Hayot-chun ta'zimni doston etguday.

Assalom! Ayt, kimga boshimni egay,
Kimlarning qo'lini surtay ko'zimga,

Chorak asr o'ta kelib tirikday,
Boqib turganing-chun so'lg'un yuzimga.

Qancha bizga seni qo'ymasdan yaqin,
O'rtamizda yotgan hijron toshini
Olib tashlab: seni go'yo bir chaqin,
Go'yo non, go'yo suv, she'rday, yorqin
Durdai ko'tardilar aziz boshingni.

Bir ulkan qalbdaysan, mard, alp siyoqli
Yillar qaritmapti, hamon ko'rkam, yosh,
Qancha ko'rmaganing tirik hayotni
Yozib har yurakka solguday quyosh.

Bu — kaftda ko'targan yashnagan tuproq
Sening nomingdagi kolxoz atalur.
Bunda she'rday mehnat talab har chanoq,
Har kun yangi shodlik, baxt yaratilur.

Sen bunda mehmonmas, aziz farzandsan,
Safarbar sur'atga tirik emakdosh,
Qancha jild va qancha minglab varaqdan
Chiqib, ter to'kasан — dehqonga yo'ldosh.

Seni bir ko'rmagan, eshitmagan ham
Bunda sensiz shonin etmaydi bayon,
Shuhratni o'ylamay, tebrangan qalam,
Avlodga xizmatdan qolmas hech qachon.

Mag'rur ko'tarilding boshoqday o'sib,
Sen bilan safimiz yana zich, azim.
Mangulik-chun taqdir, she'rimni tutib
Xalqingga va senga qilaman ta'zim.

Sensiz

Mana bir umrni yashadim sensiz,
Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib,
Tobuting boshida cho'kkanimda tiz,
Farzandlar ko'tardi qo'limdan tutib.

Shundan beri tikman. Har nega qalqon,
Baxtga, bahorga ham, qishga, qayg'uga,
Birov azasida yig'layman qon-qon,
To'yida yayrayman o'xshab ohuga.

Lekin qolganimda qalbim-la tanho,
Tuyg'ular zoriga solganda qulqoq,
O'zni zaif, chanqoq sezganda goho,
Alamdan beraman javobsiz so'roq:
Tirik ekan nega tashlab ketmading?

Mendan nafisroqning husniga oshiq,
Mendan yoniqrog'i tortmadi sani,
Edi nigohingga bor jannat ochiq.
Seni majnun etib bir yer go'zali
Nega meni tashlab ketavermading?

Tirik ayrilishning dog'i og'irmish,
Xo'rlik kemirarmish umrni chaynab!
Bu — mudhish egovga berardim turish,
Ketsang ham menga jon tuyg'ungdan aynab.

Bilardim, qaydadir olasan nafas,
Murakkab bu dunyo sen-chun ham tirik.
Senga yot — noshudlik, tund ruhlik, qafas,
Bugungi qadaming kechadan yirik,
Nega, nega meni tashlab ketmading?

Bilaman, rashk meni etardi halok,
Afzal ko'rganingni qarg'ab o'tardim,
Izingdan yurmasdim soyaday g'amnok,
Lekin ishq haqqi-la mag'rur kutardim.

Hayotda men uchun qolarding tirik,
Qalaming mujdasin kutardim mushtoq...
Ma'yus taqdiringga yashab men sherik,
Mushkul bo'layotir shodlik yaratmoq.
Nega tirik ekan tashlab ketmading,
Tashlab ketmading-a, boshlab ketmading?!

1970

Kelin tushdi

Qo'shnimiz uyiga tushmakda kelin,
Hovli-yu ko'chani zabit etgan karnay.
Payvandlab bir kuyga ikki yosh dilin,
Qadim-qadimlardan kelib kuylar nay.

Surnay goh navo-yu, goh hind na'masin,
Neki bor — yangratar qay kuy bo'lsa urf...
Bizning hovlida ham to'yning nafasi,
Mening dilimda ham bahor urdi qulf.

Kelin-kuyov qalbin to'ldirgan shodlik
To'lqini tinmasin surnay misoli:

Kaftda tutmas to'ydan tantanavorlik,
Hayot bog'i goh tinch,
Gohi bo'ronlik.

Og'irlik yelkada,
Iqbol o'rtada
Boqiy qolsin juft-la sevgi visoli.

1974

Lola

Lola,
Lola,
Butun koinot lola,
Ko'zim qamashadi,
Aqlim zavqdan lol.
O'ngirga to'kilgan qizil shalola,
Poyimda bepoyon ol gilam misol —
Boqarkan ko'z kabi to'liq ziyo-la
Bosib,
Yo'lim davom etmagim mahol.

Yoshlik ekan:
Bosib,
Yanchib o'tganman,
Lolalar yonog'in domiga tushib —
Yoniga boriboq, yonlab o'tganman,
O'zgasin jilvasi dilimda jo'shib.
Uzganman,
Yulganman ildiz-la qo'shib,
Quchog'im to'ldirib ko'zga surtganman.
Salqin ko'rpasiga uzala tushib,
Quyoshdan loladay qo'shiq kutganman.

Tushda yulduz cho‘lin kechganman tog‘da,
Bulut silsilasin o‘tganman yayov.
Men maslak yo‘lida umtilgan chog‘da
Bo‘lman men kesib o‘tolmagan g‘ov.
Endi-chi? Lolani toptasa birov,
Yo yashnoq bir gulni bo‘lsa uzmoqday,

O‘layman:
Lola cho‘l ulkan yonoqday,
Quyoshdan,
Bahordan yal yonib lov-lov —
Shu fusun,
Go‘zallik ona tuproqda
Behadlik yashnasin,
Men bo‘lay yayov!
Zavqimni chodirday yozay ardog‘da,
Uzmoqqa hech kimda dil bermasin dov!

1975

Izlayman...

Fikrlashdan bosh-u
Dil tolganida,
Ishli onlar o‘tib, el olganda dam.
O‘zim uchun yulib vaqt olganimda,
Xuddi yuragimday munis bir hamdam
Yonimda yo‘q bo‘lsa,
Uni izlayman.

Bahorga shoshqinsam jannat qilgan duch,
So‘ylashga talpinsam o‘rgatgan kuyga.
Jo‘shqin davralarga jur‘at bergen kuch
Buyuk,

Boqiyligi g'arq etib o'yga,
Qonimga suq solsa,
Uni izlayman.

Bag'rimdan uzganim — bag'ri-la xursand,
Qonimni berganim — baxti-la gulgun.
Husni mendan ko'hlik,
Parvozi baland,
Mehri bir jonimga solib ming to'lqin —
Sig'mayin jo'sh ursa,
Uni izlayman.

Kunlar qancha shodlik,
Qancha noshodlik,
Qancha ish,
Kohishga etar ro'baro'.
Jahonga sig'magan sevinchga nordek
Kelib bir bahamni qilganda orzu,
Taqdir to'siq bo'lsa,
Uni izlayman.

Izlayman!
Bilaman, topmayman uni.
Zotan, o'zim uni qachon yo'qotdim?
Farzand,
Nabiralar tug'ilgan kuni,
Men uni har safar Abadga topdim...

1975

O'riklar gullar...

Shoir sevgan o'lka ko'ksida
Xushbo'y bahor kezib yuradi.
Ne bog'! Hatto qoya ustida
O'rik oppoq bo'lib gulladi.

Juda ham ko'p gulladi o'rik,
Zero, cho'llar bog' bo'lib ketgan.
Hamma yerda ochilgan qo'riq,
Yurtin xalqi guliston etgan.

Do'st-u yorlar jamuljam bu kun,
Aziz noming mehr nurida.
Ming bor uzr, bugun sen uchun
Men o'ltirdim to'ying to'rida.

Bugun senga to'lmish yetmish yosh,
Yarmi bizdan qaylarda kechdi?
O'ttiz besh bor gul ochib qiyg'och,
O'ttiz besh bor o'riklar pishdi.

Oramizda seni mo'ysafid
Ko'rganlarning bilmam nomini.
Kuylab ishqni, tongni muttasil
Menga qo'yding umr shomini.

Men shomlardan saharlar yasab,
O'ttiz yoshli bo'lib yuraman.

Har bahorga chiqqanda qo‘msab,
Qaynoq qo‘llaringdan tutaman.

Va yuraman yoningda o‘ktam,
El omonlik etar seni shod.
Seni ko‘rgan va ko‘rmagan ham
Bu muborak noming qilar yod.

Va bilasan keksarmas umring,
Donday yoyiq yillar qatiga.
Kuylay berib yoshlik qo‘shig‘in
Mangu qolding yoshlik faslida.

Ne-ne go‘zal yoshliklar kelar,
Umri boqiy hayot yo‘lida.
O‘shanda ham o‘riklar gullar,
Sen bo‘lasan dillar to‘rida.

1979

Fo‘rtliklar

Men ishq edim,
Ishqdan mastdim bearmon,
O‘ttizga yetmay bir zarbdan uyg‘ondim.
Keyin oltingugurt olovisimon,
Ko‘rinmay hijronning dog‘ida yondim...

* * *

O, muhabbat, ko‘rsat qiyofang,
Bisotingda xanjarmi, yo may?
Goh qalblarni yayratib cheksiz,
Goh jarohat solasan qiymay...

* * *

Kimki ayol diliga hokim,
Idrokidan sezadi ustun.
U olmagan cho'qqi yo'q, neki,
Ayol o'zi cho'qqidir bu kun.

* * *

Faqat mehr-u vafo qilganmiz ato,
Pokiza hislarga farzand bu o'g'il,
Kelinim! Eng go'zal, munis, musaffo
Tuyg'ular hammasin senga bersin ul.

* * *

Bolaning har dardi — tanning og'rig'i,
Unga tikan kirsa og'rig'i sanda.
Oh, onam! Ayting-chi, ona borlig'i
Xuddi shundaymidi yaralgan ondan?

* * *

O'lgach, yonginangda qolsam bir umr:
O'ttiz yosh, soch yoyiq, ko'zlarim giryon...
Juft ko'rsa surriyot, bulut, she'rxon, nur,
Qadam yetganicha ketsak ikkovlon...



*Seni kuylayman,
hayot*

Tingla, bulbul

Bulbul sayrar, irmoq kuylar, o'ynar yel,
Hamma yoqqa nur to'l ganga o'xshaydi.
Shirin kuyga to'lib ketdi ma'sum dil,
Sevgi unga yor bo'l ganga o'xshaydi.

— To'xta, bulbul, men kuylayin, jon bulbul,
Sen tinglagin qalbimdagi torimni.
Bahor desam, rashk qilmasin chaman gul,
Yuragimga kirib olgan yorimni.

Men yor sevdim, ishq o'radi o'yimni,
Erka dilning to'lqiniga qulq sol.
Sen biyronsan, lekin mening kuyimni
Ko'rki bo'l gan sadoqatdan saboq ol...

1951

O'g'lim, sira bo'lmaydi urush

To'lisharmi o'lkada bahor,
Quyosh kezar osmon ko'ksida.
Qaldirg'ochlar qanotmi qoqar,
Undan soya labi ustida.

Mana, o'g'lim labi ustida
Qaldirg'ochning mayin qanoti.
O'spirinim toza ko'ksida,
Kunda oshar yangi his toti.

Bo'yi oshib ketdi bo'yimdan,
Bosa olar ko'ksiga boshim.
Sevgim ko'rib bergen uyimda,
O'sdi mening katta yo'ldoshim.

Yurak to'la shodlik, mehr, baxt,
Uning ko'zlariga boqaman.
Nigohiday tiniq va yorqin
Orzu to'lqinida oqaman.

Orzulari qalbimga ziynat,
Hayotidir ko'zim qorasi.
O'kinaman, ba'zida faqat,
Yonida yo'q uning otasi.

Urush! Noming o'chsin jahonda,
Hamon bitmas sen solgan alam.
Sen tufayli ko'p xonadonda
Ota nomli buyuk shodlik kam.

Yulding ota demak baxtini,
Juda murg‘ak go‘daklarimdan,
Yaxshi ham bor shunday Vatani,
Dalda bo‘ldi yuraklarimga.

Ota bo‘lib soldim men yo‘lga,
Ona bo‘lib mehrimga oldim.
Mana, yurtga o‘g‘il o‘stirgan
Bir davlatmand boy bo‘lib qoldim.

Qancha ishonch, umid baxsh etar,
Ham Vatanga, ham menga bu dil,
Qoya kabi yonimdan chiqib,
Suyan, — deydi, — kiftimga dadil.

Men onaman, mening yuragim
Farzandlarim quvonchiga kon.
Dil orziqar, ba’zan tilagim
Vahimalar o‘ragan zamon.

Yo‘q, urushning nomi ham o‘chsin,
Mening o‘g‘lim kerak hayotga.
Istamayman, uning dudlari
Qo‘nsin labi uzra qanotga.

Bas, bas, ezgu onalar qalbi,
Yashay olsin bexavf, baxt bilan.
Mehnatimiz, g‘azab, sevgimiz
Tinchlik, deydi butun xalq bilan.

Ko‘krak suti va mehnat bilan
Biz jahonga berganmiz turmush,
Ona qalbi oyoqqa tursa,
O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush!

Sahar men bilan...

Kundan kun saharga ortar sog'inchim,
Nahot hayot shomin yaqinligi bu?
Salqin oromida yo'qolar tinchim,
Demak, shafaq men-chun yolqinligi bu!

Nahot umrimdag'i sahargi zavqlar
Tark etib izlayman sahardan najot?
Birday emasmidi yil, fasl, vaqtlar,
Nedir o'tib, nedir kelmaydi, nahot?

Sahar bu — yoshlikday borlig'i orzu,
Sahar o'qilmagan g'aroyib kitob.
Nahot umr olib qo'lga tarozu
Mendan kutar halol, aniq sarhisob?

To'xta!
Nechun yillar pallasi vazmin,
Umrim emasmidi hayotdan tuhfa?
Sarhisob chog'da ham o'zimda izin,
Posangisin rostlash paytimas, to'xta!

Kun faqat saharmas, kunduz, shomi bor,
Kech pishar mevalar ozmi tuproqda?
To'xta!
Tarozuga qo'yardek kuy bor,
Hali sahar siyoq yashnoq dil-bog'da.

Men axir sahar chog‘ tavallud topdim,
Onam ko‘ksi, aziz yurtim ham sahar.
She’rga dil daftarin saharlar ochdim,
Eslayman:

Topgandi sevgi qo‘ynidan
Meni tog‘dan og‘ir hijron ham sahar.

Bugun shom ustidan yal-yal kulajak
To umr boricha sahar men bilan.
Har kun menga sahar tuhfa etajak
Xalqim yuragiga safar men bilan.

1968

* * *

Naqadar yer jamoli ajib,
Har soniya suvrati o'zga.
Kezmoq mumkin ovozda oqib,
Tutmoq mumkin havoni ko'zga.

So'zsiz, kuysiz mahliyolikni
Atash mumkin jarangli doston.
Hayot nomli ro'shnolikni
Mo'yqalam-la chizmoqdir oson.

Lekin meni otar bir o'yga,
Har bir rangi oladi ko'zim.
Giyohlari mast etib bo'yga
Qayta maftun sezaman o'zim.

Va ming bora aytgan qo'shiqni,
Takrorlashdan hech qilmayman or.
Takror izhor etib qulluqni
O'lgunimcha kuylayman takror...

1968

Seni kuylayman, hayot!

Yashash aziz hissi tanda kezganda,
Umr ko'pi kechib, armon dilni ezganda,
Hatto o'zni xasta, zaif sezganda,
Og'ir, benaf o'ydan yurak bezganda
Seni kuylayman, hayot!

Har sahfang o'qilgich yangi bir kitob,
O'tmishmi, ertami tug'ilar har bob —
Yashash va yozishga qilganda xitob,
Sukut xijolatin yengmoq azmida
Seni kuylayman, hayot!

Har fasl bir ajib tarovat to'ksa,
To'kin kuz hosili shoxlarni buksa,
Yangi rizq — yomg'ir, qor tog'larga
cho'ksa,
Bahor gulin ko'zga surtmoq azmida
Seni kuylayman, hayot!

Sen o'zing kun sari o'sgan farzandim,
Goh chaqnoq shodligim, goh achchiq
zardim.
Mehnat zafarlarim, beshifo dardim,
Do'stdan mehr — maktub kutmoq azmida
Seni kuylayman, hayot!

Sening o'zing shirin va tansiq tuhfa,
Har umr baxt shonin yo'g'urar supra,

Yo‘g‘urmoq ming taxlit va ming bir turfa;
Bu maktabni qayta o‘tmoq azmida
Seni kuylayman, hayot!

Kuylayman, kuylamoq kun sari mushkul,
Men senman, sen mening borligim butkul.
Yelkamga yuk ortib, qo‘limdan tutgil,
Bu baxtni nazmga to‘kmoq azmida
Seni kuylayman, hayot!

1970

* * *

Qog‘ozdan yoqilgan gulxanlar gar ko‘rkam
Bir damda ko‘k o‘par ming tilli olov.
Bir dam alaqishsang so‘nadi shu dam,
O‘tni tilga solib bo‘lmaydi darrov.

Bularning sevgisi — gulxan yonishi,
O‘zni ham, atrofni etdi nurafshon.
Bu oniy yonishi, oftob botishi —
Simon haroratdan qolmadni nishon.

Ikki qirg‘oq ora oqqan mehrmas,
Ikki dildagi dard — muz kuydirishi,
Bir sevgi ikkiga yorildimi — bas,
U — chiroq so‘nishi, tunning kirishi.

Afsus, so‘ngan gulxan qayta olmas cho‘g‘,
Darz ketgan ko‘ngillar bo‘lmaydi butun.
Gulxanni so‘ndirgan bo‘ron, muz to‘liq,
Dil-u ko‘zlarini ko‘r qildi tutun...

1974

Oftob, sen borlig'im!

*Bir shifoxonada dardli tan bilan
Tinmoqchi yurak-la yotaman
tanho...*

Quvon, yana yorqin tongga yetishding,
Tundan omon chiqqan joning siylar nur.
Quvon, derazangdan salom eshitding,
Juft kabutar sayrar ilk bahorga jo'r.

Yana ko'zlariningda sen bilmagan kun,
Hamma kunlaringdan go'zalday go'yo,
Rangsiz qo'l, yuzingdan o'ynar oftob,
Ko'rganmiding shunday hayotbaxsh ro'yo.

Senga yetgunimcha junjikdi tanim,
Tomirimda qonlar qoldi g'ildirab.
Oftob — mening yorqin, sodiq vatanim,
Ko'zlarimdan sevinch yoshi mildirab —

Boqaman. O'pkamni yayratar havo,
Quyoshim, men sendan olaman shodlik.
Ko'zni qamashtirgich nuring dardimga davo,
Hayot yana go'zal misli ozodlik.

Mana, oppoq xonam shu'laga makon,
Binafsha bo'yiday yayratdi tanim.
Oftob! Sen borlig'im tirik tutgan jon,
Sen yolg'iz manguga tashlab ketarim...

*Hillar va
O'ylar*

Rashk

O‘ltiribman daryo bo‘yida,
Yuragimda rashk bilan havas.
Daryo oqib borar... qo‘ynida
Quyosh nuri, bahorgi nafas.

Yo‘q, rashkimni qo‘zg‘atgan bumas!

Chunki, men ham xalq dengizida
Bahor nafasin ham sezaman.
Daryo oqib yotar izida,
Men istasam jahon kezaman.

Lim-lim suvdan uzolmayman ko‘z,
To‘lqinlarda tirik hayajon.
Quyosh million va million yulduz
Bo‘lib unga sochilgan marjon...

Tepasida uchar gala qush,
Arg‘imchog‘in daryoga solib.
Tog‘ yellari urib o‘tar to‘sh,
Salqinidan shaharga olib.

Yo‘q, rashkimni qo‘zg‘atgan bumas!

Ishq va hijron olovlaridan
Omon chiqqan qaynoq dilim bor.
Men quyoshli el farzandiman,
Baxtlimanki, yoniq nafas yor.

Yo‘q, rashkimni qo‘zg‘atgan bumas!

Nigoh ketar to'lqinlar bilan,
Sohillarga suq bilan qarab.
Qo'lda ketmon, bir chol daryodan
Bog'iga suv ochadi yayrab.

Kumush sochday yoyilar suv ham,
Quyiladi tuproq qo'yniga.
Mening qalbim rashk bo'lib shu dam
Osiladi suvning bo'yiga.

Hovuch-hovuch ichadi qizcha,
Serob bo'lib ketar tashna lab.
She'rim o'qib bir hovuch suvcha
Bahra olarmikan biron qalb? —

Shu rashk meni qiynar bu nafas!..

1958

O'quvchimga

Yurak nihol olov qo'ynida
Yonar, kular, yashnardi shaydo.
Orzu, hisning sof o'yinida,
Ilk she'rlarim bo'lardi paydo.

She'ring murg'ak, lekin diling soz,
Nafasingda, dedingiz, o't bor.
Yonib kuylash shoirlikka xos,
O'sgin, sovish bilmagin zinhor.

Bu otashni bag'rimdan olib,
Vodiylarga, gullarga berdim.

To‘quvchini qo‘sinqqa solib,
Qo‘riq yerlar bag‘riga kirdim.

Ishq, haqiqatan qudrati go‘yo
Mening bilan tebratdi qalam.
Qo‘sinqlarim bilmay g‘ash, rivo,
Oshkor kuldim, oshkor chekdim g‘am.

Dili shoir hassos bir elga,
Farzandligim naql etar burchim.
Xalq qalbiday bir go‘zal she’rga
Yetarmikan hech qachon kuchim...

1959

* * *

Tinmay og‘riydi boshim,
Ko‘z ochishga mador yo‘q,
Botdi umr quyoshim,
Dardning buluti quyuq.
Chog‘i...

Unmaydi ishim,
O‘kinchdan og‘rir yurak.
Bu yashash, bu bir turmush,
Unga tob bermoq kerak.

1960

Men chizolmagan surat

Men yo‘ldaman, tinmagur yurak,
Yangi shodlik, qo‘shiqqa chanqoq.
Hamma yerni ko‘rmog‘im kerak,
Go‘yo menga hamma yer mushtoq.

Qishloqlarni kezdim borlig‘im
Jarangli dam sehriga maftun,
Vatandosh, sen baxtiyorligim,
Sensiz na kuy, na hayot butun.

Qahramonni chaqirdim, yondan
Tovush berdi kolxozchi ayol.
Yellar yuvgan yuzida ilhom —
Men yozajak kuydan barkamol.

Oftob olgan durra, chang etik,
Dala, quyosh saxovati bu!
Ko‘zi o‘ta boqqan qalb yetuk
Zamon o‘zi! Tashvish ham suluv!

Nurlanadi dag‘al barmoqlar,
Ko‘zlaridan jon olar qo‘shiq.
Qonidagi yangi irmoqlar
Zamzamasin chizishga rang yo‘q!

Jasoratning bayoni qay rang,
Donolikning belgisi qay so‘z,
Suhbatida she‘r o‘qiganday
Yuksalaman men ham izma-iz.

O‘z baxtiday vazmin bu zotda
Parpirovchi qanot ko‘raman.
Hayot o‘zi, o‘zi hayotda,
Men hayotni chizmak bo‘laman.

Men chizaman... non, sevgi, mehnat,
Do‘stday aziz ayol suratin.
Shu kamtarin, shu ulug‘ san’at —
Mening yurtim, mening shuhratim.

1961

Kimni kutasan

Ko‘zing muncha yo‘lda intizor,
Ey, bahordan barkamol husn.
Iztirobing dilimga ozor —
Ishq hijronin bilganim uchun.

Sen kutasan kimni, qayerdan,
Kelaman deb, qildimi va’da?
Sen kutasan, gulning bargidan
Nozik diling mustahkam ahdda.

Ishqli qalbning qoniday labing,
Lovullaydi ma’sum otashda.
Uchqun sochar ohu ko‘zlarining
Yashirmoqchi bo‘lganining g‘ashda.

Ey qalbiga riyo begona,
Tabiatning bokira qizi.
Go‘zal otashda yona-yona,
Ayt, kutganing nonko‘r kim o‘zi?

So'ramayman, uzr ey malak,
Beburd nomni olma sen tilga...
Bahor ko'kin bezab kamalak,
Birdan shunday sovrlar yerga.

Dilga orom yorqin yulduzing
Qayerdadir chaqnab turibdi,
Sevgi, vafo axtarib izing
Chin baxt o'zi sen deb yuribdi.

1961

Okeanda

Okean, kema, qardosh, do'st,
Xurmolarda maymunlar.
Kun dengizda ming-ming ko'z,
Nurday ravshan ko'ngillar.

Tabiat etgan sehr,
Qutulmoqqa yo'q darmon.
Davrada qo'shiq, mehr,
Bir so'zdan sachrar gumon.

Ilhom, kuy boshda yalov,
To'lqinlarda tabassum.
Sen, Vatan o'g'li darrov,
Nedan cho'chib qolding jim?

Kulgu qochdi yuzingdan,
Gumonga bo'ldingmi qul?
Gumon mening izimdan
Qolmas bo'libmanki tul.

Bil, u uying, bolangdan
Olib menga bermaydi.
Bu muhabbat yo'limas,
Dil u kuyga kirmaydi.

Sen, gumon dengizday kuch,
To'lqin bo'lib ot meni.
Tanamda qirg'oqdek kuch,
Yengib chiqaman seni.

Borligimcha qolaman,
Marhumim saqlab omon,
Dillardan joy olaman,
O'zin kemirsin gumon!

1961

Qatra

Ko'zdan, so'zdan, qo'llardan uzoq
Bukun senga to'lar ellik yosh.
Go'yo maysa ellik yoshlik naq —
Ellik yoshday boqadi quyosh.
Qalam, qog'oz yozuv ham go'yo
Ellik yoshli yetuk va yaqin.
Hamma real, xayol va ro'yo,
Hijron, sevgi, yog'in va chaqin.
(O, arablar! Tasanno sizga,
Hikmatingiz keldi menga qo'l.
Debsiz. «Eng cho'ng, uzoq masofa
Dil bilan dil aro yotgan yo'l».
Shu cho'ng, uzoq yo'l boshidan man,
Intilaman qalb bilan qalbga.
Men she'r dan ko'prik tashlayman

Uzr aytib dono arabga).
Ponamisol yorib taqdiring
Men kirmayman uyingga zinhor,
Zero, hech on baxting va mehring,
Fikring chulg'ab bermadim ozor.
Lekin bukun do'st-u raqib jam,
Ho, do'st deb sev, ho raqib deb quv,
Ertaklarda bo'lganday men ham
Keldim, bo'lib dilingga g'uluv.
Darkor emas na poygak, na to'r,
Qatraga barg ham, kosa ham joy...
Endi seni azob va huzur
Girdobiga olar hoynahoy.
Bo'sh qadahni qo'yasan sekin,
Shuhrat-hurmat va sharobdan mast.
Nedur senga yetmayin lekin.
Bir nuqtaga boqasan loqayd,
Go'yo hamma g'oyib bo'lganday
Birdan o'zing sezasan yolg'iz.
Qo'l cho'zasan sipqormak-chun may,
May tutadi o'tsiz, olovsiz.
Tutamog'i etar betoqat
Va kayfingdan qolmaydir asar.
Chunki qadah tubida tomchi
Bir bulbulning ko'z yoshi qadar —
Shaffof, quruq, otashga to'liq
Alangasiz turadi yonib,
Unda shodlik, kayf-u safo yo'q.
Icholmaysan bu mayni qonib.
Kim bilar, u ne? Jigar qoni,
Yig'lamagan ko'zing yoshimi?
Yo bo'sadan yot lab fig'onin
O't jismiga yashirgan nammi?
Yo qo'rqqoq ishq zaif jur'atning
Ikki boshga solgan qamchisi.

Yo ayolning qalbi hovurining
Muzga tegib singan tomchisi.
Nima bo'lsin, shu yetim qatra,
Menman, menman, men o'zim faqat,
Sen bu tutov olovdan saqlan,
Ichma, bu may na kayf, na-da baxt!

1962

Qozog'iston o'lantari

Yurak orom istab qolgan har damni
Ko'mmoq mumkin qaysi chohning qa'riga?
Oylab sukut qilgan bu xit qalamni
Yondirayin qaysi g'azab qahriga.

Nechun shamol kabi tezmas qadamim,
Ko'z-u quloq bo'lib kezmayman tinmay?
Nechun sahro so'zin, toshlar nafasin,
Do'stlar o'toqlarin yashayman bilmay?

Umrda g'aflatga qolgan nafas yo'q,
Rohat istagini yo'llarga sochgum.
Ana, Olatovdan to'kilar qo'shiq,
Men, qo'shiq gadosi, qalbimni ochgum...

1962

Ko'kchatov

Ko'kchatov tavsifin qozoqdan so'rang,
Mening qalbim ko'chib, qamashdi ko'zim.
Nur makri, suv aksi, ishqday moviy rang —
Tabiat quliga aylandim shu zum.

Bu ham kam, yurakka chang solib oshkor,
Bu yer go'zalligin chiqdi shoiri.
«Ko'zgu kerak bo'lsa Oynako'lni ol.
Bunda sen ko'rmagan husning bor», —
dedi.

Shu Oynako'lingning toshi bo'lay men,
«Raqqosa Qayin»lar ichra yo'qolay.
Etakdan, kiprikdan, sochdan tort, keyin
Men o'tli sehringni qo'shiqqa solay!

Bu yerning tog'idan zamonga boqqan
Mening ikki ko'zim naq bir juft jayron, —
Mehrim qaynoq yelday yoyilib ketgan —
Ufqni sig'dirsam, siz bo'lmanq hayron.

Har so'qmoq chorlaydi qo'shiq yo'liday,
Endi qalb ko'lday tinch, qilmas zamzama,
Archalarning nurga cho'ziq qo'liday,
Tashna dil har bargdan qilib kuy tama —

Sahro quyoshiday yonadi lov-lov,
So'zlar alangada qolar pishgali,
Men boqib turaman tiyrak, beayov
O'tdan omon chiqib dilga tushgali.

Bunda har dil boqar burgut siyoqli,
Tog'day arslonto'sh-u buloqday tiniq.
Sukuti vulqonday olov qahqahli.
Kuyi tubsiz orom, ilk ishqday yoniq.

Ho'plam qimizingning jannatday kayfi
Ming bitta bahorni yodimga soldi.
Qay qiyoq, lolangning siladi kafti,
Manglaydan umrimning izi yo'qoldi.

Oppoq Qiz o'toving dilginamga xush,
Do'mbirang onamday shirin allalar.
Tanti do'st, mashinang bir kun ketsin bo'sh,
Yo u qo'lga tashla — yursin parilar.

Olib ketma, yashil jannat qo'ynidan,
Oliy dasturxonga ming qatla uzur.
Saxiylik shohisan, bu bokira yer,
Munis nafasidan olaylik huzur.

Mezbon oqinimiz tog'day turar tik,
Qiyiq ko'zlarida mayin qat'iyat,
— Mushoira kutar ovulda! — ketdik,
She'riyatga she'rxon hokimdir faqat.

Dil tashlab, dil olib men tushdim yo'lga,
Burgut siyoqlida tiniq ashk qoldi.
Qalbim nigohlari yetmagan kuyga,
Yuragimni tirnab ajib rashk qoldi...

1962

Bulut o'yini

Men bulutni sevmaganman,
Qolmaganman to'rida.
Hech ajabmas ozsam dindan
Qozoq Eshik ko'lida.

Pag'a bulut izlarini
Ushlab ko'rmagandim hech.
Bunda qolsam yuzlirimni
Yuvar emish tong va kech.

Harir ro'mol bo'lib mayin,
O'ralarmish bo'ynimga.
Tutqazarmish samo nayin,
Yel qanotin kuyimga.

Quyosh nurin hovuchida,
Ichirarmish chanqasam.
Kiygizarmish kamalakdan
Kamzul tikib beqasam...

Men boqaman yorqin, kibor,
Bulut kezar sarsarak.
U goh tug'yon qilgan xayol,
Goh yel chuvatgan ipak.

Ko'z oldimda, atrofimda
Kezar to'sib yer husnin,
Lablarimda, peshonamda
Sezaman muz nafasin.

Ko'lda suzar qayiqsimon,
Qurg'oq uzra piyoda.

Yer sig'dirmas, quvar osmon,
Qaror topmas qiyoda.

Ko'k yetimi, pag'a bulut,
O'yiningda san'at yo'q.
Sehring agar bo'lsa unut,
Ko'k beg'ubor, tuproq to'q.

Quyosh, yulduz ruxsorini
To'smaysan ko'zimizdan.
Sen tark etsang sehring borin,
Dehqonsan o'zimizda.

Men qolmayman quchog'ingda,
Sen izimdan tushasan.
Mening Ona tuprog'imda
Don, suv bo'lib jo'shasan.

Bu tuproqda yo'q yatima,
Sarsari yo'q! Yog'ib tush!
Men qaytaman yerga — elga,
Kelguningcha xayr, xo'sh!..

1962

Ukpar jig'ali

To'kilarmi toshlardan tomchi,
Yo chashmada o'ynar baliqlar.
Sayrarmi boz Qulash egachi,
Yo shoirda she'r yetilar?

Kuydash oqib pardama-parda,
Qizlar kelar ekan biz tomon.

G'urur va noz ohu nazarda,
Kelbatida yosh Qozog'iston.

Sochlardagi chilpi shildirar,
Suluv boshlar ukpar jig'ali
Cho'lpi siri sehrga solgan
Ustoz kuychi Avezov qani?

Qo'sh etaklar sirg'ilat asta,
Tosh-u tuproq gul ochar go'yo.
Nim tabassum, bodomqovoqdan
Dilga oqar yoqimtoy ziyo.

Oq bo'yinli yetti oqqushday
Yondan o'tishadi sollanib.
Bir yosh do'stim otash tashvishda, —
Qolsa qayiqchiga yollanib.

— Kimlar bu sof dala gullari
So'z dag'alday, ko'z berar savol.
Kolxozchilar, qo'noqqa chog'i,
Yo xilvatda intizor visol!..

Yosh do'st behol... Yetti mo'jiza,
Yetti yoqqa ketar jilg'aday.
Menda qolar shu hol, shu surat,
Mayin, ko'r kam ukpar jig'aday.

Ko'zda surat, dilimda yorqin,
Ajib o'ylar allalar meni.
Qanday ko'r kam qizlar avlodin
Hassos didi va shoir dili!

Bu libosni zinhor tark etmang,
Shu kiyimda tushsangiz poytaxt

Olmaota suluvlarining
Malikasi bo'lasiz albat!

Es-esimda, go'dak chog'imda
Do'ppi kiyar edim jig'ali.
Do'st udumin boshda tutmakni
Meros bergan Onamga balli!

1962

Balxash oqshomi

Mehmon kutib horgan kuni tinib ishchi
Balxashning,
Qo'nmoqchi yerga oqshom.
Yuragimga navbatini berib yonish-balqishning,
Ufqqa yotdi oftob.

Quyosh, bizdan go'zallikni, o'yladingki,
yashirding,
Kechir, bu o'y behuda.
Kuni bo'yi bu yerlilar bergan qo'shiq mehrning
Kuchi dilda biyuda.

Go'dak raqib, tog' uxlasin, kim uxlар shoir elda,
Yursa bunda ilhomi.
Saxiy kunduz tortig'imman, baliqchingday
sohilda,
Tuvg'on Balxash oqshomi!

Suving erik sarig'moyday yo Temirtov po'lati,
O'rkach-o'rkach to'lqinlar.
Har baliqchi yoqqan gulxan oqin o'tovi kabi
Men-u baliqni chorlar.

She'r tug'ilish oni misol hurkmasin deya qarmoq,

Ardog'li cho'kaman tiz.

«Baliq hali ko'lda suzar, buni ichatur qo'noq!»

Baliqchi tutar qimiz.

**«Bu gal to'rga tushgan senga, baxtingdan ko'r,
boybeka!»**

Men shodman misli go'dak.

«Oyli to'lqin go'yo baliq, ortidan dil entikar,

Baxt qanday bizga kerak!

**Baliqchi, men — ikki juft ko'z ko'l dan uzmaymiz
nigoh,**

Oy suvda nurli so'qmoq.

**«Baxting adim ekan», — deydi qarmoqni tortib
qozoq —**

«O'ljang ulkan, ol qo'noq!»

Iyya, qardosh, baxtim go'zal, o'zbek elatim siyoq,
O'lkam har narsaga boy.

Bovvuchchangni boshlab borib, bizlarga ham bo'l
qo'noq,

Hadya qilay senga toy...

Ikki qo'llab berar baliq — naq uch oyli qo'ziday,
Mungli boqar jontalab.

To'lg'anadi, tangalarda oy sochilgan yulduzday,
Sho'r yel esar tik qarab.

Ijozat ber! Yashab yursin hayot ko'liga tashlay,
Qo'shiq sevar ozodlik.

Ishqli qizning tabassumi yigit qalbga singganday,
To'lqinga sho'ng'ir baliq.

Baliq qolsin, tangasiday yarqiragan toleni
Ketaman yurtga olib,
Nur so'qmoqda ko'rsang bexos yulduz tanli baliqni
Tutma sen qarmoq solib.
«Jaqsi, tashla, bizning yurtdan har tun senga
aytsin kuy.
Oy-maktubdan o'qib yur!»
Mehnat, hayot, do'stlik madhin o'qimoq-chun
oqshom, tun,
Bedor o'tay bir umr...

1962

Yo'lida

Yo'l, qishloq, shaharlar, dengizlar orti,
Goh yerda, goh ko'kda, goh suvda yo'lim.
Quroqday turli yer, inson hayoti,
Turlichcha o'y, kurash, turlichcha qo'nim.

Hamrohim: intilish, qo'shiq va mehr,
Quyosh yo yersimon yo'laman har dam.
Hatto, tun uyquga etganda asir
Ertaga eltadi to'shak-kemam ham.

Vaqtni kishanlashga hamon men ojiz,
Tuprog'im va umrim uzra eltar yo'l.
Ne yozsam tub-tubdan hayotga doir,
Insoniy qalbimning tebranishi ul.

1963

Daraxt

Bir daraxt turardi yo'l chekkasida,
Shamol urar edi uni muttasil.
Avval ko'k, so'ng za'far-xazon tusida,
Ko'rkini yo'qotdi... hamon urar yel.

Qurg'adi, bukchaydi kurashda tanho,
Zilol qonlaridan qolmadi zarra.
Shamol, shamol savab qo'ymadi, ammo
Ildiz-la yiqildi oxir bir zarbdan.

Endi yel bo'shliqda kezar darbadar,
Tanho qurbanining qaqshashin izlab...
Bilaman, daraxtday qulasam agar
Mening hayot bog'im qolmas huvullab.

1963

* * *

Umr o'tmakda... O'kinchdan yo'q iz,
Qalb mehnatga, qalamga chanqoq.
Goh baxtsizlik yutar baxtimiz,
Lekin hayot dilbardir har choq.

Yayratganda yayradim xushbaxt,
Singanim yo'q chalsa-da bo'ron.
Garchand men bir kam hosil daraxt
Ne'matimda tirikdir his, jon.

Yetsa deya kuyim do'st, elga
Yonar izlash o'tida qalam.
Zahmatkashni olganda tilga,
Eslasangiz zora meni ham!

1963

Bog'bon

Bog'bon gulzorida,
 bor dunyo unut,
Qo'lida gulqaychi,
 tesha belbog'da.
Daraxt bor,
 bulturgi xas,
 bu yilgi o't,
Kapalak, yel, quyosh,
 qurt ham bor bog'da.

Gul yoqut, nuqra, dur — yonar naq
olov...

Bog'bon supa uzra qiyig'in yozib,
Bir og'ush chamanni taratdi asta.
Ko'rди.

Tanlamadan noyobin olib,
Kelinga tutguday qildi guldasta.

Chog'i, keksa hassos mehnatidan shod.
Bog'dan chiqdi.

Yurish — raqs tushgan misol.
Mehnat mehri, san'at va gulzorining
Tuhfasi tutganga kelmagay malol.

* * *

Shunday, shoир:
Butun o'zi va qaynoq
Hayotdan qalbida ekar o'z bog'in.
Yot o't, xasni yanchar.

Terar gul.

Qachon
Topdim, — der gavharday yongan
noyobin?..

1965

O'ylar...

Yillarim bu — shoshib, shoshirgan.
Ulkan ulush orqada qolmish.
Yo boy bergen baxtim yashirgan,
Yo'llar meni shu ko'yga solmish?

Yo men ko'chib yetmagan hayot
Ona kabi eslatar burchim.
Serob qilmay bitgan bir buloq
Kabi bitdi yo qalbda kuchim?

Ignan bilan men qazib quduq,
O'sha chashma ko'zin ochaman,
Kor qilmasa qalbimdagi o't,
Sochim yoqib uchqun sochaman.

Otam boshi misol oq tog'dan,
Otqin suvdan yulaman qudrat.
Bu kun kanalga zor tuproqdan,
Tashnalikni olaman pudrat.

Zangor ko'kni birdan sipqarib,
Yerni kunga tutaman kaftda.
Oyga fazo ilmin sig'dirib,
Nevararamdek olaman kiftga.

Xalq taqdirin bir jilg'asiday
Har insondan tilayman bahra.
Suv unutgan qum zarrasiday,
Umrim sochib, o'kinmay qatra —

Havo kesib, charchagan qushday,
Qo'rib, ko'chib kezgum Vatanim
Va mehnatdan naq ipak qurtday,
To'xtamasman, tinmasa qalbim...

1965

Emish...

Emish: shuhrat o'rabi kemtik qismatim,
Ko'zlardan uzoqda sirqirab oqar.
Qalbda qo'rg'oshinday yotib hasratim,
Ko'zlarim jahonga baxtiyor boqar.

Emish: hayot menga ayol baxtidan
To'liq kosasini ko'rmapti loyiq.
Lekin qalbim to'kkani she'r shuhratidan
Baxtli ayol dermish meni xaloyiq...
Tanda qo'rg'oshin-la yurganlar ozmi?

U jangchi tanida, ayol dilida
Qariyb chorak asr zanglamay yotar.
Baxtning ming jilosin bergen elida,
Har bir jon jahonga tole yor boqar.

Limmo-lim qismatga bo'l maganlar yor,
Kemtiklik hasratin bilarmi dardin!
Qalbni bezab ketgan ishqda zo'r baxt bor,
Yurak unutarmi oltin damlarin?

Ayol baxti!

Menday ayol baxtiga
Taqdir malikani ko'rganmi loyiq?
Xalq mehrida, yorman el shuhratiga,
Baxtli ayol desa haqli xaloyiq...

1965

O'zinga

Nega jimb qolding, xasta mung'ayib,
O'zingni urasan yakkash to'shakka.
Nega, kelib-kelib endi, naq g'arib,
Kurashda yengmoqchi bo'lasan yakka?

Qani zukko xislat — iroda, g'urur,
Do'l, bo'ron, hijronlar o'ta kulgan kuch.
Qani o't bulog'i, ko'zingdagi nur,
Ziqlik, xafaqonlik qaydan keldi duch?

Yillar o'tgan bo'lsa, undan nariga,
Kimda muqim qolmish o'n sakkiz yoshi.
Katta taqdiringda o'tgan kunlarga
Betakror zeb bergen hayot naqqoshi.

Uzoq yo'lda kim ham qolmaydi tolib,
Bir dam do'st qatida hordiq chiqargin.
Mehringga cho'zilgan dil bo'lsa olib,
Eng yorqin yo'llarga solib yuborgin.

Kel, kuysiz yurakka qo'shiq bag'ishlab,
Kulgisiz lablarga o'rgat tabassum.
Baxting soch, dard bo'lsa tishingga tishlab,
Yenga olsang yeng-u bo'lma hech taslim.

Faqat seni toshday tortgan kunjakdan,
Qalamingga muhtoj dunyoga otal,
E hakim! Davo top toshdan, chechakdan,
Xudomi, tabiat barin et xijil.

Bor vujudi hayot, iltijo bu jon
Sendan ishlariga tilaydi umr.
Atommi, jonvormi yo bo'm-bo'sh osmon
Changalidan unga bir shifo undir...

Sen o'zing jim yotma, bu keng dunyoda
Hali ko'rар shodlik, qilar ishing ko'p.
Qit'adan qit'aga kezding piyoda,
Xotirang qudug'in qazish kerak xo'p.

Demak yashash kerak, lanjlikni unut,
Daryo kabi uyg'oq hayotga otil.
Eng nodir qo'shig'ing zar baridan tut,
U menda! — deb chorlar oldda qancha yil.

1968

O'g'irlamang qalamim bir kun

«O'g'irlayman qalaming bir kun!»
Hazilingiz ko'chirdi jonom.
Naq yaroqsiz qolarday bugun,
Sirqiradi tole, imonim.

O'g'irlamang qalamim bir kun,
Meni etmang soqov va cho'loq.
Taqinchog'im, anjomim to'kin,
Bari qo'lga, ko'zga yaqinroq
Yotar, olmang qalamim bir kun.

Men Hofizday ulashmayman yurt!
Iste'dodim, qalbim sizlarga.

Yaxshi nomim, baxt-sevinchim but
Barchasini beray qizlarga.

Yuragimdan uzayin parcha
Va keltirib sham deb tutayin.
Xohish, kohish, izmingiz barcha,
Barchasini ko'zga surtayin —
O'g'irlamang qalamim bir kun.

Gar paxtadan to'lmasa reja
Sochlaramni berayin qo'shib,
Sizga orom bermasa kecha,
Oling mendan! Men bedor jo'shib

Baxtingizni olay qalamga,
Ochib beray sizga qalbingiz.
Shuhratini yoyay olamga
Mehnatingiz, sevgi, kashfingiz.
O'g'irlamang qalamim bir kun!

Qalam-la men to'qiyan qo'shiq,
U — insonga, elga xizmatim.
Burchin bekam ado etgan yo'q,
Qarzim uzar ikki farzandim.

Farzand mehri va qalamimni
Xudo haqqi, qo'ying o'zimga.

Usiz qolsam, o'ldi deb mani
Sekin parda torting yuzimga...

O'g'irlamang qalamim bir kun...

1968

* * *

Uchib ketdi polapon qushi,
Uya bo'm-bo'sh qoldi qorayib.
Par ostida sirqirar to'shi,
Ko'z oldida dunyo torayib.

Mung-la so'roq tashlar har taraf,
Mag'rur boshi botdi bo'yniga.
Chag'alari juft qanot bog'lab,
Sho'ng'idi keng hayot qo'yniga.

Yutmoq bo'lib uya huvullar,
Chag'alari o'min silar to'shlari,
Yellar chag'-chug'iday tuyilar,
Quvonch berib siylar tushlari.

1968

Sog'inib

Shu kunlarda bahorga zorman,
Navjuvonlik o'ti tanda yo'q.
Kuz singari za'far ruxsorman,
Mevalar ham shoxlardan uzuq.

Shu kunlarda bahorga zorman,
Tan-xastalik ezadi ruhim.
Tanho emas, qatorda borman,
Yana neni izlaydi suqim?

Shu kunlarda bahorga zorman,
Shaffof, yorqin kuy tilar ko'ngul.
Yaxshiyamki, qalamga yorman,
So'zlab turar bor dilimni ul.

Shu kunlarda bahorga zorman,
O'z bahorim kabi bemisol,
Bahor qaytmas, yonuvchi qorman
Yo no'noq qo'l butagan nihol.

Shu kunlarda bahorga zorman...

1968

* * *

«To'rga tashrif!»... deysiz, joy ne gap,
Yurak, fikr, mehr oldida.
Bilasiz-ku, dillar dil talab,
Yurtlar oshar diydor dardida.

Do'st nigohda ko'rsam o'zimni,
Malikaday to'rda sezaman.
Bir oftob silab ko'zimni,
Baxtlar vodiysida kezaman.

Iltifotli dillar taftidan
Ilhom qaynar misoli buloq.
She'riyatning yorqin taxtida
Ko'rinishdan baxt bormi zo'rroq?

1968

* * *

Goh-goh bir daqiqa tark etmas xayol,
Eski bozordagi suronday o'ylar.
Birining baridan tutdimi xiyol,
O'zgasi shag'alday og'ir quyilar.

Oxirin kutishdan quriydi tinkam
Va dilginam uzra tushadi xarsang...
Shukur, dunyo ichra yashamadim kam,
Va hech dard, hech jumboq etolmadi
tang...

1968

Orzuga ayb yo'q...

Shu kunlarda qalb qo'shiqqa tor,
Kunda bitta yozaman she'r.
Ma'yusi ham, yorqini ham bor
Tuproq, hayot, yurak bu axir!

Yozganda-ku, unutman ko'r-kar,
Faqat dilga solaman qulog.
Buzib, yasab, misoli zargar,
Borin to'qib... nuqta qo'yiboq

Bir tinglovchi qolaman izlab
Va orqaga tortar yuragim.
Uyg'otibmi, chorlabmi, bo'zlab,
Topib, fikring kelar so'ragim...

1968

Suq

O'tgan kunlarimga kelar suq, havasim,
U — mening quyoshday yoshligim.
O'tgan tunlarimga kelar suq, havasim,
U — oydin shodlik, beboshligim.

Dumbullik, jamol ham, bokira xayol ham,
O'ktamlik, erkalik, jasorat.
Sevgidan mastlik ham hijrondan behol dam,
G'aflatdan vayronlik, qanoat.

Dolg'ali tuyg'ular olovli to'lqini,
Xilvatlab yetaklab yurganda,
Qoningning, qalbingning baxtiyor shovqini
Aqlingni kishanlab turganda.

Oftobni xiralab, quyoshday kulgan on,
O'ylagan edikmi, jahonni?
Endi-chi, o'y, ishing, shodliging bor jahon,
Bahorday ne yoqar bu qonni?

1968

Shalola

Mehnat bergen oltin shodlikday,
Otilib toshadi shalola.
Shovqini ilhomdan yorliqday,
Yurakda ko'tarar tarona.

Qaynaydi o'zligin yo'qotib,
To'zitar osmonga kumush chang.
Qirg'oqqa to'lqindan tosh otib,
Go'yo u erk uchun qilar jang.

Borliqni tutadi gulduros,
Hammani chulg'aydi ezgulik.
Qishdan muz olganday o'ch, qasos
Hayotbaxsh kuch bo'lib kezgudek.

Bu kuchga tang qolib oftob,
Tashlaydi kamalak yoyini.
Qulaydi shalola sershitob,
Axtarib kanal-u soyini.

Yugurar yashinday, chaqmoqday,
Axtarar kanal, soy, nahrni.
Baxtiyor yoyilar qaymoqday,
Topganda tashnalab bag'rini.

Naq shunday:
Umrni etib bog',
Oqasan kuy-naqrim, ko'krakdan,
Farzandim, she'rginam, bor tezroq,
Makon qur, eng toza yurakda...

O'tli tomchi

O'tli tomchi, sho'r tomchi, seni
Nega inson ko'z yoshi atar?
Qalb o'rtangach qo'rg'oshin seli
Emasmikan oqqan shashqator?

O'tli tomchi, sho'r tomchi seli,
Sen yuzlardan irmoq ochasan.
O'zimdan ham yashirin sirni
Raqibimga yelday sochasan.

Peshonamga yoziq taqdirni
Chiqarasan ko'zimdan siqib.
Cho'ng irodam qurgan qasrni
Jahongirday berahm yiqib.

Go'yo shamgin, go'yo yalang'och,
Shon-shuhratim eshib tashlaysan.
Yo'q dushmanim bir dam etib shod,
Do'stlarimning dilin g'ashlaysan.

Chiq, so'ng tomchi, yuzdan sidirib
Men orqangdan otay qora tosh.
O'z haqqim-la ko'ksimni kerib,
Ko'z yoshga ham boqayin beyosh...

1968

Marsiya

Yashar tokay kishi umriga bundog' ayriliq
yo'ldosh,
Ajab nodir hayot ko'zgusiga otdi ajal ming tosh,
Firoqning xanjaridan dil jarohatda to'kar ko'z
yosh,
Falakning bu jafosiga qayondan olgumiz bardosh,
Tilak, orzu, umid bog'i kamolida xazon ketdi.

Ketar yer bag‘riga, afsus, bu do‘stga alvido
denglar,
Chirog‘ing o‘chmagay hargiz, yashaysan biz aro
denglar,
Tirikmiz dilda dostoning sira bo‘lmas ado denglar,
Ko‘zing och, do‘st-u yoronlar, bugun motamsaro
denglar,
Yashab to‘ymay, necha orzu, umid, armon nihon
ketdi,
Yuraklarni solib faryodga, do‘st-u mehribon ketdi.

Qalbim qolgan edi bu yerda

Qalbim qolgan edi, bir chog‘ bu yerda,
Sizning dilingiz-la jo‘nab ketgandim.
Ajdodim, avlodim qiblasi — elda
Qalbimni sog‘inib she’rlar bitgandim,
Qani bunda tashlab ketgan u qalbim?

Kezib, soyu qoya ko‘rmagan jondek,
Toqqa tarmashgandim tolib tizlarim,
Sochilgandi shodlik yoqut marjondek,
Lekin tun sel yuvgach kunlik izlarim
Sirqirab chiqqandi tolgan tizlarim.

Ammo yana tongda tushgandim yo‘lga
Soya ko‘tarilmas cho‘qqiga dadil.
Qonlarga tushganda olgandim qo‘lga
Yurakni konchining fonusi shakl
Shu’laday qolgandi u yerda ham dil.

Esimda, chorlashdi yulduzlarsimon
Chaqmoq va bijildoq bir davra go‘dak,
Men bo‘lsam aylanib go‘dakka shu on
Har biri ko‘zidan go‘yo boychechak,
Gilosday boqqandi men bergen yurak.

Ne yaqin-yiroqqa yo‘ldosh bo‘lmadim,
Bu qutlug‘ umrimning izmida erkin.
Hech yerda hech kimning baxtin yulmadim,
Tuyg‘umni izlarga otmadim, lekin
Pisand ham qilmadim rashklilar kekin.

Har yerda dengizga tushgan tomchiday,
Qalbim zarralarga ketdi bo‘linib.
Ammo dilga kirgan har do‘st sevinchday,
Ilhom, kuch, hayotday jonimga inib,
Yashadim, daryoday to‘lib, to‘linib.

Qolgan dil izidan yana keldim-u,
Minglarcha nigohlar sehrida qoldim.
Har salom, har issiq tabassum, kulgu,
Mavjida u qolgan dilim ko‘roldim.

Udumday, merosday qon-la o‘tdimi,
Bu behad ko‘zlarda mavj urgan mehr?
Zarra-zarra qolgan qalbim o‘timi,
Bizni yaqin qilgan muazzam sehr?

Men olgan dillar ham hamon qalbimda
Hayotim bezagi, she’rim jarangi.
Ichgan suvlarimning nami labimda,
Sochlarimda hatto yo‘llarning changi.

O‘sha o‘t yoshlikka men sodiq qolib,
Butun xalqqa dilim berib ketaman.
So‘ng bu gul diyorni qo‘msab, sog‘inib,
Quyoshday do‘stlikni kuylab o‘taman.

1968

Harorat

Harorat ne o'zi?

Harorat, harorat,

Bir jahon og'ushda sezasan o'zingni.

Tuprog'ing ko'ksini tutadi ajib kuy, malohat,
Ming bahor jamoli tindirar ko'zingni!

Harorat ne o'zi?

Harorat, harorat!

Yo mehr mast etgan ko'zlarning boqishi?

Ko'ksingni tog' etgan samimiy muloqot,
Ming dilda bir tongning nurlarin oqishi?

Harorat! Ming yillar tax-taxni to'ldirib,

Bezavol yotgan his emasmi harorat?

Asrlar bo'roni ildiz-la sug'urib

Ololmay tang qolgan kuchmasmi harorat?

Harorat, harorat!

Sen quyosh umriga tengmisan,

Jismingda ming avlod qalbining cho'g'i bor.

Bir osmon yulduzni qamragan okeanday

kengmisan,

Har ezgu insonga porlagan zarrang bor?

Harorat, harorat!

Men seni sezaman qonimda

Ko'rganda farzand, do'st, qardoshning yuzini,

Sezaman o'qigan va uqqan onimda

**Nur yo'lday dilparast she'rlardan shoirning
ko'zini.**

Uydami, kuydami, o'rmonmi yo sahro,

Qo'nolg'am kun kafti, yo muzning changali.

Uchragan har odam,
yangragan har sado
Chorlaydi hayotning bahriga qongali,
Harorat, bu senmi?

Tanhlik tuyg'usin,
Zaiflik, xudbinlik illatin sehr etgan?
Elni yov bossa ham, go'daklar uyqusin
Ardoqlab, tonggacha o'q yasab, she'r bitgan —
Zarbdor kuch senmasmi, harorat, harorat?
Ko'raman:

tuprog'im ko'ksida qon tomir singari
Sahroga jon berib oqadi kanallar.
Nimadir qalbimni uyg'otib, bahordan ilgari
Qo'zg'atar vulqonday sevinchbaxsh ilhomlar.
Xayolday nim shaffof, fusunkor nim oqshom,
Atrofda o'rmonmi yo anjir, olma bog',
Raqqosa — ruhlarni, zavqlarni etgan rom,
Setormi, qo'bizmi, sembalmi yo rubob —
So'zlaydi dillarga xalq dilin uzatib,
Mast etar ohanglar sehri-yu kamoli.

Tilni ham bilmaysan,
Qo'shig'i qoningni tezlatib,
Borlig'ing isitar onaning allasi misoli.
Sen o'zing sezasan qudratga, kuchga yor.
Do'st uyi — o'z uying,
 qo'shig'i — o'z kuying.
Qayg'usi qiymalab chekasan dard, ozor.
Shodligi nurlarga to'ldirar dil uying.
Harorat, bu senmi, muqaddas, noyob o't,
harorat?

Ovozlar, ohanglar, mehmonlar, mezbonlar...
Kim solgan bu ezgu odatlar cho'g'ini dillarga?
Yo'g'irib bir o'tdan, kim qaysi zamonlar,
So'ng, shirin yashang, deb yo'llagan ellarga.
Harorat!

Bugun ham visoldan yashnaymiz, yayraymiz,
Yuraklar,

Ko'zlarda,

Qonlarda sen olov,
Olovki, quyoshning umriga barobar!
Shu sabab, ey do'stlar!

Ko'zu qosh singari siz-u biz,
Abadiy yelkadosh,

Taqdirdosh, birodar,
Bosh uzra do'stlik deb atalgan harorat nur
yalov.

1969

Mening mehribon onaginam

Onam, mening mushfiq, mehribon onam,
Qalbimda ovozing, o'zing qayerda!
Quyosh og'ushiga solganmi olam,
Shu'laday odiming qaysi asrda?

Qaysi mintaqada nafasing hayot,
Qayda kim yo'liga ko'zing muntazir!
Qaysi sayyorada ey, sen Odamzod,
Farzanding bo'shliqni etmoqda asir.

Qay qabila, qay cho'l, qay cho'qqi, qay g'or,
Sening ilk shodliging shohidi makon?
Olam tug'ilishi edi sen ilk bor,
Farzand-la sukutni uyg'otgan zamon.

Qachon edi o'sha, ezgu daqiqa?
Yuzimda sezaman o'sha hovurni.
Onam, sen kashf etgan buyuk aqida
Yillarday keksartib asr, davrni,

O'sha qahramonlik, o'sha husnda
Koinotda, menda yashaydi hayot,
Ajal-la yuzma-yuz turgan yo'sinda
Ona lavozimin etaman bunyod.

Va qonda Yugurar sadoqat hissi,
Ko'ksing issiqligi elitar hushim.
Olovga tashlaydi basir bu jismim
Hanuz o'talmagan farzandlik burchim.

Onam, mening mushfiq, mehribon onam,
Ko'zimda ilohiy ezgu surating.
Yana hayot to'liq, bulutday ko'r kam
Qayda jon bag'ishlar metin qudrating?

Xabar ber, tavallud dardini olay,
Nurda cho'miltiray seni, bolangni.
Tarozu — yulduzga belanchak osay,
Sol, hayot bermoqdan tolmas tanangni.

Tuganmas allangday aytay o'zingga,
Mehr beshigida sen ham ol orom.
Oh, nega kelmadi uyqu ko'zingga
Ey mening bir umr bedor zo'r Dunyom!

Bir choq uxladingmi, miriqib qonib,
Bir nafas bo'lganmi burchlaring unut?
Bilaman, mizg'isang hayot bo'sh qolib,
Koinotga qayta cho'kadi sukut.

Hech bo'lmasa, o'ltir, uzatib oyog',
Mangulik yo'l bosgan tovon olsin dam.
Tizlaringda yotgan qo'llaring charchog',
Hordiq olarmikan qalb-la silasam.

Oppoq sochlaringga qora ko‘zimning
Minnatdor nurini qilolsam taroq.
Chuqur ajiningga boqib, umrimning
Bebosh tantiligin ko‘rdim yorqinroq.

Onam, erkalashing, o‘git-tanbebing,
Bari suting kabi jonimga oziq.
Oh, buni men anglab yetgunimcha ming –
Ming bir alamlarni qilmadim tortiq.

Barisiga uzr, poyingga cho‘kib,
Qo‘ling qadog‘iga egaman boshim.
Qalbing injitmayman ko‘z yoshim to‘kib,
Ey mening saxovat, shodlik quyoshim.

Oh, darhol kechirding, nigohing taskin,
O‘ting rutubatim, hasratim oldi.
Senga yetgunimcha bo‘lgan bor dardim.
Yillarim singari uchib yo‘qoldi.

O‘zimni go‘dakday sezib tizingda,
Bulutday, qulunday yayraydi tanim.
Umring iftixorim, hatto izingdan
Ko‘tarilgan chang ham, senday Vatanim!

Sen tuproq,
osmonim,
qoyam,
o‘t;
nahrim,
Sen so‘nggi nidomsan jon berar palla.
Ey musaffo ko‘ksi daxlsiz mahrim,
Men – ona qizingga ayt, jonbaxsh alla.

Har so‘zing bir kitob, sehriga kirib,
Sen – Momo Havoning yo‘liga tushay.

Bir nuqtasin to'ksam, kiprik-la terib,
Ichga solganingni dilimdan qo'shay.

Negaki, xoksor, ulkan yuraging,
Uzoq yo'l dardini tubga solar jim.
Bir umrlik yo'lda kechib, ko'rganining,
Zarrasi madhiga yetarmi kuchim!

So'z tilab koyitmam.

Mehrob to'rida

O'ltir, qalbing urib tursa kifoya.
Dilim kabi sodiq qalam qo'limda,
Sen o'z yuragingdan boshla hikoya.

1969

Mening tongim

Ona tuproq oromda yotar
Olib tungi risqi-qudratni.
Mening tongim qalbimda otar,
O'ydan, ko'zdan haydab zulmatni.

Tundan tongni uzib olaman,
Katta bo'lsin deb ishli kunim.
Qog'oz uzra sahar yoyaman,
Bag'ishlayman umriga qo'nim:

Oy qoldirgan momiq izlarni,
Ko'chiraman she'r satriga.
Isitmovchi sho'x yulduzlarni
Payvandlayman yerning taptiga.

Olov chehra qizlar qatida
Baxt to'qishga beraman farmon.

Toki yashab inson vaqtida,
Quyoshga tik boqsin bizsimon.

Mening tongim boshlanar tundan.
Kuzataman g'uncha kulishin.
Tog' ortida boshlanar kundan
Yaproqlarda shabnam so'nishin.

Siynaday oq tong uyg'onishi
Husniga yo'q kunduzda qiyos.
Sahar bedor qushning xonishi
Ajib shodlik, yoniq ehtiros.

Qay uydadir yig'ladi go'dak,
— Ber onasi, xushbo'y ko'krakni!
Unga temir qanotlar kerak,
Tark etmak-chun bu tor yo'rgakni!
Uzoq-yaqin derazalarda
Birin-ketin yonadi chiroq.
Shoshqin qadam, kuy, pardalarda
Yangi tongga kiradi tuproq.

Tundan yulgan tongim:
Goh bir she'r,
Goh o'qilgan bir kitob bo'lur,
Goh umrning o'tgan behosil
Sahfasiga bo'm-bo'sh bob bo'lur...

1970

Shafaq

Shafaq nuri go'zal, deydilar,
Men shafaqqa keldim yuzma-yuz.
Jilvalarim zarhal, deydilar...
Tong misoli tindirmaydi ko'z.

Shafaq nuri olis, deydilar,
Qo'l uzatsam tutar qo'limdan...
Haroratdan xolis, deydilar,
Otash o'sar mening yo'limdan.

Shafaq umri qisqa, deydilar,
Cho'kkan jonday botar ufqqa,
Qoldirgani g'ussa, deydilar...
Mening jonim to'la qo'shiqqa.

Yurak zaif, idrok hukmdor
O'tgan yo'lga boqaman loqayd:
Qancha toshloq, jar, tepa, gulzor
O'tilganin bilmabman ko'p payt.

Faqat bitta o'kinch: qalamga
O'tgan kunlar o'tkazar hukm.
Chap berganday ko'p lazzat menga,
O'tgan qolib, iqbolga yurgum...

1972

Yana bugun bahorga zorman

Yana bugun bahorga zorman,
O'z bahorim kabi shoshqaloq.
Yana bugun bahorga zorman,
Kutaverib dil bo'ldi qadoq.

Kel, tuproqni muz qobig'iga
Olgan qishni bir go'rga hayda!
Kutmoq yetdi intihosiga,
Kuy nish urar qalb nomli nayda.

Kuymi, g'ammi, orommi, azob,
Ne bo'lsa ham to'lg'og'i og'ir.
Qalbdan,
Tandan yulib bob-bob,
Kim bo'lsa ham tug'adi oxir.

Bahor — qo'shiq, tavallud fasli,
Bunda senga chunon ham zor bor.
Eng beozor tuyg'ular nasli —
She'rلارимغا bir doya darkor.

Kel, dildiroq qalbimni to'shab,
Bo'g'in, bo'g'inimga olayin.
Faqat o'tinch:
Nur,
Shodlik qo'shib,
Yo'rgaklab ol, mung bo'lsa nayim.

1972

Men tug‘ilgan kun

Bugun mening tug‘ilgan kumin,
Meni tuqqan onam, Siz qayda?
Bedor o‘tib bormoqda tunim,
Bir og‘riq bir qon, jonda, payda.

Tug‘ilganman qaysi soatda,
Qancha muddat siz yegansiz dard?
Qiz tug‘ilish dardi odatda
Bo‘lgan ekan Sizda beshafqat.

Bugun mening tug‘ilgan kumin,
To‘lg‘oqdagi holingiz ko‘zda:
Kursi quchib kurashasiz jim,
Qotma jussa goh o‘t, goh muzda.

Qora terda tanho boshingiz,
Labingiz — dasht jo‘yagiday qoq.
Og‘zingizga tiqib sochingiz,
Tanangizga solarlar to‘lg‘oq.

Besh bolangiz darcha ortida
Joningizni ko‘rib o‘tirgan,
Mening otam qo‘shni otida
Kim qaylardan doya qidirgan?

Bor suyakni chok-chokdan so‘kib
Ichingizga sig‘may ketgan men,
Tanangizning tubida cho‘kib,
Chehrangizga entikkan-da men;

Goh dard tutib, gohi u qochib
Ko'zingizdan sachratgan olov.
Faqat azob eshigin ochib,
Chekinishga qo'ygan bo'lsam g'ov;

Tomiringiz bo'y lab ezganim,
To'qqiz oyu to'qqiz kun uyg'oq.
Besh o'g'ilning izidanligim,
Sizlar intiq qizcha tug'ilmoq;

Yuzingizni ko'rishga shoshgan,
Ko'zingizga kirmoq bo'lganim!
Ko'ksingizga tashna lab chopgan,
So'zingizga mushtoq bo'lganim;

Balki tandan qon-u yoshlikni
So'rmoqlikdan xijolatligim?
Yuragingiz bir quyoshlikni
Sezib, jonim rohatdaligim;

Go'zal qalbning tagida yotib,
Ezgu hissingizda jo'shganim.
Noyob idrok sehriga botib,
Uxloq she'rga shogird tushganim!

Ha, qoningiz, joningizdag'i
Bir jahonni uqib olganim,
Barchasidan uzilish dardi
Yaqinlikdan qo'rqib qolganim —

Bari uchun — jahannamiy dard
To'lg'og'iga otdim ne muddat? —
Men bilmayman!
Samoviy bir mard,
Jon tug'uvchi ilohiy qudrat —
Bo'lganingiz onlarga ta'zim!
Azob uchun umrimday uzr...

Barin takror etdim men o'zim,
Ona bo'lmoq — azobli huzur...

1972

Quyosh uzib ber

— Men quyoshdan uzib beray senga bir parcha,
Yuragimdan uzgan singari.

Men quyoshdan uzib beray senga bir parcha,
Yolg'on bo'lsin o'tning tingani.

Men quyoshdan uzib beray senga bir parcha,
Borlig'ingga yugursin olov.

Ko'zlariningda mahv etguvchi u yolqin chaqnab,
Yuzing yonsin gul kabi lov-lov.

Kul, tovushsiz qahqahangdan durday tishlaring
Oq chaqnashi qamashtirsin ko'z.

Eng yarashiq liboslarda yurt kezishlaring
Edi qanday o'ktam va dilso'z!

Yonar tog'day his, toqatni nihol bir tanda
Olib yurgan mushkul onga qayt!

Yoniq edi sevinch, ishq ham dard-hijron sanda,
Toq misrali bo'lganmi hech bayt?!

Men quyoshdan uzib beray senga bir parcha,
Sevinch, yonish tori tolmasin,
Sen totmagan shodik, lazzat dunyoda qancha,
Seni bilmay dog'da qolmasin!..

— Yo'q!!!

Bir parcha quyoshingga to'lmaydi
ko'ngil,

Saxiy esang, borini tutqiz!
Bir bor nomim yarim bo'lgan, kemtiklik
mushkul,
Dog'i qolgan, dilda chandiq iz.

Menga quyosh qanot uchun, parvoz-chun
zarur,
Axir kurash, baxtga liq jahon!
Qo'ldan tutib qit'alarga yetkazsin har nur,
To'kis, yorqin kuyga to'lsin jon!
She'rlarimda inson baxti, okeanlar kuchi,
Tog'lar matonati ursin barq.
Bo'lsa mening kuyimga ham chanqoq
o'quvchi
Bo'lsin quyosh shodligiga g'arq.

1972

Aziz tuyg'ular

Bahor

Inson ko'zlarida jon olar bahor,
Barcha tomirida uning to'lqini.
O't mishning behuda oni kabi qor,
Beiz, bedard erib ketar uchquni.

Inson ko'zlarida jon olar bahor,
O'yinqaroq go'dak singari bulut.
Ko'k qovog'i uyuq,

yorqin bir viqor

Kishilar qalbidan boqar bo'lib o't.

Bahorning sehrgar boqiy chiroyi
Yosh-u keksa ko'nglin ovlaydi birdak,

Ko'zguni sindirib tashlar.

Kiroyi

Har kishining yoshi bu fasl dildak.

Har nurga,

har qushga,

har kurtakka shod

Benihoya yaqin bo'ladi yiroq.

Go'yo sensiz hosil bo'ladi barbod,

Har tikilgan chigit ko'ksing etar tog'.

Bahor bo'lmasydi, odamzod albat
O'zi kashf etardi, kashf etganday baxt...

Nevara

Ulug'bekka

Nevaram quyunday otilib kirib,

Qalamim tagidan qog'ozni yular.

Damda varrak yasab ko'kka uchirib,

Izidan qop-qora ko'zları yurar.

Varrak tortar shekil, murg'akni kuch-la,
Oyoq tirab siltar dakani kibor.

Ayrib qog'ozdan, she'rdan va hushdan
Boqaman varrakboz jonga baxtiyor.

Naq bobosi siyoq zehnday tiyrak,
Ko'kish alangada yonar soch-u qosh.
Borlig'i ezgu bir o't bo'lsa kerak,
Tomirlarda qonmas, kezadi quyosh.

Daka varrak tiniq zangori fazo

Tubiga intilar, sho'ng'ir naq xayol.

Talpingan ko'ksingda, bolakay, ne bor,
Sen iqbolga, senga ne tutar iqbol?

Nevara bo'lmasa, odamzod albat,

O'zi kashf etardi, kashf etganday baxt.

Majnuntol

Yalang'och daraxtlar ora majnuntol,
Shoir xayoliday latif, serhasham.
Butun novdalar-u tanlari zilol,
Shu yerda tavallud top mish ilk ko'klam.

Zilol bu yomg'irning tagida bir chol
Umr va qish yuklaridan go'yo olar dam.
Yuz-ko'zida yayrar bahoriy xushhol,
Kiftga zilol toldan to'n yop mish ko'klam.

Majnuntol yig'loqi, boshi xam derlar,
Qo'llarin cho'zgan-chun tuproq taftiga.
Hayot-chun, husn-chun, rizq-chun ta'zim-la
Lablarin qo'ymoqchi saxiy kaftiga.

Daraxt ham insoniy yerdan olar jon,
Inson qachon yerdan ketgan uzilib?
Majnuntolda zilol shodlik bir jahon:
Yashaydi tuproqqa sadoqat bo'lib.

Sadoqat bo'lmasa, odamzod albat,
O'zi kashf etardi, kashf etganday baxt.

Nazdimda

Nazdimda asablar bo'lmish uvada
Huda-behudaga bo'laman fig'on.
Fitna, dag'allikmi fikrim chuvalab
Shodlik oqimiga tashlaydi to'g'on.

Sho'ng'iymen nokerak ikir-chikirga,
Shunchalar yashnar ko'zda qalqib qolar
yosh.

Lekin ong, qalbdami dard bilan birga,
Balqir otam izmi, onamdagи dosh.

Otam po'lat bukib, omoch quyganday,
Qog'oz uzra men ham yuritaman omoch.
Qo'riq qatlamida bo'ston tuyganday
Dil undar: «Zarrama-zarra hamki, och!..»

Borlig'imni yigit qudrati quchar,
Ruhimga oydag'i bokiralik yor.
Ishlayman, qatlamlar ko'chkiday ko'char,
Men tuygan bo'stonlar chorlar serviqor.

Mehnat bo‘lmasydi odamzod albat,
O‘zi kashf etardi, kashf etganday baxt.

Bog‘lar qiyg‘os gulda

Bog'lar qiyg'os gulda – yaxlit bir chaman,
Har daraxt anvoyi bir tarovatda.

Bir kaft bog' mehnat-u hosilga vatan,
O'zga ko'rk,

o'zga rang har bir daraxtda.

Har navda bir gulda, har gulda bir ro'y,

Har daraxt bargi bir dunyo hikoya.

Har birin hosili o‘zgasiga ko‘rk,

Biri biri uchun qudrat, himoya.

Vatanim ko'zimda: qay burchi aziz,
Bilmam, qayda tole serzavq, serjilo?
Yalpi to'lishadi bedaxl yurtimiz,
Naq har qarichi dil, jon tomir go'yo.

Bir qardosh tinchisiz – o‘zga beorom,
Birining nonisiz – o‘zga emas to‘q...

Bu — qadim dunyoda yangi bir olam,
Bunda orqa tog'siz bir tirik jon yo'q.
Tayanch bo'lmasaydi odamzod albat,
O'zi kashf etardi, kashf etganday baxt.

Orzu

Orzu, ish kuchimdan ko 'rinar ziyod,
Chala qolishidan yonaman rashkda.
Sehrgarday tortar bag'riga hayot,
Boshim, qalbim, qalam qolar talashda.

Havoday, erkalab,
vaqtday shoshirib
Go'zallik,
mushkullik,
dard,
lazzat
quchar.

Dengizni qimizday obdan shopirib,
To'ymay, dil fazoga kemaday uchar.

Goh Chorvoq GESdaman,
goh Tallimarjon
Oftobida kuyib tashiyman tuproq.
Men quchoqlab sochgan chigit bir maydon
Paxta bo‘lib toshar, ko‘z oqimdan oq.

Bu orzu,
 bu umid,
 bu ezgu ufq,
Mening qad, qiyofam, qalbim kengligi,
Xotima yo'liga tashlangan to'siq,
Yashash ishqin mangulikka tengligi.
Orzu bo'lmasaydi odamzod albat,
O'zi kashf etardi, kashf etganday baxt.

Bag'ringdan qo'yma

Mayli, zaifligim, ko'z yoshim suyma,
Yalqovligim, nuqsim ekan bedavo.
Men tortgan dardlarning zahrini tuyma,
Tuyganda injitib berdingmi sazo?

Baxtdan, baxtsizlikdan qolsam dovdirab,
Senga qo'shiq aytib, senga deyman dod.
Yonsam suv sepasan, so'nsam yondirib,
Boshingga ko'tarding onadan ziyod.

Yillar qancha olib ketsa — shuncha yaqinman,
Borgan sari ortar totli nasibam.
Qayga bormay qaytgum, senga intiqman,
Meningohanrabom, meningsashidam.

Qonimdagiyonish, bebosh hislarim,
Qoniqmas ta'bimni ziqlikka yo'yma!
Qaynoq sevgim, kuyim, sovuq jasadim,
Ona Vatan, o'tinch, bag'ringdan qo'yma.

Vatan bo'lmasaydi odamzod albat,
O'zi kashf etardi, kashf etganday baxt.

1972

Kamalak

Bahor qo‘ynidaman,
Yo‘l bo‘yidaman.
Cheksiz kengliklarning ko‘ksida lola —
Naq anor donalar sochiq yashnaydi.
Lola sayrimizni buzish o‘yida
Quyib berdi jala,
Toshdi shalola,
Tabiat shu dam naq o‘ktam, shum bola,
Ufqdan ufqqa ko‘prik tashlaydi.

Men-chi?
Menga ko‘prik har nedan kerak:
Lolalarni ko‘zga,
Do‘stlar tanbehin
Bahor nafasi-la nonday olaman.
Ne baxt!
Yangi yo‘lga chorlar kamalak:
Yo‘l — qo‘shiq!
Insonlar qalbiga tag‘in
Yangi qahramonlik,
Mo‘jiza taftin
Zabt etmak azmida jo‘nab qolaman.

Kamalak!
Naq bizning buyuk ertaday
Eng suykum,
Eng luzum,
Aziz erkaday
Jozib!

Men yo'l bo'y lab tashlayman qadam:
Ohista olingan kinolentaday,
Yayrab, sevgi kabi siljiyman xush dam,
Shoshmayman;
To'rt atrof go'zalligini
Ilk chiroy tark etgan jussamga olib,
Uning yetti iqlim ko'rmagan rangin:
Ruxsorim,
Lablarim,
Ko'zimga solib,
Dillar aro g'ovni buzib,
Vayronlab,
Eng ezgu sezgiday yaraqlab, suzib
Kirgan dillarimni hayrat, hayronlab,
Qahqahlab,
Yaraqlab,
Chaqnab baxt dardin
Qonlarimga quyib olaman yoshlik!
Yuraman!
O'tgan yillarimni o'tmishga tashlab:
Garchand na sotqinlik,
Na bag'ritoshlik,
Na ryo dog'idan zarra bir nishona!
Bir qadar og'irlik,
Hordiqqa moyillik tuyg'usi g'ashlab,
Umrim kemirsa ham
Hayot ne'matidan to'kisman, shodon.
Yuraman!
Yo'llarim yozgi quyoshdek!
Yo'lim – elim yo'li,
Elim – quyosh yo'lin yo'l deb bilgan xalq.
Har yil bir donami,
Yuz dona, mayli,
O'lmaslik qasrig'a g'isht qo'ygan har vaqt.
Uning kamoloti,

Yaratishining,
Mehnat-u ijod, shon taratishining
Qaynovlari ichra pishmakdan serbaxt —
Hamohang,
Hamsalmoq qo'shiqlar bitsam!
Balki uzoq bunday men havasmand taxt,
Lekin men intilgan yuraklar qat-qat —
Biriga bo'lmasa — biriga kirsam!

Shukr, qalam hordiq qilmaydi talab,
Demak, menga hordiq keksalikday yot.

Ana,
Ming bir jilva bilan chorlar kamalak
Va'da qilib qalbga tinchi yo'q hayot!
Ana yetti rangda
Yetmish xil jilo,
Biri chorlar, arang bir sirin ochsam.
Sirlar bilan jangda
Bir orzum sochsam,
Mingga bilan boyib dovonlar oshsam,
Dildagi bo'shliqning barchasi g'oyib!

Qo'shiqqa aylangich go'zallik kezar,
Uni yolqin, jo'shqin tuyg'ular bezar.

Ehtiros,
Istakni tutamlab dilga
Otsam
Undan yangrab sachrab chiqar she'r!
Yurak-la
Qo'shiq-la intilsam elga,
Menga eng munis do'st baxsh etar har yer.
Kimningdir bir og'iz tanti iqrori,
Kimnidir titratib og'ushlagan nur,
Kimningdir bir umr o'chmas diydori —
Emasmi biz jon deb avaylagan qo'r!

Bizning ko'zimizda,
Tomirda,

Qonda

Shu jodu kezmasa nedan harorat?

Bilay:

Qaydan cho'lda oltin undirgan,
Daryolar jilovin,
Fazo yaylovin,
Zabt etib, mulk etgan inson yayrovin —
Yangi olamdag'i ulkan matonat?
Oldda yarqiraydi mening bosh yo'lim:
Yetti iqlim tomon, yetti yo'l bo'lib.
Yettiga parchalab birgina dilim
Chaqnab chaqmoqsimon,
Jozib va so'lim,
Chorlab chaqiradi ajib kamalak!
Yetmish jilvasida shoshqinib yurib,
Yetti jilg'asida toshqinib, to'lib
Bir talay qo'shiqlar termog'im kerak!

1973

*Orada sahifa qolibdi
bo'm-bo'sh*

Yozardim.

Asab-u fikrim savalab,

Varaqlabman nafis daftaram dag'al.

Bo'sh sahifa qolmish,

Qalb tubin kavlab,

Timdalaydi endi axtarib g'azal.

O'rtada sahifa qolibdi bo'm-bo'sh,

Naq yoshlik — keksalik ufqlari ora.

Oro yo'l — go'yoki jarohatli to'sh,

Goh bitib, ochilib turguchi yara.

Oro yo‘l... Men o‘tgan hayotning mo‘li,
O‘chli mehnatlarning yorqin dovrug‘i,
Eng jonli kuylarning to‘qilgan yo‘li,
Yetim muhabbatning o‘chmagan cho‘g‘i.

Oro yo'l...

Bir jonning ming bir toifa

To'kislik,

O'ksuklik,

Kibriga shohid.

Ko'z yosh chaqnasa ham, she'ri tojida
Tole shotisida chopmoqqa xohish.

Oro yo'1...

Qalbimdan yulungan bir baxt,

Vayron bo'shlig'ida o'chmagan olov.

Qayta bir hokimga buyuraman taxt,

Arzon havaslar-u,

hirs-u irsga yov,

O'zgalar baxtidan sevinchi toshgan,
Insonlar qalbida ko'targan ko'kka,
Sha'ni sarhadlardan oshkora oshgan
Butun borlig'i-la baxshida yurtga...

Tabiatda bo 'shliq bo 'l'maganiday,
Umrimda bir benaf yo 'qdir oro yo 'l,
Quduq hech jahonda to 'l'maganiday,
Aslo tugamasin menga oro yo 'l...

1973

Bo'ron quchog'ida

Bo'ron quchog'ida qoldim bir oqshom,
Tabiat va qalbim ichra to'polon.
Naq ilk bor may to'la sipqarganday jom,
Bir qanotim orom,
Bittasi tug'yon.

To'lqinga tashlangan kemaday qalqib,
Qudratli, mehrli qirg'oq izlayman.
Bo'ronni qo'zg'otgan boisni olqib,
Borlig'im yulqigan qo'lni sizlayman:

Oling, oyoqlarim yerga tegizmay,
Qayoqqa uchsangiz, shu yoqqa uchay.
Qalbim, xayolimdan qulochlar yasab,
Hech kim qucholmagan chaqmoqni quchay.

Uning parchalovchi mudhish o'tidan
Xayoldan ham ezgu yaratay qo'shiq.
Yashin daraxtining olov husnidan
Yerning lablariga sochilsin uchiq...

Qani, avjga ko'tar bor jazavangni,
Yuz tomondan silta izg'iriq qamching.
Tanam bo'ylab hayda o't aravangni,
Do'l bo'lib yog'ilsin hayotbaxsh tomching.

Yulqi va tortqila!
Bosh boshlarimdan,
Bilay yana yetar nelarga kuchim.
Baxt yonlab o'tgan u gul yoshlarimdan
Qoldimikan hech ne, aziz o'quvchim?

O'ltiribman bo'ron ichra serviqor,
Men suyangan tokning sirqirar zangi.
Ikkimizda bir xil po'lat chidam bor:
Iztirob mevasi,
Shodlikning rangi!

Bo'ronsiz yurak-la o'lardim karaxt,
Bo'ronsiz tabiat ko'ki yashinsiz.
Nasib bo'limganda she'riyatday baxt,
Qashshoq o'tar edim yiroq, yaqinsiz.

1973

Men o'tgan umrga

Hayot kitobimni bexos varaqlab,
Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.
Tabassum o'mida kuldim charaqlab,
Suyish kerak bo'lsa — telbacha suydim.

Kiyganim ipakmi,
chitmi yo kimxob,
Yurak boyligidan qilmabsan parvo.
Meni og'ushlagan hayot naq oftob,
Yangi qo'shiq talab bunda har saboh.

Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,
Hech kimda ko'rmayin umrimga o'xhash:
Suydim,
Erkalandim,
Ayrildim,
Kuydim,
Izzat nima bildim,
Shu-da bir yashash!

1973

Kelajak...

Kelajak!

Bir umr ko'zimda turasan,
Men sening baringni tutganda,
Tong kabi yasharib, orzuni quchganda,
Ertaga chorlaysan charog'on
Ko'rsatib xayolning oq chaqnoq silsila
tog'lig'in!

Ertalar!

Ertalar sanog'in so'ngi yo'q,
Ertalar.
Ertalar har biri shoh qo'shiq,
Entikib dovonlar oshmoqqa yuraman,
Chiqaman,
Tushaman,
Boraman bir yechmay istakning chorig'in.

Kelajak!

Sen esa zamin-u quyoshday yo'ldasan
beto'xtov!
Kelaring — borlig'i sir, orzu,
Tabiat o'zi ham,
Donish ham,
Johil ham qo'yolmas unga g'ov.

Bilmaymiz:

Qo'yning-u qo'njingda
Na siyoq tuhfalar bo'lajak,
Kim umrin eng sinchkov mezoni — tarozu
Pallasin qay biri ne siyoq to'lajak.

Sen jamol ochasan:
Har kun bir sabohday.
Yurtimning,
Xalqimning eng mumtoz iqboli singari.

Kechmishim yolg'iz bir alifbo — saboqday,
Sen esang men tinmay uqib ham o'qigum,
Kuch yetsa atlasday qo'shiqlar to'qigum,
Ko'p gulshan,
Ko'p ulkan,
Ko'p jozib bir dunyo, —
Bundayin aks etgan na Farhod ko'zgusi!
U — bizning bugungi kunimiz.
Erta-chi?
Ertamiz na xayol, na ro'yo,
Bugundan ko'r kam u,
Qon-qardosh ellarning do'stligi qurgusi!

Kelajak!
Sen ohu singari imlashdan,
Insonlar orzusin onaday tinglashdan
Tinmagan siynaday oq maydon.
Biz — bugun kishisi!

Kelajak — ertamiz,
Ko'kka ilk yo'l solgan avlodli yerdamiz.
Zamon-chi?
Yaratish dardi-yu shavqi ham,
Dil kabi parvozli, ardog'li shan zamon.

Kelajak,
Sen tomon yurganim,
Qalamni surganim,
Ko'rganim sari sen ketasan yugurib
Va so'ngsiz yo'lingdan men terib olajak
Mevaning sarasi qoladi to'kilib:

Yenglaring qatida,
Ro'moling uchida,
Qanoting patida,
Jahonday beqiyos dasturxon ichida
Ketadi hech bitmas tilaklar tugilib.

Chaqmoqday cho'rt kesib yo'lingni to'sganlar,
Shiddat-u mehnatdan mujdalar yugurib,
Yashinday yarqirab oldinga o'tganlar,
Qo'lingdan tushib.
Dovonlar o'tishib
Fazoga uchganlar avlodi bo'lsam ham,
O'kinchim bitmaydi,
Eng uchqur ilhomlar qanoti — xayolda uchsam ham
Quchoqqa olishga.
Qo'shiqqa solishga damlarim yetmaydi!

Kelajak!
Qo'llarim yetmasa-yetmasin,
Kuylarim bitmasa, hech qachon bitmasin!
Kelarlar qo'li-la bitilur!

Men chiqqan cho'qqidan parvozga chiqqanlar
Sendan ham sur'atli,
Bizdan ham jur'atli
Silsilang oshganlar yetajak,
Hech asr bitmagan eng yorqin,
Eng yaqin qo'shiqlar bitajak!

Men esam shu kuyni naq o'zim bitganday,
Kelajak ming yillar o'rakchin o'tkanday
Quvonarman!
Qaytadan dilimda,
Chehramda yoshlikning,
Zamonga eshlikning, shodligi barq urib ketajak!

Mehmonlar keldi

Oching derazani!
Oching, mehmonlar keldi.
Tasviridan ojiz,
Men nom topmagan,
Latif,
Kuydor,
Nurdor
Shamollar yeldi.

Bahor hali ko'kda,
Benish kurtakda,
G'unchada, binafsha bargida bo'rtar.
Oching derazani, uning ortida,
Ko'pchigan ko'krak-la,
Nurga qorilib
Lutfan gugulaydi bir juft kabutar.

Oching derazani! Kirsin xonamga,
Men uning quvonchin ko'rmog'im darkor!
Kim bilsin, qushdag'i go'zal olamga
Suqulmoqda katta, qo'pol gunoh bor?
Ana sayrashadi nurga qorilib,
Menden oldin bahor sezgan kabutar.
Balki qush qalbidan kuy bo'lib yonib,
Bahor mening tanim, dilimga o'tar?

Oshiq dil ham hurkak,
Ham behad jasur,
Ikkisidan o'sar bitta muhabbat.
Oching derazani, gugulashsin hur,
Qush shodligin anglash o'zi ham bir baxt...

1974

Pushkinga

Men — sharqlik
Sharqliklar udumi shunday:
Aziz kishimizni Siz deb ataymiz.
Rossiya tunidan tug‘ilgan kunday
Dilimiz yoritib yashar dahongiz...
Sharq — shoir makoni,
She’r — yurak qoni,
Bilasiz, she’r demak — dildiragan jon,
Qul qo‘li kishanda,
Tul g‘amga banda,
Zulmdan horisa she’r bitgan xon.
Xonlar o‘tdi qullik aravasida,
Qo‘l emas dildan ham kishanlar tushgan.
Sizning Rossiya-la
Bizning ellar ham
Bir butun yurakday bedaxl gulshan.
Yaxlit gulshan elda yillar zargari,
Xalq o‘lmas zarlarni terdi saralab.
She’riyat bog‘ida,
Ming xil libosda
Rus qalbin betakror so‘nmas bir sozda
Siz kuylab yurasiz dillar oralab.
Yoningizda Sharqning mo‘ysafidlari —
Navoiy, Fuzuliy, Hofiz asrlar
O‘ta kelib siz-la quradi suhbat.
Bir orzu, bir dard-da chaqnar satrlar,
Yoritar chehrangiz hududsiz shuhrat,
She’r toji o‘lmaslik atalmish qismat!
Aleksandr Sergeyevich! Qisman ne jumboq,
Goh u tog‘ cho‘qqisi, goh bu tubsiz choh!

Ishqdan, ezgulikdan,
Dard, haqiqatdan
Yo‘g‘rilgan misralar dillarga hamroh.
Yillar Sizga kelib o‘tadi boyib,
Dillar o‘z mehri-la sha’ningiz yoyib,
Zamon o‘tgan sari chaqnoqroq har so‘z.
O‘q teshgan taningiz ona Yer quchib.
Dilingiz har so‘zdan boqar naq yulduz.

Mana, men ham o‘z-la qolgan chog‘imda,
Dil yo xit, dil yo shod istab suhbatdosh,
Navoiy yo Sizni qo‘lga olaman.
Mening ayol qalbga Layli, gohida
Tatyana bo‘larkan eng munis yo‘ldosh,
Ayol buyukligin kuylab qolaman.
Va naq Siz boshimda zukko muallim
Turasiz, men so‘zga beraman pardozi.
Buyuklikka shogird, zaif qalamim
O‘lmas muzangizdan oladi parvoz.
Navoiy demishki:
«She’r — dil hamrohi».
Bugun yulduzdan ko‘p Siz hamroh dillar.
Qani eshitsangiz, qay jarang, ohang
O‘qir o‘z tilida Sizni ne ellar!
Yangi tong otmoqda, keksa asrda
Go‘dakka ko‘kragin tutadi ona.
Kim bilsin, qay uyda va qaysi tilda
Yangrar siz tinglagan yo bitgan alla...
Ona qalbi Sizning she’rday serto‘lqin
Kelajak qo‘liga bermakda bugun.

1974

Ekrandagi yurak

Yo‘q, doktor, bu yurak meniki emas,
Bir zayl uruvchi soat mili day.
Tinchlik istasam-da, izmimga kirmas,
Bu bitta loqaydning sodiq tiliday.

O‘tgan yillar shohid: mening yuragim
Naq ko‘kda potirlab o‘ynar kabutar.
Dolg‘ali dengizda kema suzmas jim,
Tog‘day to‘lqinlarni qoq kesib o‘tar.

Balki, bu qaddimni tik tutib turgan
Hayotim rishtasi — tirikligimdir?
Mudom jo‘shqin umrim hukmida yurgan,
Qadriga yetmagan pinhon she’rimdir?

Bilmayman
Va lekin mening yuragim
Ekranga sig‘movchi bir olam siyoq,
Bir zayl urmaydi. Misli tilagim
Kun-u tun tinmovchi sinchkov bir sayyoh.

Har inson qalbidan
Izlab qo‘nalg‘a,
Istaydi yastansa maysalar bo‘lib.
Ko‘p chog‘ ko‘ksim tashlab ketadi olg‘a
Va qo‘shiqlar topsa qolar jo‘r bo‘lib.
Bu ko‘ksim — panohi,
 uchib horganda
Qo‘nib bir zaylda urib turar joy.
Siz qalbim ekranga aksin solganda,
U bir zum olardi hordiq, hoynahoy.

Yulduzlar allasi...

Yulduz na isitar, na yoritarmish,
Tabiatda bunday mantiqsizlik ko‘p.
Boqsang ko‘z gavharing og‘ritar emish,
O, bunday haqiqat menga tanish xo‘p.

Mendan so‘rang uning shivir-shivirin,
Dilni ne lahjada kiritgan tilga.
Har chaqnashi ag‘dar-to‘ntarib fikring,
Shirin mast etganin o‘t solib dilga.

Dilni sog‘inch dardi yoqsa nogahon,
Yomg‘irday bir yo‘la yulduz yog‘ilur.
Kirib tomiringga sendan ham pinhon,
Yoz oftobisimon shodlik yoqilur.

Faqat u yulduzning bilsang borligin,
Yulduzim deb bilsa kimdir seni ham,
Dard, anduh, masofa yo‘qolib sekin,
Yulduzlar allasin bilasan malham...

1975

Men bo'lmasam

«Ne qilaylik?», «Qanday bo'lsa?»,
«Nechuk bo'lur?» —
So'rasangiz, nazdingizda ko'nglim to'lur.
Bolajonlar, bir kun shamday bu jon so'nur,
U choq kimdan so'roqlaysiz, men bo'lmasam?

Gul emasman, ko'zingizda tursam yashnab,
Chinormasman, tursam yo'lga ko'lka tashlab.
Go'dakmassiz, yursam sizni yo'lga boshlab,
Ne bo'ladi uyingizda men bo'lmasam?

Na iloj bor, bir nasiba bo'ladi kam,
Bu zahmatkash, tinmas qalam oladi dam,
Bir necha vaqt dilingizga to'ladi g'am,
Bir kun kelib uyingizda men bo'lmasam.

Bu qadrdon ishxonamda o'char chiroq,
Asta-sekin do'st-u shogird ketar yiroq.
Uydan uuga bo'zlab yurar yetim firoq,
Bir kun kelib uyingizda men bo'lmasam.

Goh chehramni tund etganda yer tashvishi,
G'ussa bo'lib bossa kunning qolgan ishi,
Biri u deb, biri bu deb yurgan kishi,
Ne dard ekan bir kun kelib men bo'lmasam?

Jon bag'rimdan uzib sizga bergen hayot,
Goh ko'rganda chehrangizni shodlikka yot,

Yostiq quchib unsiz, pinhon solganim dod
Bilarmisiz uyingizda men bo'lmasam?

Har qarichi ko'z yoshimdan sho'r alangan,
Har niholdan aziz bog'bon so'rog'langan,
Shu bog'bondan juda erta meros qolgan
Bu dargohda ne kayf'kezar, men bo'lmasam?

Har g'ishtida bahorimning bir yaprog'i,
Ha burchida haroratim dil ardog'i,
Sizga asqab tole to'la hovlim bog'i
Kulgingizdan batang kelsin men bo'lmasam.

1975

Fun to'la qo'shiqqa

Nazdimda tun to'la qo'shiqqa,
Lekin uni tinglab, tinglamagan bor!
Kunduzlar baxsh etgan shodlikka
Mast bo'lib tunlarni kutar zor.
Tun menga sodiq do'st singari
Yop-yorqin bag'rini ochadi.
Zug'mimdan bir nafas tingani,
Qovjiroq ko'zimdan uyqular qochadi.
Qochaver,
Ketaver,
Kutganlar seni ko'p!
Oz emas tun ko'ksin teshganlar men siyoq.
Kunduzning quralash ishlari elab xo'p
O'tkizgach, dillarni tinglayman yaxshiroq.
Zavodlar yuragi tinmayin yaqin-u yiroqda

El uchun,
Men uchun ishlaydi.
Shahrimga sochilgan sanoqsiz chiroqlar
Hamshaharim ro'zg'ori,
Baxtiday yashnaydi.
Kamlardir yeladi biz tomon;
Tunlardan yuqori,
Yulduzdan pastlarda.
Ming somon yo'llar-la kesilgan bir osmon,
Mezbonlar manzilin kartasi do'stlarda,
Kelishar,
Ketishar
Va lekin yurakda
Ulovga tobemas muqaddas yo'l ham bor.
Mehrdan poyandoz to'shashga,
Elchilar yuborib eng uchqur san'atdan
Jahonni chorlashga bir o'ktam haqqim bor.
Kunduzlar yetmaslik ishim ko'p,
Har yurtga aqalli bir maktub,
Har do'stning qo'liga parchalab bir qalbni
Tutqazgim keladi bu zamon.
Muqaddam yurtimda kezuvchi nur jahon
Haqida bir o'tday she'r yozdim men qachon?!
Har biri — bir dunyo, insonni ko'tarib qo'lda dast
Mehnati qiladi namoyish.
Men shunday qudratli,
Bir tanti,
Bir saxiy odamlar safiga suyuk, esh:
Chotqolning ko'ksida tug'ilgan buloqday
Qaynovchi dilimda tug'ilalar eng tiniq ming fikr.
Ko'zimga solingan eng surbet qurog'day
Uyquga chap berib,
Barini she'r bilan etaman men zikr:
Uzzukun ishlagan dehqondan men burchli,
Tunda ham tinmagan ishchidan men xijil.

Shu sabab tunlarim kunduzdan ham ishli,
Eng yorqin,
Eng tiniq qo'shiqlar tinglar dil.
Tinglar dil
Har ayol dostonin,
Tong sahar pallada aytilgan allasin.
Suvosti o'lkasin
Va oyning ko'lkasin,
G'unchalar lab ochgan fusunkor pallasin –
Qo'shiqqa solmoq-chun
Nahot men ko'rghanman?
Uyquga to'ymasam, to'ymayin,
Ayting-chi, qay zamon men nega to'yganman?!

1975

Bolakay

Ko'zlariningda chuqur o'y,
Hayronlikmi, iztirob?
Kundan kunga cho'zib bo'y
Nega izlaysan javob?

Murg'ak fikring yetolmas
Bu dunyo o'yiniga.
Sevib, otdilar paqqos,
Seni taqdir qo'yniga.

Hayoting ikki ora
Talashligin bilmaysan.
Sog'inchdan diling pora,
Lekin oshkor qilmaysan.

Go'daklikdan chiqmasdan
Ulg'aytdilar umringni.

Jonlariga suqmasdan
So'ndirdilar kulgingni.

Tolxivichday jussangda
Qayerdan tog'day toqat?
Ayt-chi, pinhon g'ussangdan
Olib bo'larmi faqat?

O'ylasam ko'zdan jovdir
Oqadi yoshim seli.
Bu — sen to'kmasga qodir
Sog'inch hissi shekilli...

Borlig'im bo'lib yurak
Boshginangni silayman.
Hech darz ketmas, bo'linmas,
Yaxlit taqdir tilayman...

1975

Do'stlarim...

Naqadarlik og'riydi bag'rim,
O'zni tanho sezaman bukun,
Do'stlarimning sog'inchi, bahri.
Yuragimda ko'tarib to'lqin —

Girdobiga oldi borlig'im,
Barchasini chorlasam yonga.
Suhbatlarga tashna, zorligim
Sig'mayapti yorug' jahonga.

Qalamimning yurishi xitroq
Bo'lsa, sizga intiqlik sezgum.
Fikrim parvozlardan yiroqroq
Qolsa sizni axtarib kezgum.

Va topganda qaynoq bahslarda
Mayli, zaif sezsam o'zni goh.
Dil o't olar, bu otashlarda
Po'lat o'tdan cho'g' olgan siyoq.

Chaqnash bilmay soyada izi,
Yashagandan chaqmoqlik afzal.
Sokinlikni sevmayman o'zi,
O'lsam o'lay, do'stlar jam mahal.

1975

Otashparastlar

Janub tuni dengizday betub,
Yulduzlar chaqnaydi sernur.
Guyo jahon zulmatin yutib,
Yuksaklikda shalola yonur.

Bu bir ufq — shafaqday gulxan,
Tabiatga insondan tuhfa.
Suvni o'tga etishib payvand,
Buyurmishlar: «Kurashdan to'yma!»

Kurashadi
Etak, soch olov,
Naq qasoskor lo'li qiz raqsda.
Inson aqlin atab beayov,
Otash va suv tuganmas bahsda.

Biz chiqamiz zinama-zina
Naq mehrobga yurgan singari.
Polaponday jonlanar siyna,
Otash tomon parvoz qilgani.

Ikki ayol qo'lini tutib
O'rtamizda borar do'stimiz.
Ayollikni bo'lmas unutib,
Erkaklarsiz yonmas o'timiz.

Deymiz unga:
Olov na darkor,
Bor qiyofang tog'ning vulqoni.
Prometey o'tga qolsa zor,
Senga kelar sovigach qoni.

U otashga bizni ergashtir,
O't olaylik kaftimiz tutib.
So'ng tonggacha mashq etaylik she'r,
Otash kuchin tarannum etib...

Olib chiqdi.
Sehrlanganday
Yuzlarimiz bo'ldi otashrang.
Olov tillar asirlaganday,
Ilk bor bizga shodlik berdi jang.

1975

Qo'shiq

Rassom Chingiz Ahmarovga

Go'zallik haqida she'r yozish mushkul,
Buyuklik fikringni qilganida lol.
Ikkisi oldida rost kelsang butkul,
Tashbihga mazmunni juftlash ham mahol.

Go'zallik oldida lol qolganim ko'p,
Bo'yoqlardan hayron, tuyg'ulardan mast.
Ikkisi bir yo'la sehrida tutib,
Entiktirgan damda she'r yozib bo'lmas.

Necha jazm etganman nazm tizgali
Hayrat bo'ronlari savalagan dam,
Qo'ymadi yozmoqqa jur'at qilgali
Sizdagi mahofat, yoniq mo'yqalam!..

Bugun ham qo'shiqqa sololmay halakman,
Aftidan joduli siz qayda, men qayda?

Zakovat sehridan bir mast-u alastman,
Tuyg'usiz tosh dil ham kayf topar bu maydan.

Tabiat sabog'in baxsh etgan chog' sizga
Bildimi, so'ng o'zi yonishin bir rashkda?
Loqaydlik, dag'allik suqulsa goh bizga,
Mahv etar siz chizgan bir jayron qarashda.

Sizdag'i qalb ko'zi, mo'yqalam tig' uchi,
Asrlar tubiga kiradi jur'atli.
Tafakkur, tasavvur atalmish cho'g' kuchi,
Tiriltar Tangri ham unutgan suvratni!

Qarayman:

Mardum, shoh siy whole rambza;
Shoh, xoqon har zamon, makonda bir toif,
Dillardan ezgulik, ko'zlardan intiqom boqqanda,
Soylarga qulagan toshsimon u g'oyib!

Ajdod-la visoldan ko'klarga yetar bosh,
Bu — me'mor, bu shoir, bu falloh,
O'lmaslik qasriga tirnoq-la
Gul o'yib so'ng unut bu — naqqosh!

Bu — na baxt, na imdod tamada cho'zmagan qo'lini.
Besh asr yo'l o'tgan jinsimga qarayman:
Shaftoli yonoqda qotgan yosh do'lini
Qaynoq bir sukutda mehrli kiprik-la tarayman.

Taqdirga tik boqqan nigohdan nogahon oqar mung,
Mung emas, toptalgan tuyg'ular qasoskor qo'shig'i!
Qarangki, tanozil asrlar uyquda yotgan so'ng
Kuydirar iboli ko'zlarning qop-qora o't cho'g'i!

Bu gulro' — na beka, malika!
Bir erksiz kanizak,

Garchand zar va nurdan to‘qilgan peshonabog‘ boshda,
Bir tunlik xirsiyat qurbanbi!
Taqdirdan nafrat-la kulgandek
Yarqirar bokira bir poklik chimrilgan har qoshda.

Xijilman so‘z topmay mahorat, bu san’at naqliga,
Kuylolmay munosib va jozib jarangli bir nayda.
Bu ranglar, bunday zid tuyg‘ular jangini aqlga
Sig‘dirib, bayonga solmoqlik qayda-yu biz qayda?

Har yerda qalbingiz rang bo‘lib sochilmish:
Muhabbat va g‘urbat, sadoqat, adovat dostoni
bo‘lib goh.

Saroylar devori, peshtoqdan,
Zarvaraq, suvratdan
Gohi tong, goh shafaq singari boqadi yarqirab.

O‘zbekning o‘tmishi,
Bugungi insonning shuhrati jahonni tutmishi,
Sizdagi zakovat kuchidan
Yomg‘irdan so‘ng chiqqan oftobday ochilmish,
Qo‘sinqqa aylanmish sehrgar mo‘yqalam nom nayda.

Siz esa yashaysiz, bu kamyob shuhratga berib chap,
Mehnatga baxshida umrning har damin —
Ijod-la erkalab,
Zahmatdan baxtiyor!
Qanoat, mag‘rurlik qayda-yu
San’atga fidolik,
farzandlik qayda?

San’atning qimmati o‘lchanmas oltin-u dur bilan,
U mangu — dillardan joy olsa baxsh etgan bayram-la!
Tasanno, mahliyo, tashakkur so‘zlarin yozishga nur
bilan

O, suyuk musavvir —
Bizdayin kamina muxlisda kuch qayda,
Siz qayda?!

Yangi yerlar

Yangi yerlar kutar yangi qo‘llarni,
Jon tilar hayotga kirib kelgali.

Yangi yerlar kutar yangi yo‘llarni,
Bahorday ming turfa libos kiygali.

Yangi yerlar kutar qadim yerlarday
Insondan sevinch-u, zahmat-u, ne’mat.
Qaddin ko‘tarmak-chun jasur yerlarday
Iltijo qiladi:
«Biz ham beminnat.

Sizning zamon ajib, inson – sehrgar,
Rejangiz yer qolib, o‘rlaydi ko‘kka.
Bizning yoqqa dil-la tashlangiz nazar,
Sizning orzularga biz shay ko‘makka.

Tuproqmiz, unutmiz naq nokerakday,
Simobrang suv kirsin jon-qonimizga,
Tug‘ilmayin nobud bo‘lgan go‘dakday
Qolmaylik, qon bo‘ling tomirimizga.

Qachongacha o‘tar naridan bahor,
Qachongacha quyosh shu’lasi benaf?
Na yomg‘ir va na qor keladi bakor,
Odamlar, bu dog‘ni bizdan eting daf!

Taqir ko‘ksimizni ag‘daring chok-chok,
Hosil urug‘ini soching bag‘riga.

Cho'l atalgan bizda ishqday jonli, pok
Don, paxta qulf ursin to'lib sehrga.

Yuksak minbarlardan ayblang va maqtang,
Hosilmi, husnmi, bo'laylik bir bahs.
Bizning qo'ynimiz ham mehrga mahtal,
Ochilmoq, sochilmoq, yayramoq havas.

Qancha boylik mudroq bizning bag'rida,
Hali ishq bilmagan qizday bir bokiramiz.
Kiring jonimizga, ne borki bizda
Ayolday borimiz hadya etamiz».

Yangi yerlar kutar kuchli qo'llarni,
Bizning dehqon qo'lida obod bo'lgali.
Yangi yerlar kutar ravon yo'llarni,
Hosil karvonlari tinmay yurgali.

1976

Bilgim keladi...

Qarshimda,
Yonimda,
Atrofda odam,
Birini o'zgaga o'xshatolmayman.
Har biri, bilaman, butun bir olam,
Bu olamga nurday yo'l topolmayman.

Bir umr urindim qalbga kirmoqqa,
Orzu-havasidan olmoq-chun shodlik.
Lab qo'yib ichganday tiniq irmoqqa
Singisam hayotga suvdek, havodek.

Qoni zarrasida, tomirida yurib,
Yuragin urishin to'lqinin bilsam.
Dilin har zarbidan she'r yo'g'irib,
O'zini o'ziga namoyish qilsam.

Orzu miqyosini,
Dil haroratin,
Aytmoqqa tortingan so'zini topsam,
O'rgatsam izhorga ishq-muhabbatin,
Jarohati uzra malhamday yotsam.

Bilgim keladi,
Ha, bilgim keladi...
Kim intiq, kim istar mendan fidolik,
Bir jon-ku, ming bo'lsa — ayasam o'lay,
Axir shular bilan umrim safolik,
Qanday jonmas, judo safodan bo'lay.

Men bilgim keladi erkak yuragin
Ayol bir qarashi etarmi chil-chil?
Tog'day ko'tararmi sevgi ko'kragin,
Hijron olovidan qancha yonar dil?

Ayol qalbi esa go'yo kaftimda:
Bir xamirdan yasar ustamiz — hayot.
Taqdirini butun nihol kiftimda
Olib chiqqanimdan qarib qoldim bot...

1976

Umrim karvoni

Yangi yil she'ri

Yana bir bekatga umrim karvoni
Kelmoqda yaqin.
Butun borlig'imga dil hayajoni
Hokimdir tag'in.

Bu kecha umrimdan yop-yorug' nurdek
Bir yil o'tmakda.
Sertole bir uyni etgan kabi tark
Dil urinmakda.

Bu yoshda osonmas yilni uzgusi,
Har yil endi ganj.
Ne mujda aks etar kelar ko'zgusi,
Ne shodlik, ne ranj?

Butun yil bir saxiy yaxlit qo'l bo'lib
Ko'tardi baland.
Men qaynoq erkalash, g'ururga to'lib
Yoshardim bir chand.

Mehnatimdan ortiq sochdi boshdan zar,
Men esa xijil.
Kelar yillarimga tashlayman nazar,
Burchlarim shig'il.

Barisi nish urib chiqmoq shart urug',
Mening qal'amda.

Yosh ham navqironmas, anchayin ulug‘,
Kuch ham tanamda.

Mayli, zaif qolsam el daryosiga
O‘zimni otgum.
G‘arq bo‘lib javohir kuy dunyosiga
Bahralar topgum.
To‘fondek bo‘lmasa, soydek osoyish
Yozarman she’rlar.
Yillar o‘tib ishqidan qolsa oroyish,
Sadoqat derlar.

Sadoqat va toqat, farog‘at, mehnat, —
Barin etib jam,
Shu o‘ktam o‘lkamning baxtiga hambaxt
Tashlarman qadam.

Umrga begona boshi berk ko‘cha,
Bir emas bekat.
Baqamti so‘ylashdik kuning bitguncha,
Rozi ket faqat!

Men poyandoz etib orzu-armonni,
Yangi yil kutay.
Yangi bekatlarga umrim karvonin
Yetaklab ketay.

1976

Na go'zal damlar bu!

Bahor kelyapti, uyg' onmoqda dil
Gullardan ham tez!
Qanot top, nigoh top, ko' pchimakda yer,
Yeldan ildam tez!

Ana, bosh ko'tardi munis binafsha
So'l-u sog'ingda.
Borliqni to'ldirgan bahorgi nash'a
Soy-u tog'ingda.

Shamolning bir qo'li tortar dalaga,
«Men saxovat» der,
Osmon gavharlarin ort mish jalaga
Hovuch-hovuch ter!

Tuproq bahrini tuy, ol nur ro'molni,
Uch bulut tomon.
Sening harorating kessin shamolni,
Gullasin bodom.

Pag'a bulutlarning momiq qo'ynidan
Simirgin yoshlik,
Quyoshning har nurin quchib bo'ynidan
Jon olsin toshlik.

Chigitlar sochilgan tuproq qatiga
Har yilgidan mo'l.
Toshlar ham jo'r bu yil inson ahdiga,
Gul ochmoqchi cho'l.

Toshdan ham, yerdan ham, urug'lardan ham
Bahorga chanqoq
Inson bor!
U borki, sen ham boy, ko'rkam,
Kela qol tezroq!

1976

Yomg'ir

Yomg'ir, sen tabiat saxiy farzandi,
Menga ko'rsat yo'l.
San'ating yuvadi yer-u ko'k gardin,
Ezgulicing mo'l.

Bir yo'la, bir azim cho'l-u sahroga
Osmon qo'yar lab.
Hali ishq bilmagan Odam Havoga
Baxsh etganday qalb.

Qo'riqlar ko'ksiga yaqinlab ko'klam
Uyg'onar tuproq.
Iliq nafasingdan bahra olgan dam
Eriydi muzloq.

Sening san'atingga bir shogird tushib,
Tomchi bo'lay men.
Dilimni parchalab tomchingga qo'shib,
Cho'l qamchilay men.

Bug'doymi, chigitmi, ne bor urug'ga
Bag'ishlay rivoj:
Dehqonlar ko'rsatgan dono yo'rig'-la
His etay quvonch...

Bir olam tabiat qo'ynida tomchi
Bo'lmoq ham tole.
Qalb, meni shu yomg'ir yo'liga sol-chi,
Yashay safoli.

Oh, yomg'ir, har salqin hayotbaxsh tomching
Qo'zg'aydi havas,
Sevgimday beshafqat bo'lsa gar qamching,
Itqit, bo'l sharros.

Quvonchlar tagida qolgan dard qumin
Yuvib ket birdan!
Uzlatga begona ko'ksim to'lqini
Kuylasin nurdan...

1976

Kechir, yoshlik...

Chaqmoq chaqib o'tgachgina o'ylaymiz,
Chaqnog'ini izlab topmayin.
Yoshlikda tushni ham o'ngga yo'yamiz,
Kunlar etagidan tortmayin.

O'tdi yoshlik mendan bir shavq ko'rmayin,
Do'lllar urgan binafshasifat.
Qizg'angandan rizqin qistab so'rmayin,
Atab ketdi meni beshafqat.

Kechir, yoshlik, o'zing eding buyukroq,
Nozik qo'lim tuta olmadi.
Yoniq vulqon eding, nuri quyuqroq,
Oq ko'ksimga sig'a qolmadi.

Tortqilab olganda siltovdan zarba
Jarohati hamon bedavo.
Hamon vujudimda zarrama-zarra
Yotar chekib tovushsiz navo.

Kechir meni, yoshlik! Senga munosib,
Chaqnab va chaqnatib yurmadim.
Tuyg'u to'fonlarin idrok-la bosib,
Portlashga bir zamon qo'y madim.

So'ngra, so'ngra so'ngan vulqonday sokin
Qo'ydim seni bevaqt keksartib.
O'tgich havaslarga muk tushib lokin
Tahqirlarda bo'lmas qizartib.

Lekin bilsang o'tdim o'zim senga zor,
G'uncha qolding bir bor ko'rk ochib,
Bahorimga yog'gach hech erimas qor,
Gulday she'r yozmadim atirlar sochib...

1976

Uni qo'zg'atdilar...

Fasli qishga yaqin bir tup daraxtni
Nish urgan o'rnidan qo'zg'ab qo'yishdi.
Nazdimda, umrini bezagan baxtni
Bu keksa daraxtga kamroq tuyishdi.

Ikki juft qo'l ekkan bir nihol edi,
Hamma nabototday o'sdi panada!
Quyoshdan shimirdi,
Tuproqda emdi,
Bo'y cho'zdi,
Ildizi esa yanada.

Teran kiraverdi yerning qatiga.
Novdalarni bezar zilol yaproqlar,
Bo‘yдор-куйдор дарaxtlarning safiga
Kirayotganini sezdi nigohlar...

Va bir go'zal bahor ko'rsatdi g'uncha,
Va bir to'kin kuzda berdi nishona.
Ilk mevaga umid bog'lashib qancha
Ko'z-ko'z qilishdilar naq baxtli ona.
Onaday, otaday mehrga o'rab,
Saxiy bog'bon etdi uni parvarish.
Nihol o'saverdi yashnab, gurkirab,
Har yil yangi ko'rkin qilib namoyish.

Lekin hamma yoz ham
va hamma kuz ham
Siylab bo'liq meva etmadi hadya.
Goh sel yuvdi,
bo'ron boshin etdi xam,
U tik turdi hamon men hayot deya.
Lekin meva esa shirali, etli,
Oz bo'lsa ham bo'ldi tutguday kaftda.
Zero, tuproq saxiy,
yellari qutli.
Quyosh yetishtirdi hayotbaxsh taftda...

Bir daraxtdan baland,
o'zgasidan past,
O'z umridan rozi kirardi kuzga,
Umr xotimasin bilardi, albat,
Bilardi nihollik qaytmaydi o'zga.

Kungay va nazargoh yerga ko‘chirmoqniyat,
Oo ‘zg‘atib ko‘rdilar uning ildizin.

Teran tomiriga yetsa hamki lat,
Shunda kutmoq bo'ldi chog'i o'z kuzin.

Chuqr ekan ildiz,
Chayir tomirlar,
Yerning chor yog'iga ketgandi singib.
Bo'ronlardan saqlab qolgan omillar
Omon olib qoldi dardini yengib.

Kungaydan hayotbaxsh ekan yer bahri,
O'z o'mida yana ko'kardi daraxt.
Quyuq shoxlaridan tiniq kuz nahri
Yangi hosillarni bermoqda xushvaqt...

1976

* * *

Onam! Sening issiq, aziz joningni,
Zarradek chog'imdan boshlab bilaman,
O'zim ham zarra-yu, lekin qoningni
Yangilab jismingdan o'zni uzganman.

Sen gul juvon hali mendan bexabar,
Bulutday go'daklar tortdi havasing,
Endi men sen desam qaynoq, muattar
Hovrin his qilaman iliq nafasing...

1976

Tuhfa

Kim dandir bir dasta gul keldi senga,
Uyingda, dilingda to'y shavqi bu kun.
O'zni sarosima sezding sen nega?
Ko'p edi-ku gullar bundan ham gulgun?

Ajablanding!
Go'yo bosib uzoq yo'l,
Charchagan odamdek gul barglar lohas.
Kim, qancha andisha tog'in kesib ul
Kelmish, bo'lmoq uchun sen-la hamnafas.

Kim o'zi, to'y kuning yo'llab gul salom,
Qutlashga jazm etgan sening baxtingni?
Erkalash istamish benom, bekalom,
O'zdan xabar bermay, sening qalbingni.

Kim bilsin, qay dilda, ko'zlardan pinhon
Nish urib, ochilmay qolgan ishqadir ul,
Quyosh oyning yuzin yoritgansimon,
Sendan bahra olib, sir qolgan ko'ngil.

Lekin dilda balqib, tashakkur, mehr,
Bilmasang qay, kimga uchsang qanotda...
Har dil saqlay olsa bir gulcha sehr,
Sarg'ayish bilmasdi umr hayotda...

1976

O'n sakkiz yoshlik...

Bog'lari bo'lardi mevali, gulli,
Bodom bor, anor bor, olma, shaftoli.
Nozik ta'b, she'rga o'ch Ona, gul qo'lli
Yashnatgan gulzor bor, eram ruxsorli.
Parang etaklarin ilib tikanlar,
O'sardi tanho qiz kapalaksimon.
Qo'shni qizlar ichra bo'yi yetganlar
Qizda qo'zg'atardi goh rashk, goh gumon.

O'ylardi:
To'lmaydi o'n sakkiz yoshga,
Shoirlar she'rida o'tar kuylanmay.
Yuzin o'xshatmaydi hech kim quyoshga,
Sevgi olovida kuymayin, yonmay...

Ilk sevgi qalbiga solgan bu chaqnoq
Bir yo‘la otash-u muzga tashladi.

Ikkisin taloshin yondi o'tidan,
Jizg'inib o'rtandi, muzida qotdi,
O'n sakkiz yoshini alam kuchidan
Bilmas, qachon topib qachon yo'qotdi?

O'ylamasdi!
Bir juft sayyorasimon

Tun yulduz edilar,
kunduzi quyosh...
Urush yamlab ketdi
birin naq to'fon,
Ikki jon-chun yashar
bir O'n sakkiz yosh...

1977

* * *

Men o'zimni yomon ko'raman
Zaifligim kelganda hokim.
Men o'zimni yomon ko'raman
To'kar bo'lsa shu his ko'z yoshim.

Men o'zimdan qilaman nafrat
Mayda hislar izmida qolsam.
Quvonchlarim kemirib hasrat,
Pushaymonlar izmida tolsam.

Men o'zimni yomon ko'raman,
Kundan kunga xurujda bu dard.
Xafa yotib, xasta turaman,
Irodamga yetdi chog'i pand!

Nahot, goh-goh yetgan sitamlar
Ekib ketdi dag'allik manda.
His tizginin boy berar damlar
Nahot edi o'ziga banda.

Kun o'tadi,
tunga kirganda
Ruhim, qalbim ezadi pushmon.
O'tgan ishga zaif qolganda
Salovat ham ko'tarsa fig'on —

Chirpinmakdan bo'laman ado,
Keksalikka yog'dirib la'nat.
Kundan kunga bu dard bedavo,
Kundan ortar o'zimga nafrat,
O, o'zimni yomon ko'raman...

1977

* * *

Saida Zunnunova xotirasiga

Hayotdan shoira, hayhot, yumdi ko'z,
Qolaverdi farzand va qalam yetim.
Nazdimda, ko'ksida qolgan barcha so'z
Hammamizdan achchiq yosh to'kardi jim...

Hammaga topilar sabr va yupanch,
Qayg'u hayot bilan tug'il mish egiz.
Aytilmagan qo'shiq beun, beuvvos
Sovuq iskanjaga berildi, esiz...

1977

Gulzor

Tong qarshilab hovliga chiqdim,
Umrimdagi kuz bo'ldi g'oyib...
Borlig'imda bir ko'chki sezdim,
Keta qoldi lanjlik ham toyib.

Siyrak sochiq gullar naq barqut,
Bahordagi gul vodiy go'yo.
Qizillari misli tungi o't,
Kun tutilgan chog'dagi ziyo —

Simon taram-taram pushtisi,
Bor tarovat bilan ochilmish.
Go'dak nafasiday yoqimli isi
Yuzim, ko'zim, dilga sochilmish.

Yoqtirmasdim men gul uzishni,
Xiyla xudbin tortibdi ta'bim —
Chog'i, hislar qildi bu ishni:
Gul qo'limda, bargida labim...

Bu g'ashlikmi, yashashga o'chlik,
Vaqt tuyg'usi bir onda unut.
Yomg'irli kun bo'ldi gul islik,
Bulbul bo'lib sayradi sukut...

So'lim gulzor, so'lganday umrim,
Yashnagancha, yashnatgancha qol.
Balki gulga yosh to'kib yum-yum,
O'zni yashnoq sezmoq ham iqbol?!

Ko'ngil...

Ko'ngil, nega bugun bemorsan va mo'rt,
Ko'ngil, nega buncha taranglikda tor?
Ko'ngil, erkaliking, o'ktamliging yut,
Tan ol, oxir endi bahoringda qor.

Ko'ngil,
bo'lma shisha singari siniq,
Behuda, bir so'z yo nigohdan chil-chil?
Borliqni sig'dirgan buloq bo'l, tiniq,
O'zni o'zing bosma og'ir yuk shekil.

Parokandalikni ot, g'ururingga boq,
Bo'lsa zarra o'ksik ort yelkasiga.
G'ururing — bardoshli vujuding siyoq,
Yaraydi, el ishi, tashvishlariga.

Elda yumushlar ko'p: ekmoq, undirmoq,
Butun yer yuzida hayot sochsin gul.
Yovuzlikni olov olmay so'ndirmoq,
Toki, inson yashay olsin xushko'ngil!

1977

* * *

Baxtim bor:

ajoyib kishilar aro

Tug'ilib, gurkirab...

keksayar umrim,

O'shalar she'rimga baxsh etgan sado

Hayotim yo'lini yoritgan nurim.

Biri yuzlarimga baxsh etar kulgu,

Biri qonlarimga solar hayajon.

Biri olg'a chorlar bo'lib oq orzu,

Biri der: hayotsan, yur orzu tomon.

Hali qalbing juvon yuragiday yosh,

Asablar ko'tarar tog'ni ortsang ham.

Ko'zingga,

qoningga olaver quyosh,

Hali ko'p tebranar qo'lingda qalam...

1978

* * *

Menga xasis keldi tabiat,

Shodligimga alam qorishiq:

Kutib oldim bahorni betob,

Tanimdagi dard-la olishib.

Hamma yoqda shabboda va gul,

Qum ham, tosh ham taratar jarang.

Men-chun yashash shunday ham mushkul,

Jussamni tik tutaman arang.

Xasis keldi tabiat menga...
Bahorni ham ko'rmakda zoye.
Qayerdadir o'xshab naq tongga,
Yal-yal yonib turadi tole.

Tole hayot nomli joziba,
Umr bo'yi sen unga maftun.
Bo'lmas sendan nochor, ojiza
Umidlardan qo'l siltagan kun...

1978

* * *

Tongda so'z qudug'in tubiga cho'kib
Axtarardim dur,
Tongday sof tuyg'ular qalbimda jo'shib
Qalaming ol der.
Shu jo'shqin tuyg'udan aziz, chaqnog'in
Bo'lardim olmoq.
Qalam qodir endi, loyiq salmog'i
Olib naq chaqmoq
Chaqnatishga, unga qo'shib yurakni,
Kerak bo'lsa jon...
Ajib bo'yga ko'mib yon-tevarakni
Tutdilar rayhon...
Men endi ifori bu tuhfadan mast,
Unutdim tongni.
Bu mehr yo'liga birgina
Sochdim ilhomni...

1978

Shoir uyida

Samad Vurg'un xotirasiga

Uchrashuv

Tongdan xayolimni ajib ruh bezar,
 Yasan-tusandaman bir hayajonda.
 Xazar to'lqinimas, bir to'fon kezar
 Ham shodlik, ham afsun qamragan jonda.

Bugun butun o'lka Vurg'unga mehmon,
 Men ham.
 Qalb to'fonin bosmoqqa yo'q kuch.
 Men bu zinalardan yurmog'im mahol,
 O, yurak!
 Hayotda bir bo'lsa ham uch!

Uch!
 Marmar zinalar sovuq ko'ksida
 Lovullab chaqnaydi u tirik izlar.
 Nahot yurmoqdamiz izlar ustida
 Sog'ingan, gunohkor do'stlari — bizlar?

Uch, mening yuragim, jismim olib uch,
 Pillapoyalarga bosmayin qadam.
 Yuksak bu arshdag'i mangulikni quch,
 Sadoqating ko'rsat bu muqaddas dam!

O, marmar zinalar,
 Tilsiz shohidlar!

Shoir yuragida ko‘chkilar ko‘chib,
Ilhom qanotida burgutday uchib
Goh horg‘in, goh chaqin bo‘lib o‘tgandir?
Maftunlar,
Muxlislar,
Intiq shogirdlar,
Sha’ni, kuyi tengdosh ne-ne shoirlar
Bu pok ostonada mendek kutgandir?

Hech kimni kuttirmay chorlagan shoir,
Butun Ozarbayjon tuprog‘i bo‘lib.
Kir, yurak, gar esang uchishga qodir,
Mezbon kutib qoldi, mehrga to‘lib...
Yo Rab!
Hamma, har ne bunda egasiga zor!
Rafiqqa, farzandlar, qalami, sozi...
Bizning qulqlarda yoniq, fusunkor
Tirik nafasi-yu, o‘chmas ovozi...

Qalb!
Aziz izlarning ustidan emas,
Ergashib/kirishda menga berding kuch,
Endi visol damin sevinchidan uch.

Bir dona papiros...

Men papirosni sevgan, chekkan emasman,
Ilk bor papirosni bildim muqaddas.
Mahbubga otashin bera bilmasdan
Qolgan yurak kabi bejon-u besas.
Ko‘zlarga ko‘rinmay, tutab tugamay,
Seni kutib, yonib yotibdi go‘yo.
Agar bo‘lsa ichilmayin qolgan may
Qurib yo‘qolardi misoli ro‘yo.

Bor vujudni jannat o'tida yoqqan
Ijodning muqaddas, munis makoni —
Stoling ustida yatim, za'faron
Bir papiros qolmish!
Ey, She'r xoqoni,
Sen qancha yurakni zabit etding bejang,
Qay kuch seni etdi xumordan mahrum?
Senday alp qudratning holin etib tang
Keksa hasadiga etdimi mahkum?
Bir dona papiros qolmish chekilmay,
Sening lablaringning oromiga zor.
O, qancha qo'shiqlar qoldi bitilmay,
Bizning dilda yangi ocholmay gulzor.

Bir dona papiros qoldi chekilmay,
Qancha chekilganin bilmasding o'zing.
Bir tasalli:
Mangu sarg'ayish bilmay
Har dilda ming bahor ochib har so'zing,
Jismida ona-yurt qo'shig'in olib,
Sen kezmagan jahon kezib yuribdi.
Bir dona papiros yonolmay qolib,
Noming quyosh yanglig' porlab turibdi...

1979

Tunni sevmay qo'ydim...

Tunni sevmay qo'ydim,
Bir sirni tuydim.

Har tun uzib ketar umrimdan bir kun.
Tomchi toma-toma ko'l bo'lgandek lim,
Olib ketishi rost umrimni butun.

Sevmay qo'ydim tunni,
Sevmayman tunni.
Butun vujud bo'lib kunni kutaman.
Nafis shaftolining guliday nurli —
Shaffof nafasiga yuzim tutaman.

Bu nafas — go'dakday uyg'ongan maysa,
Bu — kuzda mast-alast chayqalgan bug'doy.
Bu — quyosh, ufqda xiyol jilmaysa,
Oltin zamzamada jilvalangan soy.

Bu — orzu singari cheksiz vodiyga
Hokimi mutlaqday chiqqan har dehqon.
Hosil falsafasin etib domiga
Tuproqni oltinga aylantirgich jon.

Men tongni sevaman,
Tongdagi o'ylar
Meni odamlarga ketadi boshlab.
Yaratishga to'la men tushar yo'llar,
Dala, qirni quchsam, qulochim tashlab,
Ko'ksim yayrab ketar ko'lning sathiday,

Undan qo'shiq uchar oq kabutarday.
Tonggi yer nafasin to'ymay ichaman,
O'ttiz yoshli juvon shaydo diliday
Xayol yetgan yerni kezib, kechaman.

Tong otmoqda, shoshil,
Axtarma kavshing.
Daftaring topmasang,
Diling ochib bor:
Tong — sening shodlikka tiqmachoq kashfing,
Yana bir nabira — issiq kaftga ol!

1979

Salom, tansiq bahor!

I

Yana ko'k tubida sayraydi qushlar,
Yana yerda ko'hna yam-yashil ko'rpa.
Yana tandan ketdi mudrash-u tushlar,
Yana yoshday dilda o'ylar ming turfa.

Gar ibora qadim, qofiya siyqa,
Ajdod o'lmasligin haqiqati bu.
Bahor deding — birdan olam antiqa
Va senda eng yolqin, tirik bir tuyg'u.

Yoshingni, dardingni, iztirobingni
Bir silkinish bilan otasan yiroq.
Xayoling yetmagan, umid tutmagan
Eng yiroq ufqlar kelar yaqinroq.

Va sen yana qalbi otashga to‘liq,
Tog‘ni talqon qilgich qudrat taningda —
Mehnatga tushasan, hosil ham bo‘liq;
Bu yil etilajak shonda aqalli
Zarracha mahsuling bo‘lishi aniq.

II

Ey, bahor, to‘ymagich jonim bor,
Sen bilan tug‘ildi gar egiz.
Borlig‘ing quchmoqqa holim bor,
Ishlaylik yil bo‘yi ikkimiz.

Yaralish — tug‘ilish uduming
Charchagan qonimga et payvand.
Yil bo‘yi yashil suv, ko‘k nuring
Tomirda yugursin yuz ming chand.

Yil bo‘yi niholday sarg‘aymas
Saraton zug‘miga beray dosh.
Qahraton qahridan mung‘aymay,
Qonimda kez, yashil, Yosh Quyosh...

1979

Kel, bahor!

Kel, bahor, qurigan sahroga
Ilk yomg‘ir berar gulsimon, kel!
Aylanmay qon dilda safroga,
Jonlansin, eng qodir hayot ber!

Tarsa-tars yorilgan cho‘llardek
Yurak chok, butunmas, ming bir darz,

Tomir ham qatqaloq yo'llardek,
Qoqilsa, chap berib yashash farz.

Kel, bahor, inqilob singari
Itqit qish qobig'in jonlardan.
Qo'yma u darzlarni singani,
Payvandla eng jasur ranglardan.

Sarg'aymas bahordek diyormi
Qadamin larzasin ilg'ay men.
Yashartib bu ko'hna dunyoni,
Dovrug'lar solganin bilay men.

Hech bahor, tuproqda uyg'onish
O'tdimi qalbimning yonidan?
Bahorda tug'ildim! Unga esh
Yashashning qonuni qonimda.

Qulochim yetmayin quchishdan
O'ch, zavq-la qo'shiqlar yugurgum,
Ikkimiz basma-bas yurishdan
Har safar yangidan tug'ilgum.

Har gal sen yangi,
Men navqiron,
Farzandlar kutar,
Men etsam tark.
Bahorni tark etsa bor inson,
Jahon ham bo'lmasmi juvonmarg?..

Kel, bahor!

1981

Ikki she'r

Qaysin Quliyevga

Qo'noq

Tog'liklar o'lkasin burgut siyoqli
Saxiy, o'ktami,
Bugun qo'shni bo'lib qoldi yiroqli
Qardosh tam-tami.

Qarshimda qo'sh boshin qorlarga o'rab,
Chaqnab, chorlar tog',
Quyini yuksakka zanjirday ulab,
Yo'l ketgan uzoq.

Dam olish faslini kutdim, yetishdim,
Topdim tanholik.
Uyqu, jimlik mayin shimirib ichdim,
Beqiyos totlik.

Jimligu hordiqdan toldim!
Bir parvoz
Istayman shu tob,
Intilsa dil yetar, chaqirsa ovoz,
Ey do'st, meni top!

Kezdir: shalolalar shovqini quchsin,
Tortay sezgirik.
Hayratdan ko'z yoshim uchqunday uchsin,
Atrof sehrlik.

Sen boshla qir, qoya, daralar o‘tgach,
Tog‘liq qo‘yniga.
Osilay ipakday himralgan o‘rkach —
Bulut bo‘yniga.

Cho‘qqidan yuksakda uchgan qushlarga
Kuchlidir suqim.
Men qushday o‘ktamman: u muz to‘shlarga
Qo‘nishim muqim.

Garchand cho‘qqi qorli — yaqin quyoshga
Bor edi ahding.
Malika atading ko‘tarib boshga,
Qur endi taxting.

Yerdan axtarganlar cho‘qqidan topsin,
Yuzim yuvsin sel.
Sovqotsam bulutlar par ko‘rpa yopsin,
Allalasin yel.

Kunduz sanchsin quyosh ming bor bigizin,
Bo‘lay o‘t nafas.
Elimning har gulro‘, pariro‘ qizi
Boqsin serhavas.

Cho‘qqi kaftidagi shu taxtda turib,
Sham bo‘lib yonay.
Butun jahon elin tinchlikda ko‘rib,
Behadik qonay.

Eldoshing:

«Bu yoniq sham qaydan o‘zi»
deb qilsa so‘roq.

De:

Yaqin qardoshning bir ona qizi,
Vafoli qo‘noq.

Bu kunlarda uyda emasman

Bu kunlarda uyda emasman,
Yana meni tark etdi yurak.
Yurak topgan hayratdan mastman,
Hayrat menga yoshlikdek kerak.

Qaydamiz, dil?
Bu kimning eli,
Buncha tanti, erka quyoshi!
Tilimizga o'xshaydi tili,
Kuydor ekan suvidan toshi.

Sho'x jilg'asi toshotar o'ynab,
O'ynoqlaydi toyday har to'lqin,
Qoyalari oftobdan yayrab,
Tomchi sochar misoli uchqun.

Iliq nigoh oqbosh tog'lari,
Ko'zlariningni kuydirsa ham muz,
Yomg'iriga bahor chog'lari
Ilk sevgiga tutgan kabi yuz —

Qizlar jala bilan o'ynaydi,
Yigtlarni nigoh-la kesib.
Sevsu na jon, molni o'laydi,
Ketsa mumkin har nedan kechib.

Har kim seni chorlaydi uyga,
Mehrin qo'shib tutar non-u may.
Sen kirgan uy aylanar to'yga,
Qolsang mumkin ko'ngil uzolmay.

Saf-saf g'ozlar yurgani misol
Qizlar o'ychan, raqsi sehrgar.

Titrar tog‘-u daralar xushhol,
Yigitlari jo‘r bo‘lsa agar.
Gar tinglasang ona allasin,
Oshiqlardan doston uzun kun,
Yerin, elin bitmas yarasin
Boisini anglaysan butun.

Va nogahon sen ham tанинда
Jарohatin, baxtin sezasan —
Qонли-qonsiz ja়nglar mardiga
Qalb-la ta’zim qilib, kezasan.

Nedan so‘zlar qilichday keskin,
Tog‘day metin qanoat qaydan?
Keksalarin qaddi tikligin,
G‘urur hatto yangrashin nayda.

Elbrusning qo‘sh oppoq boshi
Naq «Qiz ko‘ksi» — soflik, saxovat.
Bu husndan el dara, toshi
Kasb etadi tengsiz nafosat.

Tuprog‘ida yashnoq zilollik,
El bir go‘zal iqbol-la yashar.
Odatidir yaratish shodlik,
O‘ktamlik ham shonday yarashar.

Mana, nechun uyda emasman!
Tog‘li do‘srlar mehmoni yurak.
Sharobi-yu mehridan mastman,
Kayfin olib ketmog‘im kerak.

Ketganda ham hech unutmasman...

1975—82

Tong

Mendan boshlanadi uyda uyg‘onish,
Zero, uyqu nima bilmagan jonman,
Menga juda mushkul yashashdan qonish,
Safardan bir nafas tinmas karvonman.

Tong suvratin chizmoq bo‘laman hamon,
Yurak to‘lqiniga yetmaydi ranglar.
Tabiat naq shu kun tug‘ilgansimon
Har gal hamma yoqda yangi jaranglar...

Ajab!

To‘p-to‘p...

Bu ne mo‘jiza, ro‘yo,
Tomirlarda sezdim bahorgi irmoq.
Hayot ibtidosi kabi bu sado
Nahot bo‘ldi tandan charchovni quvmoq?
O‘girilib qarayman;

Ma’sum mo‘jiza:

Bu — mening nabiram!

Boshlabdi qadam.

Misli sho‘x ayiqcha, polopon, jo‘ja —
Ovdir-dovdir yo‘lni boshlarkan odam.

Lapanglab odimlar... borlig‘i jur’at,
Naq pag‘a bulutga tushar oyoqlar.
Murg‘ak, mushtday jonda bor hayot, qudrat,
Tong rangda shaftoli, momiq yonoqlar.
Og‘zi, ko‘zlariday ochiq keng quloch,
Nabiram qadamlar!

Yosh dorbozsimon.

Langarday yelpiydi ikki qo'lini.
Asr! Qopqalaring borligicha och,
Bu keksa zaminda yana bir Inson
Tong bilan boshlabdi buyuk Yo'lini.

Bilmayman!

Bu notinch ona jahonda
Shu tong yo'lga kirdi ne son – ming go'dak?
Kimningdir ilk yo'li yo'qoldi qonda,
Yot, izg'iq, mudhish o'q etdi juvonmarg?
Mening nabiram ham keksa dunyo-la
Tillashmoqni boshlar qushday hijjalab.
Go'dak, tong – ibtido asl ma'no-la,
Bizlardan himoya,
farosat talab...

1982

* * *

She'r demak – o'jar do'st qalamning izi,
Shoirni boricha etar namoyon:
Ne tariq hayotda otgan ildizi,
Ne tariq qaddini tiklab turgan jon.

Bu shunday bir izki – qalb sollanishi,
Goh dengiz dolg'asi, gohi nasimdir.
Goh bayram... Goh g'ussa yallig'lanishi,
Dardlardan tavallud kamyob tizimdir...

Goh g'urbat, dag'allik itargan kunjak,
Goh mushtdek yurakda yashagan jahon.

Gohi uzun o'tmish, sirli kelajak,
Yoshing o'tgan sari o'suvchi armon.

Istar u: mashaqqat, hayratday ko'chsin,
Sahroga yoyilsin soy bo'lib, yayrab.
Oydan shu'la emas, so'ylovchi uchqun,
Dardimga malhami bo'lsin musharraf.

...Hamon parcha-parcha dilni chegalab,
Undan butun qo'shiq to'qimoq orzu...
...Insonga berilur umr chamalab,
Afsus: hukmdamas tosh-u tarozu...

1982

Yillar

Kechang ortga,
Ertang oldinga tortar,
Qushlar barg uzganday umringdan uzib.
Fikring parmalasa yorilar toshlar,
Lekin yillar yo'lin bo'larmi buzib?

Yo'q, buzib bo'lmaydi ketar yo'llarni!
Bekat qurib tashla, gar qodir esang.
Kim bo'lding?
Ne qilding?
Tortiq bo'larli
Bormi kelurlarga arzirlik tuhfang?

Bir kimga boshpana,
Bir kimga ko'prik,
Yo ruhni yuksaltar biron so'z aytding?
Ko'z bo'lomadingmi,

Bo'ldingmi kiprik,
Yo bir aymog'ingni yerga qaratding?..

...Sarhisob chog'immas,
Maslak bir talay.
Uzun umr ato qilgan toleyim.
Jahonda o'q tovshin o'chganin bilmay,
Dunyodan tinchgina ko'z yumadi kim?

Hamma chegarani surib nariga
Bitta mintaqada yashar Yer, fazo.
Sen ko'rmagan el-u yurt har dardiga
Tinglaysan dilingdan bir aks sado.

Yerda hayot bitta,
Ammo ming taqdir,
Barin ko'tarmog'i vojib shu bir Yer.
Vojibdir charaqlab turmog'i oftob.

Hayot kundan kunga shirin,
Lek mushkul,
Sening ko'zing o'tkir,
Zamon ham shaffof.

Bilging,
Qilging zarur ish salmog'i zil,
Tortmoqqa asablar berarmikan tob?..

Gurkiroq o'smamga qish qor otganda,
Sevgan daftar birdan qolganda tugab,
Yarashiq ko'ylagim yupqa tortganda,
Erka do'st qo'qqisdan ketganda jo'nab;
Qalbim,
Vujudimni qamrab iztirob
Notavon achinish quchganda tanni,
Bilmabman:

Ne ekan gulni ardoqlab —
Parvona kapalak olib ketgani?!

Bilsam:

Ko‘p ulushin boy bermish umr:
Yillar aldab, nimlab olib ketibdi.

Isyonkor

Dumbul ruh o‘rniga

Sabr,

Matonat,

Ishq,

Mehnat so‘zin bitibdi...

1982

Onam bog‘i

Kechagina borliq edi moviy qor,
Sevgidayin kun taftidan eridi.

Esda:

Biz yosh, qor bahordan serviqor,
Tanimizda ming bir oftob bor edi.

Hamma go‘zal:

Yoshi o‘tgan onam ham

Xushbo‘y edi xiyol so‘liq gul misol.

U bilganni pari bilmas bir olam,

Unga kelib yechilardi barcha fol.

Nafasidan nafas olib o‘sdkiz biz:

Farzandlaru, gulu kitob hamrohi.

Guldan jozib edi bizning onamiz,

Bir jahon baxt bag‘ishlardi nigohi...

Onam bog‘i orzusimon turfa rang,
Loqayd, bachki bezaklarga edi yot.
Bor mavjudot raqibi-la qilib jang
O‘sirdi bog‘, o‘g‘il va qiz — zurriyot.

Shu eram bog‘ zamonaning zayli-la
El o‘tguvchi ravon yo‘lga aylandi.
Onam!
Sizning umr hayot mayli-la
Mening jism-u jahonimga joylandi...

Necha ajdod kechgan bog‘dan yo‘l qoldi,
U yo‘llarda Siz-u mendan yo‘qdir iz!
Sizni Men-u,
Meni Onalik oldi,
Ayol zoti ketmas hayotdan izsiz...

1982

* * *

Niyatim, aytajak so‘z, zorlarimga
Mushtdakkina yurak lim-lim to‘libdi.
Siyraklashgan kiprik oralariga
Bedorlik soqchisi uya qo‘yibdi.

Bor bo‘l, shunday taqdir!
Ziyrak bo‘l, soqchi,
Darimasin uyqu egizagi — g‘aflat.
Lekin lanjlik degan makkor qaroqchi
Bosh suqsa senga ham o‘qiymen la’nat!

1982

Buguningga men bo'lay hokim

Hovli to'la bahor,
Ko'k to'la bahor,
Nafis bahor hissin chuldirar qushlar.
Hali ochilmagan gullarda ifor
Qish qirovin quvib dillarni xushlar.

Va biz bir sulola ayvonimizda,
Nur, quvonch, xotira ne'matiga rom.
Evara guvranar quchog'imizda,
Hordiq kunimizga bag'ishlab orom.

Bir choq buvim aytgan kuyin takrorlab,
Men go'dakka sekin aytaman alla.
Menga munchoq ko'zlar boqadi bodrab,
O'g'limni-chi, uyqu quchgan bu palla.

Hordimi?
Elitdi yo nafis ko'klam,
Ilk nasim yetaklab sochib yurgan nur...
Nahot orom bo'lди bolamga allam,
Charchoqlarin tortib baxsh etdi huzur.

Qo'lidan sirg'ilgan gazet, oynagin,
Balandroq tokchaga qo'yay avaylab.
Choyi sovimasin, o'ray choynagin,
Aytay alla ichra allalar saylab.

Uxla, buguningga men bo'lay hokim,
Kunni tunga ulay gar senga darkor.
Va tepangda ezgu tilaklar aytgum,
Shunday yonginamda to'yib uxbol ol.

Qator telefonlarning uzayin simin,
Yo'qlaganga qanday «uyda yo'q» degum!
Aql bilan o'lchab yillarning vaznin
Eliga kift tutar inson yetkurdim.

Qanday qulay bo'lsa shunday yotaver,
Shovqin, ovozlarni ketga qaytaray.
Sim-siyoh qosh, kiprik,
Soching oqlarin,
Barmoqlarmas, baxtli nigoh-la taray.
Xizmating, burchlaring,
his,

tuyg'ularing

Ko'lamin anglashim bag'ishlar g'urur.
Yelkamga ololmam aql zarrasin,
Qodirman suyunib tilashga umr!

1982

Uzugim sirg'ilib tushdi...

Yo Rabbiy!

Uzugim sirg'ilib tushdi,
Ingichka tortdimi, shuncha, barmoqlar?
Qalbimning tubida nedur uvishdi,
To'lqinsiz qoldimi tanda irmoqlar?

Zeb-u ziynatlarga o'ch bo'lmadim hech,
Ziynat bildim faqat zamon, sozimni.
Sozni na kunduz, na tunda qo'ydim tinch,
Yelkasiga ortib quvonch, rozimni...

Uzuk qalamimdan edi yaqinroq,
Dilim va barmoqlar siriga mahram.
Huzur, iztirobdan tushganda titroq
O'sha edi chaqnab, mo'ltiragan ham...

Endi barmog'imni etib ketdi tark,
Bir chog' tuhfa etgan qo'llar singari.
Garchand u emasdир sevgi kirgan ark,
Ketishi ham emas to'lqin tingani.

O'rta barmog'imga olaman taqib,
Tabiatdan ustun menda ixtiyor!
Endi bu barmoqlar ne kuchdan qalqib,
Noziklashar nedan, bilmog'im darkor...

1982

Bu kunning she'ri

Uydirmaga cho'zmas qo'llarin,
Ayon: she'riyatga tiz cho'kar qalam.
Dil ko'zi oq ko'rib hayot yo'llarin,
Oldinga undaydi sur'atli har dam.

Dam va kun dalaga ketgan yoyilib,
Qayda ishli tuproq, shu yerda o'zi.
Har zoye nafasga bizdan koyinib,
Dakki, chaqiriqday boqadi ko'zi.

Kun nima, biz o'tli qalb bo'lsak agar,
Mehnatimiz bergen har aziz meva.
Ortganing ne bo'lsin,
xijolatmi, zar,
Ertaga eltuvchi sodiq bir teva.

Xijolat mezonday ilashmasin hech,
Paxtaday nur sochsin har dilga shuhrat.
Mashina,

qo'lдами,

tongmi, kunduz-
kech,

Shu pok, iftixorni teramiz, albat.

Umid urug'ini tikkan dehqon qalb
Baxtining donasin qoldirmas yerda.
Dilimiz o't olsin, kunlar dol-u

zarb.

O'tsiz paxta bitmas,

don yetmas elda.

Bu kunning sur'ati,
bu kunning kuyi,
Bizning qaynoq qo'lidan g'olib qanotda.
Mag'rur boshlaringiz bo'lmasin quyi,
Ne bor g'alabadan shirin hayotda?..

1982

Kuylama hijronni

Gulgina Zokirovaga

Kuylama hijronni,
men kuylab o'tdim.
Nahot men yetmagan pardasi qolmish?
Achchiq, uzun yo'lin men bosib o'tdim,
Senga nega darkor qayta yo'l olish?

Kuylama hijronni, takrorlash nechun?
Bir faryod ming dilni etadi pora.
Ko'z yosh bo'lib oqdi borlig'im butun:
Na inson, na tangri topoldi chora.

Takrorlama, Gulim,
sen baxt erkasi,
Dilbar ovozingga yarashar shodlik.
Bir baxtsiz sevgining bitmas giryasi
Qalbingdan o'rlaydi, bu ne bedodlik!

Kuylama hijronni, garchand ovozing
Otayotgan tongdek nur to'la jarang.
Kuylasang nilufarsimon ruxsoring
Shomdag'i shafaqdek za'far – g'ussa rang.

Nechun bu serjodu, jayron nigohdan
Ruxsoring kuydirib oqar qaynoq yosh?
Gulginam! Hijronda, xazonli ohda
Hech zamon jamolin ko'rganmi quyosh?

Ne-ne mahbublarning bisotin titib,
Ko'rdim: ko'z yosh egov ekan umrga.
Mendan keyingilar yig'lamasin deb
Dardim selobini to'kdim she'rغا.

Sen kuyla, sevgining vosil hayotin,
Toshlar tilga kirsin,
gul ochsin muzlar!

Ishq,

shodlik chulg'agan dillar bayotin
Kuyla, lolalarday yashnasin yuzlar.
Kuylama hijronni, go'zal Gulginam!

1982

O, ijod

O, ijod, dardginam,
Sen mening oromim raqibi,
Uyqusiz tunlarim yoritgan nur, chiroq!
Tandagi zilzilam,
Muqaddas tanholik habibi,
Goh chorlab, goh deyman, ket yiroq.

O, mening umrimning egovi,
O, qalbim dardiga bir malham,
Men uyqu istayman!
Bo'lasan she'r dovi,
Ketmaysan quvsam ham,

Qalamni tashlayman,
So‘ndirib men chiroq,
Bu g‘ujg‘on o‘ylardan yorilgan boshimni
ko‘rpaga o‘rayman.

O‘ylarim,
Siz mening chuldiroq qushlarim,
Ketingiz, ketingiz!
Sizda-ku bor qanot!
Men uxlay, menga ham vojibdir uxlamoq?

Yo‘q,
Yurak bosh bilan qilar jang,
O‘rtada qon chopar misoli o‘t — daryo,
Fikrlar lashkari holimni etar tang!
Charchayman!
Axir men gar shoir, dildiroq bir Ayol!
Aqalli, uyquning amriga kirayin!
Oromning qo‘ynida tin olgan
Ayollar singari latofat kasb etib turayin!

Yo‘q,
Qonda shu Ayol qudrati
Dengizning dolg‘ali to‘lqini singari
Uyquni otadi bedorlik sohili toshiga
Va meni yetaklar qog‘ozim qoshiga.
Men esam ko‘zimni ochmayin,
Madorsiz qo‘l bilan yoqaman chirog‘im,
Itqitgan qalamni axtarib topmayin,
Sipqorib yotaman ilhomning bulog‘in.

O, ijod olami!
Tun bo‘yi shu zayil
Sen bilan goh totuv,
Goh raqib,


Yana muk tushaman nazmning mashqiga:
Va lekin eng sinchkov munaqqid —
Erta bor.

Har misra tushadi fikrning shafqatsiz dastiga:
Misraga dalalar nafasi shovullab kirmasa,
Insonlar yuragi lovullab turmasa,
Na davr,
 na mehnat,
 na shodlik qalamni surmasa,
Bir puldir mehnat-u,
 dard-u she'r,
 tun umri,
O'qiymen, o'y lab ham turmayin
Yirtaman parchalab.

Baxt yo'qlab:
Agar qalb.dardidan tavallud bo'lolsang,
Senga duch har yurak torini topolsang —
She'r bo'lib el ichra yuraman men chaqnoq,
Uyqudan ko'rk topgan ayoldan o'ktamroq!

O, ijod alami,
Sen tushday qolasan tun ichra.
Men esam ijodning sodiqa hamdami.
O'zimni sezaman tongdan ham gulchehra.
Shu asno men she'rman!

O, ijod, dardginam!
Iztirob, oromim,
Taqdirim,
Shuhratim,
Toleyim va komim!..



Dostonlar

Mushoira

1

Go‘zal tuproq uzra quyiladi oqshom,
 Kunduz olar dam,
 Jo‘shqin mushoira etadi davom,
 Do‘stim, kel sen ham!

Bunda uzoqdagi do‘st bo‘lar yaqin,
 San’at, mahoratning bayrami bunda.
 Qofiya, so‘z, misra bahslari qizg‘in,
 Yuraklar davraga kiradi bunda.

Qay dil chamani boy, jozib nafasi,
 Kimning fikri o‘tkir, teran, bokira?
 Bu gurung — shoirlar musobaqasi —
 Sharq she’riy chamani, bu mushoira.

Hind tuprog‘i uzra quyilib oqshom,
 Kunduz olgach dam,
 Jo‘shqin mushoira etadi davom,
 Do‘stlar bo‘lib jam.

Yuraklar jo‘r ekan, ovoz hamohang,
 Zarra ehtiyoj yo‘q muhtasham zalga.
 Bu she‘r bog‘ida go‘zal, rang-barang
 Qo‘shiq solib kelgan har shoir dilga.

Nil qudratin jo‘shib kuylar bir shoir,
 O‘zgasi Gang misol qilar zamzama.
 Faqat mango nusxa ajoyib chodir
 Bu go‘zal davraga ajib boshpana.

Bengal ko'rfaziday ko'k edi oqshom,
Atrofda tabiat olardi nafas.
Rang-barang chiroqlar shu'lasi beson —
Osmon ko'zlarida etar edi aks.
Salqin sohillardan esgan shabboda
Goh olib kelardi gullar bo'yini.
Goh hindu qiz kuyin, goh yaqin bog'da —
Sayragan anvoysi qushlar kuyini.

2

Lekin hokim edi davrda ilhom
Va jasur qalam.
Jo'shqin mushoira etardi davom,
Do'stlar bo'lib jam.

O'zbek supasiday sahnada gilam
Chiroqda yonardi go'yo kamalak.
Sehr-u muhabbatin ko'rardi baham
Haqiqat va nurga intilgan yurak.

Sahnaga chiqardi sipo va vazmin
Chinor ham, nihol ham she'r chamanidan.
Keksa-yu yosh ota-yu farzandday yaqin
Yonma-yon do'stlikning bu bayramida!

Sharqning ham buzilmas odatlari bor,
Hindlar udumiga qilamiz amal.
Chordana quramiz mehmon va mezbon
Kamalakrang gilam uzra bemalol.

Poygakda yechilgan xil-xil poyafzal,
Mening nazarimda o'zi bir dunyo.
Har biri o'zida mehnat va go'zal
Eli tuprog'ini keltirgan go'yo.

Ajib Hindistonning mohir, mirishkor
Kosibin san'atin qilib namoyish —
Hindlar sandallari tizilgan qator.
(Sandal daraxtidan yasalgan emish).

Juda soz! Albatta kiyib birini
Safarga do'stlar-la men ham chiqaman.
Har qo'lga tutqazib xalqim mehrini,
Buyuk Hindistonne yayov kezaman!

Xitoyning bezirim, Bog'dodning puxta
Oyoq kiyimlari turar yonma-yon.
Qarayman, Seylon bor va boshqa
juftda
Eron kosibining san'ati ayon.

Mo'g'ulcha etiklar Panjob kashfiga
Ertak so'zlaganday egilib turar...
Ko'zlar quvonadi inson ishiga,
Shod etar tuprog'-u, mehnat va hunar.

3

So'ngra tevarakka sezdirmay sekin
Men ham tuflimga tashladim ko'zim.
Yomon emas, Ahmad, mohir, kamtarin
Vatandosh, ishingga olqish o'qidim.

Bilaman, sening ham bunda do'sting bor,
Balki Bombeyda u, balki Kashmirda.
Qayerda bo'lmasin xuddi sen misol
Yashaydi davrada yangragan she'rda!

Chodir ichi gavjum, ko'zlar muntazir,
Mikrofon oldida davr sohibi:

Kumushday sochida jilvalanar nur,
Ko'zida yoshlikning so'nmas yolqini.

Nelarni ko'rmadi bu ko'zlar? Yurtda
Ko'z yoshi daryoday oqqanin eslar.
Iroda va umid toblanib o'tda,
Qari haqsizlikni yoqqanin eslar.

Endi Hindistoni ustida oftob,
Shuning-chun yosh, dadil, munavvar boqar,
Bizni she'r bahsiga qiladi xitob,
Qo'shiq yuraklardan daryoday oqar.

Go'zal tarjimondir zangori oqshom,
Har yurak hamdam.
Bizning mushoira etadi davom,
Do'stim, kel sen ham!

Mana, musiqaday, sevgiday mayin
Davruga kiradi Panjob bulbuli.
Nafis satrlari yoniq o'tdayin,
Jasur jaranglaydi onalik dili.

She'r o'qiydi Nepal, Vyetnam, Xitoy,
Rus, tojik o'qiydi she'rini sarbast.
Qora alangaday soqolli singxlar,
Qorday oq libosli bengallar, hindlar.
Zavqidan tebranib naq to'lqinli soy,
Tinglardi hayajon og'ushida mast.
Qo'shiq-chi?

Goh kurash,
goh qiz sevgisi.

Surmali ko'zlarning nozi bo'lib goh,
Goh bo'g'iq haqiqat dod, hayqirig'i,
Gohi yulduz kabi yiroq, yorqin baxt.

Qullikka sanchilgan g'azabning tig'i,
Goh erk tantanasi bergen adolat —
Osiyo, Afrika kartasi bo'lib,
Hayot alamiga, baxtiga to'lib,
Kirib kelar edi dildan dillarga.

Yellar misralarni dillardan yulib —
Million yo'llar bilan butun ellarga
Ketardi go'yo bir samimiy sayyoh,
Yolqin qanotida do'stlik va mehr.
Go'yo sharqliklarning baxtiga guvoh,
G'arbni chorlar edi davraga she'r.

Ey latif, fusunkor hind oqshomlari,
Ne sehr bor edi zangor qo'yningda?
Tinglovchi va shoir hayajonlari
Bu ulkan qalb bo'lib tepar to'lqinda.

Yangi kuy, yangi o'y olib shoirlar,
Daraga kelardi, kelardi hamon.
Dillarni payvandlar edi satrlar
Do'stlik, qardoshlikning ko'prigisimon.

Yor-u birodarning mehriga serob.
Yurakday davramiz borar kengayib,
Jafokash qoniga solib oftob,
Ko'zida qalbning oqligi yonib —

Afrika farzandi o'qiydi she'r.
Irmoqday quyilar tinchlik so'zları.
Orom og'ushiga kirgan bo'lar yer,
Yorqinroq chaqnaydi ko'k yulduzları.

Sen ermak emassan, sen non, sen orom,
Orzu pokiza.
Sen Hayot! Hayotni kuyla sen mudom,
Ey mushoira!

Sen chorla, ovozing eshitsin jahon!
She'rning urib turgan yuragi bo'lib,
Hayotning eng ajib kuyiga to'lib.

5

Davramizga kirsin ishchi va dehqon,
Hayot san'atkorি eng oddiy inson.

Balki u she'r yozib, o'qimagan ham,
Ijodning lazzatli dardi begona.
Kurashi — qalbida qaynagan ilhom,
Kitobi — erkka ishq, orzu va g'oya.

Mayli, o'rin olsin, bu shonli safdan,
Shoirlar kuyiga bo'lsin hamovoz.
Mehnat-la yaratgan saodat, baxtdan
Naql etgan misralar keng qilsin parvoz.

Hayot go'zalligi she'riyatining
Yoniq nafasiga to'lsin bu jahon.
Xavfdan xalos bo'lgan bashariyatning
Qo'shig'in to'qisin ozod, tinch inson.

Davramiz mehrga to'liq bir olam,
Do'stlar bari jam,
Buyuk mushoira etadi davom,
Kelingiz, siz ham!

Quyoshli qalam

XAYOL QANOTIDA

1

Yo'l uzoq, yo'l yaqin, boshsiz, so'ngsiz yo'l,
 Biri tor, biri keng, ravon va so'qmoq.
 Tinglab ko'r, qarichi ming ertakka mo'l,
 Tug'ilmoqday farzdir birini o'tmoq.

Yo'l... Tuproq chehrasin kesgan sonsiz yo'l,
 Yo'l demak borlig'i izdir behisob.
 Yo'llarsiz koinot — misoli bir cho'l,
 Na kurash, na zafar, na haq, na sarob.

Yo'l demak, o'tilgan bir umr demak,
 Hech biri muqimmas tuproq singari.
 Lekin zamon o'ta borlig'i hikmat
 Biz-la kelayotgan kimlar yo'llari?

Ha, shunday yo'llar bor to'liq izlarga,
 Zamonlar to'foni ko'mishdan ojiz.
 U tirik! Jahonni ochar bizlarga,
 Ezgulik mehrobi qarshisida tiz —

Cho'kkanday kiprik-la surtib har changin,
 Daholar oldida bosh egamiz lol.
 Tirik yuragiga kirganing sayin,
 Go'zalroq, yaqinroq senga istiqbol.

Biz ham yo'lda... Quyosh, tuproq vaslidan
Qiziydi orqada, oldimizda yo'l.
Go'zal bo'lib ketmish tuproq aslidan
Urug' sochib o'tgach mehnat nomli qo'l.

Yo'l ravon, po'lat iz singari tekis,
Ikki yog' navbahor buyog'iga mo'l.
Ortda qancha yukli, yuksiz qolgan iz,
Oldda borlig'i sir, bosilajak yo'l.

Naqadar fusunkor ko'rila jaka ko'rk!
Damlar ham odimlar qaynoq kunduzga.
Ochiq derazadan el bilan ko'm-ko'k
Osmon otiladi mashinamizga.

2

Bizning mashinamiz ufq va quyosh,
El-u yuraklarga kirishga shoshar,
Muazzam adibga safarda yo'ldosh
Baxtidan quvonchim arshidan oshar.

Safar! Oz kezdimi adib hayotda,
Qishloqlar, shaharlar, ellarga safar.
Mudom shay sayyohdai — xayol-qanotda
Taqdirlarga safar, dillarga safar.

Yurib olov kaftda yongan tuproqda
Adib dil isitar nurni qidirdi.
Oltin vodiy kezib horgach, buloqda
Suv qolib, go'zallik, shodlik simirdi.

Har safardan ortib-tortib kelganin
Faqat qalamiga etdi hadya,
Hech kimsa bilmadi qalam bilganin,
Necha bor sevilib, yondi xufiya.

Bir damda necha bor chiqdi safarga,
Necha el-la birdan qildi u suhbat.
Ming toifa urdi o'zin asarga,
Goh urush, goh yarash, goh bo'lib g'urbat!

Faqat o'zi ezgu bu sirdan ogoh,
Yozishga o'ltirgach qilgani safar.
Goh aniq so'z izlab, rang, jon izlab goh,
Safar qila-qila yozdi u asar...

Ha, adib safarda! Uchar gilamday,
Mashina yeladi ravon izida.
Dalalar yashnaydi bog'i eramday,
Tabiatga shaydo adib ko'zida.

Bu yirik ko'zlarning teran nigohi
Tergan bo'yoqlarning jilvasi ne tus?
Uchqur xayollarning olov qanoti
Qay asr, qaysi davr damiga to'kis,
Uni faqat adib o'zi qilar his.

Hamisha osoyish, salobat siymo,
Bilamiz, jahonni qamrashga qodir.
Kim biladi, shu on — tez oqar daryo
Kabi ne xil va necha taqdir.

3

Zavqqa solib o'tar notinch fikridan,
Asabi savalar ne istak dardi?
Yo'l, faqat yo'l tutar qalam zikridan,
Yo'l bosilgan sari — nari ketadi.

O'ylar bilan dil ham otilajakday,
Adib o'ltiradi ko'ksini quchib.

Ufqda mo'jiza ochilajakday,
Mashina yeladi qush kabi uchib.

Motori guvullar, guvullar shamol,
Kichik davramizda buyuk sukunat.
Balki yangi hislar qaynashidan lol
Adib bol aridek qiladi mehnat?

Faqat chust do'ppisi ostidan toshgan
Kumush halqalardan oqib tushar ter.
Va unga qo'shig'ni ko'tarib shoshgan
Kabi ikki yondan chopib kelar yer.

Yer adib singari tinimsiz ishda,
Bunda cheksiz g'o'za, u yerda bug'doy,
Unda bog', bu yoqda jiyda kumushda,
Bedazor, polizda sabza bir chiroy.

Yer barin ko'ksida quyoshga tutib,
Bag'ishlab yotibdi o'zidan kamol.
Ishchi yer diliga qulog'in tutib,
Adib go'yo undan oladi misol.

— Oybek ishlayapti! — deydi, baxtiyor
Xotini adibga qiladi imo.
Taqdir adibiga hamdam etgan yor.
Qalamday vafodor, ilhomday zebo.

Vijdoniday toza, hayotday dono,
Sertashvish umrning munis hamdami.
Lochinday o'g'illar va qizga ona,
Horganda tili-yu ishchi qalami.

Eriday zahmatkash, eriday tanti,
Fan va she'r, go'zallik oshig'i olim.

Kimyo ilmining yulduzlaridan
Biri bizning aziz Zarifa xonim.

4

Adib so'zi yetgan har bir ovulda
Ajabmas, topilsa uning shogirdi.
Ikkisi go'zal bayt qo'sh misrasiday,
Ishqda, ishda, baxtda umr kechirdi.

Ha, adib yersimon betinim ishda,
Har bosilgan yo'lidan ilhom teradi.
Yana qay kuy, niyat kurtagi nishda,
Ko'zi bo'stonmi, yo o'tmish dardi?

O'tmish o'z yukidan qaddini bukib,
Hamon o'lja olar bizdan damlarni.
Bitmas g'aznasiga g'avvosday cho'kib
Adib tinmay terdi javohirlarni.

Bugun Buxorodan qalbini izlar,
Izlar ming yillarga kirgan xayolin,
Kim bilar, bu tuproq nelardan so'zlar,
Kimlar yechib berar chigil savolin.

Garchand darsligiday tanish Buxoro,
Titdi mudroq, uyg'oq keksa, yosh bobin,
Zindonida titrab, minorlar aro
Kezdi va axtardi dilga xitobin.

Haq-u haqsizlikning talashlaridan
Holdan ketgan norday cho'kk'an qasrlar,
Ko'z yosh tepchib chiqqan sho'rxak
toshlardan
Ajdod zakovati o'chmay asrlar —

O'ta mo'ltirashib boqar adibga,
Boqar nurab ketgan ark ko'hna davlat.
Adib qo'l mehnati, san'ati — zebga
Harblar suyagidan qurilgan savlat.

Shuhrat qoldig'iga boqadi takror:
Qor yonar, yoqut, dur qon jilvasida
Har g'ishtidan tirik boqadi me'mor,
Hokimlar-chi, zamon och tevasida —

O'tmish karvonining yo'lida unut.
Saroylar tuproq rang uyquda mudrar.
Adib yuragiga solib yangi o't
Qamchi bukolmagan taqdirlar sudrar.

5

Arkka ko'tarilar... Qadamlar og'ir,
Oyoqqa yopishgan botmon tosh go'yo.
O'tgan ikki ming yil zamonda, axir
Qancha xoqon, kibor, qancha qul, gado.

Dong solib, dod solib, uchib, sudralib
O'tmadimi bu tim, bo'm-bo'sh yo'lakdan?
Siyqalangan g'ishtlar mash'um yiltirab
Harorating yutar tortib yurakdan...

Arkka ko'tarilar g'ussa kabi jim
Ko'hna devorlardan ufuradi muz.
Shodligimiz yutib qultum-baqultum
Obxonalar boqar naq o'yilgan ko'z.

Obxona, obxona, ey mudhish kunjak,
Balki ezgulik-chun qurgan edilar?
Uzoqlardan kelgan musofir jindak
Bo'lsa ham tashnasin bosar, dedilar.

Bunda suv saqlamoq, hayot saqlamoq
Demak, boqiylikni qilganlar ardoq.
Lekin amirlikning tojdori olchoq
Butun ezgulikka solganday sirtmoq —

Seni asl burching — hayotdan tortib
Oldi-yu, aylanding qamoqxonaga.
Mangu tavqi la'nat yukini ortib
Kirib bo'larmidi hur zamonaga?

O'ylar adib yonib, ko'zi qovjirab,
Darra zarbin sezar o'z kiftlarida.
Go'yo Ayniy ko'zi boqar jovidirab
Qabih obxonaning zax shiftlaridan.

Vujudi og'riqda, joni qiynalib,
Junjikib qo'llarin suqar qo'ltiqqa.
Yirik, dono ko'zlar mungga aylanib
To'kilmagan yoshga to'ladi liqqa.

Shu kun qancha kezdi, ko'rmadi qancha,
Ko'zidan ketmadi Ayniy ko'zları.
«Hech kim bu zindonda yonmadi uncha
Va o'qday teshmadi hech kim so'zları.

Hayoti, qalami, komi — jasorat,
Qullar yuragining oshkor faryodi.
So'nggi isyon qoni, ilk erk, saodat
Shodlikka hamdamdi ulkan hayoti» —

O'laydi. So'ng so'ngsiz uchrashuv, bahslar,
Chuqur xotiralar bari jonlanib,
Go'yo g'olib Ayniy yozib, shodlanib,
So'niq Ark ustida etardi parvoz.

Go‘yo derdi: «Mavzu yotar taxlanib,
Yozing, Oybek, qancha yozsangiz ham oz!»

Oqshom horib qaytdi mehmonxonaga,
Ikki qiz va yigit kutardi uni,
Institut zalin tirband to‘ldirgan,
Suyukli kuychiga ilhaq o‘ltirgan
Sonsiz muxlislar-la she’rxonlikda
Jaranglab kechaga sho‘ng‘idi kuni.

YARATISH DARDI

Birdan ufqlardan bog‘larga kirib,
Yo‘lni kesib chiqdi osmon rang daryo.
Adib xayolidan dalani surib,
His to‘lqini indi taniga go‘yo.

Va u o‘z ko‘ksini quchdi mahkamroq,
Uchmoq istaganday qo‘zg‘aldi xiyol,
Yo‘q! Borliq entikar unga yaqinroq!
Sevinch-la tamshandi. Kim bilsin, xayol —

Yangi qahramon-la uchrashtirdimi,
Yo suv parisiga qildi ro‘baro‘?
Yo quyosh bilan qo‘l ushlashtirdimi,
Yo tog‘lardan tushdi oldiga ohu?

Keng yag‘rin, mosh-gurunch qo‘ng‘iroq sochda
Sezdim yoyilganin yangi hayajon.
Adib rafiqasi bu yangi mavjda
Ko‘rdi chog‘i unga tanish bir jahon:

Oybek ishlayapti! — dedi baxtiyor
Va aziz siymoga qildi ishora.

Qarayman: chindan ham ilhom dardi yor
Vujudi o'z qalbi sochgan ziyoda.

Men har kalimani termoq bo'laman,
Salmoqli bo'yoqli, siyoqli bari.
Kamyob shohidlikdan baxtga to'laman,
Ongda tug'ilishin yangi asarning.

Vodiy kesib chiqqan osmon rang daryo
Somon yo'li kabi yastandi yo'lda.
Unda quyosh yonar naq go'zal ro'yo,
Parcha-parcha oltin har och to'lqinda.

Yaqinlashgan sayin qamashadi ko'z,
Yaqinlashgan sayin salqin olar tan.
Yaqinlashgan sayin har zarra-yulduz
To'zonin ko'tarar bu oyna sathdan.

— Zarafshon! — Onani, yo sevgisini
Noxos uchraganday adib behad shod.
Uchqur mashinaning tortmay tizginin
Boladay sakraydi tog'day ulkan zot...

Zarafshon! Ey ona tuproqqa ko'krak,
Shoh-u gadoga teng ko'ksini ochgan,
Tuproq tirikligi, inson to'qligi,
Vodiy go'zalligi bo'lib zar sochgan.

Men seni qo'shiqqa solmog'im mahol,
Umrin, kuching, ko'rking, mehringni bu on.
O'zingday abadiy, go'zal, barkamol
Kuylagan-ku seni Hamid Olimjon!

Oybek sohilingda turar chinorday
Barcha ulkanliging zavqli nigohda.

Bir so'ngsiz karvonga tizilgan norday,
Tollaring ta'zimda turar qirg'oqda.

Bu ikki qalamning san'atiga lol,
Yozganlarin qayta-qayta o'qirman.
Qalbimni qiynagan, erkalagan hol,
Aytmasam bo'lmasin men ham to'qirman!

Adib istagi-la to'xtaymiz. Birdan
Yer, quyosh, suv, havo bizni quchadi,
Daryo qo'shig'idan, el shiviridan
Tandan yo'l hordig'i tunday ko'chadi.

Shoir sohilda tik.
Keng ko'ksin kerar,
Tabiatdan yayrab ichadi havo,
Xayolin zabt etar munis sehrgar
Suvdan kelayotgan fusunkor sado.

Shoir sohilda tik. Daryo nur ichra,
Bahor toshmoq bo'lar qirg'oqlaridan.
Oqindan to'ldirib qo'shoq hovuchda
To'yib suv shimirar barmoqlaridan —

Tog'likdan tushganday to'kiladi suv,
Ola chalpoq nurda gavharday yonib,
Keng peshana, yuzga yoyilar kulgu,
Go'yo ilhom ichdi hayotdan qonib.

Daryo o'z kuychisin to'lqin qo'yniga
Olib ketmoq bo'lib jo'shqin oqadi.
Kuychi maftun turar suv o'yiniga,
Mag'rur aksi undan bizga boqadi.

«Iching! — deydi menga o'rnini berib, —
Har daryo suvining o'z bahrasi bor!»

Hozir ustoz turgan sohilda turib,
Go'yo imtihondan o'tmog'im darkor.

«Iching! — deydi. Men ham nam qirg'oq uzra,
Mehrobga kirganday asta tushaman.
Sinchkov nigohidan qimtinib zo'rg'a
Qo'sh hovuchda shaffof bahra ichaman.

«— Yaxshi, yaxshi!» — deydi takror va takror,
Go'yo suv ichmadim, go'zal she'r bitdim.
Go'yo o'zi kabi ezgulikka yor,
Go'yo shogirdlikning maktabin o'tdim.

Shodman: Adib bilan bir suv, bir tuproq,
Bir elga farzandlik ortdilar faxrim,
Shodman: kezib, sezib serob va chanqoq
Yaratishning dardi, baxtidir mahrim.

Yana yo'l! Orqada qoldi Buxoro...
Nahot adib bilan kelmoqda shahar?
Nahot fikri qal'a, qasrlar aro,
Nizolar, kurashlar ma'nisin chaqar?

Yo mag'lub amirning oltin qalqoni,
O'ta olchoq qalbin ko'rib turibdi?
Zanjir uzgan qo'llar, qurbanlar qoni,
Naq o'z tomirida urib turibdi?..

Ko'rdim, kurash, qirg'in va mushkul zafar,
Mardin, shohidlarin axtarib topti,
Qancha do'stlar uyda kutganda mahtal,
Uning ko'zlarida oppoq tong otdi.

Hikoya tingladi, muzeylar kezdi,
Kirdi ming-ming hayot, taqdir yo'liga.

Shahar qalbin ochib:
— O'qib ol, — dedi,
Berdi hech tushmagan qalamin qo'lga.

U tinmay ishladi. Qari-qartangdan
Tolmadi necha kun hikoya tinglab.
Hozir chiqqan kabi o'zi zo'r jangdan,
Yuzda yillar izi — terda bo'ldi g'arq.

Naq ko'zim oldida o'sha qiyofa:
O'kinch, iztirobli, zahmatkash ko'zlar
Xit edi so'zlolmay, Nigohi yona —
Yona menga achchiq haqiqat so'zlar:

— Bular so'zlab bergen har bir hikoya,
O'zi shundoqqina oltinday kitob.
Bunda har ne tubsiz va benihoya
Jafo ham, daho ham, orzu, iztirob.

Aql-u zakovati jahonni tutgan,
Abu Ali Sino, Mahmud Torobiy
Va qancha daholar shu yerda o'tgan!
Hali ochilmagan tarixning bobi —

Ozmi bunda? Axir, nega yozmaymiz,
Xalqiga ko'tarib chiqmaydi qalam?
O'tmish karvonida sochiq durimiz.
Terib, nahot, dildan bag'ishlab malham —

Qayta porlatuvchi iste'dodlar kam?
Juda ko'p, Zuhroday yorqin iste'dod,
Yurtim nasri, nazmi toza ko'kida.
O'tajak umrdan tilamay imdod
Yozish kerak yonib ijod o'tida!

Ko'rdim: fikrlashdan yorilguday bosh,
Unut papirosni ulab chekkanin.
Moviy tutun ichra munis, ko'makdosh
Xotini daftarga xatlar chekkanin.

Horib, charchab, sayrga chiqsa Buxoro
Oq nurlar to'shadi ming-ming chirog'dan,
Gumbazlar, minorlar, qal'alar go'yo
Afsonaviy yurtday boqdi yiroqdan.

Oldida navqiron kuchli yigitday
Shodlik tirsillagan bugungi hayot,
Oftobga mahliyo karvon bulutday
Oppoq yuksak uylar!

Misli oq qanot.

Yoyilgan oynaband ulkan binolar:
Yangi institut, yangi fabrika,
Yangi mehmonxona, yangi kinolar,
Yangi taqdirlilar abadiylikka
Olib kirgan husn, yangi jiolar.

Yangi baxt, orzu-la yashnab, yasharib
Yana shuhrat sochar mag'rur Buxoro.
Yangi avlod o'tmish changini artib
Hamon yashirin yotgan qatlamlar aro.

Ajdod dahosini izlashdan tolmay,
Suyab, tiklab, sevib qiladi ardoq...
Adib boqar: ko'kda yulduz naq olmos,
Yerda — kunduzlar ham so'nmovchi chiroq.

Yerda... yana qancha tomir yoyilib
Inson uchun ishlab urib turibdi.
O'zbek yuragini otashin olib,
Kim hozir qaylarga kirib turibdi.

O'lkamizning yangi allomalari,
Buxoroda ochgan o'zbek gazimiz,
Bizga kelgan hurlik, tole yo'llari
Bilan borar do'stga naq dil so'zimiz...

Kecha va bugunni bridayin quchib,
Tongga yurar uyg'oq Buxoro tuni,
Mashinalar ko'cha-ko'ylaring yuvib
Kunduzga kelinday uzatar uni...

Yo'l davom etadi. Adib yuzida
Quyosh chehrasidan ajib ro'shnolik.
Ortida o'ltirib yirik ko'zida
Ilhom chaqmog'ini mumkin ko'rmoqlik.

Tarix jarohati, xalqning ofati
Yiqiq sultanatning g'ishtin irg'itib,
Shahid, qurbonlarning unut qomatin
Suyab olib, qutlug' qonlarin artib,
Bir roman yozmoqchi!

Ongda nish olib,
Biz-chun yangi asar topmoqda kamol.
Dilga shuncha dovul, kurashni olib
Filday tinch o'ltirish emasmi malol?

Butun umr shunday, yarim asr shu,
Yaratish dardidan oldimi hordiq?
Hakimlar qo'riqlab, unutdi uyqu,
Lekin u tiniq o'y, qalamga sodiq.

Shunday salobatda, shu saodatda.
Shunday kamolotda kechirdi umr.
Ne yozdi: baxtdanmi yo jaholatdan,
Barini yoritdi qalbidagi nur.

NAVOIY YURAGI URIB TURIBDI

Cho‘li Malik ko‘ksin kesib tushgan yo‘l,
Ro‘yodan bir yangi dunyoga chorlar.
Bugungi fikr, ijod, Mehnat nomli qo‘l
Bo‘lib naq kaftida ko‘tarmish shahar.

Navoiy shahri bu! Mudem yosh, nurli,
Bemisol, betaxlit she‘r dahosiday
O‘xhashi yo‘q bu ko‘rk erkalab ko‘zni,
Adib asabini do‘l sharrosiday.
Savaladi ming xil tuyg‘ular, hislar,
Bosib o‘tdi dunyo xotira birdan.
Go‘yo Navoiy ham odimin tezlab
Huzuriga shoshdi mezbonlar bilan.

Navoiy baytma-bayt o‘tib besh asr.
Yurar kazo-kazo ishchilar aro.
Har uy daftarida, har kuni ming bir
Tilda nomi takror oddiy fuqaro.

Bu nurli, bu yaxlit yangi qasrda
Xoqon ham, vazir ham, fuqaro ham el,
Xalqi ijod etgan yangi asrda
Inson taqdiriday gullab ketdi yer.

Shahar yoqib adib kezdi piyoda,
Ikki qo‘l orqada, odimlar tetik.
Quyosh, shabbodaga mo‘l har binoda,
Yoshlik va baxt o‘zi uy xo‘jasidek
Chorlaydi shoirning serzavq nigohin.

Deydi:

«Zamon yozmish azim, sha’n doston,
Qadim san’atimiz o‘chmas buyog‘i
Yangi kamol, jilva kasb etmish chunon.

Har binosi bir xalq kelinchagiday,
Betakror zeb bilan diding etar xush,
Anov ko'kning mo'jaz belanchagiday
Sho'x bino bolalar bog'chasi emish!»

So'zlaydi, ko'radi shoir vaqtি chog',
Keng yo'llarga uqa sonsiz yosh chinor.
Shahar etagida dala, dara, tog',
Oq o't bilan yonar cho'qqisida qor.

Adib atrofiga boqar-u to'ymas:
O'ngda yashillanib o'sar nihol bog',
Choyxona, suvxona, gulxona — xullas,
Quyoshdan qochganga mazgil hamma yog'.

Ko'sak shaklidagi billur favvora,
Yomg'irida o'ynar bolalar g'ujg'on.
Qay gigant kombinat, qay fabrikada
Ne ne'mat yaralur xuddi bu zamon.

Borib ko'rolmadi. Lekin qudratin,
Savlatin, davlatin sezib turibdi.
Qaytarkanmiz deydi o'zicha sekin:
«Navoiy yuragi urib turibdi...

San'atli, mehrli, kuchli odamlar
Cho'ldan yulib qurmish jannatday makon
Va yashar mehnatda va saodatda
Munosib o'z ulug' nomiga inson...»

Yo'l!

Bu tinim bilmas sayyoh Qarshini,
Tolimarjon GESin zarur ko'rmog'i.
Axir buyuk mardlik, mehnat-la dashtni
Hayotga olmoqda shonlik avlodi...

Kezdirib, ko'rsatib, so'zlab berdilar,
«Charchamasin» deya jonimiz halak.
Kanallar o'tkazib, shahar qurbanlar,
Har biri unga bir jahon ochgandak.

Hayrat, hayajonlar qalbini quhib
Tinglaydi, ko'zida ilhom yonishi.
Quchganday istiqbol rejadan ko'chib,
Tezlashar qon, ongda adib yumushi.
— Domla, edi bizda sizning ixtiyor! —
Deydi mezbon. —

Ish bas, olasiz orom.
Bir yerga boramiz!
«Yana hoynahoy
Serhasham xonada ming turli taom...»

Mezbon sohibimiz sezgir, alloma,
Dashtni o'zlashtirish ishlariga bosh:
— Har GESning tarixi o'zi jangnoma,
Qurayotir qardosh xalqlar yelkadosh.

Sizday mavlonolar qalamga olib,
Bu kunning nafasin qoldirsa meros,
Tengsiz bu mardlikni qonlarga solib
Yoshlarda ajdodga oshirsa ixlos.
Sergap bo'lib ketdim, uzr! Marhamat,
Mashinaga chiqing, uzoqmas manzil...

Yo rab,

Kenglik bilan tillashish odat
Bular «uzoqmas»i qayerda axir?

Obdan mo'l yo'l bosib qo'sh mashinamiz,
Ikki qo'ng'iz kabi qo'ndi daraga.
Qafasdan chiqqanday yayrab ketamiz,
Go'zallik va orom singib tanaga.

O'zbek tuprog'ining bir kaft yam-yashil
Bepoyon kengligi ipak to'lqinda.
Dengizda suzuvchi bir qayiq shabl
Mazgil tayyorlashgan mezbonlar bunda.

Oq kigiz, serqaviq guldor ko'rpacha,
Yostiqqa yonboshlab cho'zildi mehmon.
Charchoq ajin bo'lib o'ragan ko'zda
Bepoyon, beg'ubor, bezavol osmon.

- Gapiring, gapiring! — dono hamrohga Yuzlanib hikoya kutadi mehmon.
- Domla, men ham maftun bu oromgohga Nutqni direktor o'rtoqqa berib.

Siz sharofat men ham bo‘laman voqif
Mashhur sovxozlari sir-asrоридан!
Direktor o‘rtoqqa bu hazil yoqib
Tabassum-la bizga boqadi zimdan:

— Nutq bo‘lsa qochmas,
taom muntazir,
Ertalabdan buyon yo‘lda ko‘zimiz, —
Sindirib oftobday issiq non, patir,
Shopirib-shopirib quyadi qimiz.

Yo‘l-yo‘l dasturxonda yaxna go‘sht, asal,
Qurt, rovoch, xilma-xil uzum, bo‘g‘irsoq...

Na yo‘l hordig‘idan, na darddan asar,
Har ne‘matdan totar shoir ko‘ngli chog‘.
Tinglab, uzoqlarda qo‘ylar ma‘rashin,
Nordon rovoch chaynar yuzi burishib.
Tanlab naq qamchiday sersuv barrasin
Xotini va meni qistaydi, «Yeng» deb:

- Oling, yeng, bunday zo‘r davo yo‘q tabda!
- Qaysi dardga davo? — so‘rayman kulib.
Kutaman ne javob bo‘lar adibdan.
- Qolasiz o‘n sakkiz yoshli qiz bo‘lib.

- Agar o‘n sakkizga qaytsam, mabodo
Shu Sakson darada qolib ketardim —
Dedim-u, qandaydir kelganday sado
O‘zim, naq o‘zimda uyg‘ondi raddim.

Nima, kechirganim, ko‘rganim, sevgim,
Dardim va baxtimdan ketaman nari?
G‘o‘r, dumbul fasldan boshlayman yo‘lim,
Yashayman butunlay boshqa singari?

Yo‘q, ustoz, qaytmayman o‘n sakkiz yoshga,
Garchand shafaq yaqin, shu yoshda qolay.
Adib jimb to‘nar uzoq quyoshga,
Qimizdan olgan kayf zarracha qolmay.

Noqulay jimlikni ko‘tarar mezbon:
— Olinglar, mana bu «qora janjal»dan.
Shoir yana kayfga qaytganday shu on
Deydi:
— O‘zbek xalqi shoir azaldan.

Uzum — «qora janjal», yurak — kabutar.
Sahro — Tollimarjon, qishlog‘i — Vodil.

Hayotni xayol-la bezab naq zargar
Go'zallik yaratib kelar ming-ming yil.

Siz bo'lsa shafaqdan...
Qo'ying bu gapni!
Ikki barmoq bilan olib kosani
Birvarakayga oq sipqardi qimiz
Men nozik qalbiga solganim dardni.

Sug'urib olmoqqa qolgandan ojiz,
Deyman:

— Oq simob rang bulutday siljib,
Biz tomonga kelar qo'ylar galasi.
Soy oqar banoras kabi eshilib,
Unda lov-lov yonar lola dalasi!

Suruvni nigoh-la mehmon tusmollar:

— Qancha qo'y sovxozda? — Mezbonga boqar.
Direktor so'zlaydi.

Raqamlar,

Sonlar,

Qudrat, to'kinlikning nahrida oqar:

— O'zbek qorako'li, bilasiz, tillo,
Jahon bozorining bo'rki atalur.

Shoir deydi:

— Ha, shu tillo sohibi
Bobo cho'pon Vatan ko'rki atalur.

U cho'ponni chorlang, otamlashaylik:
Kelbatiga qarang, qudratli burgut,
Qancha fidoyilik va hotamtoylilik,
Viqor, ishonch va baxt — xuddi ona yurt.

Adib tinglar, so‘rar, kulardi xushbaxt,
Odam ham, tuproq ham o‘xshab baxshiga,
Unga shivirlardi qo‘sishiq,
tabiat
Bag‘ishlardi tamom yangi nashida.

Ilhom bo‘ronida boqardi serzavq:
Atrof o‘tayotgan kun shu’lasida
Butun o‘zga ko‘rkka kirgandi bu vaqt:
Men tavsiridan ojiz latifalashgan rang.
Ko‘kat nafasida bokira jarang
Bor edi dara-yu, el nag‘masida.

— To 'xtating, — der menga, — damlar sur'atin,
Siz ayol, ayolga nelar tiz cho'kmas?
Yo Rab, bu behishtday joylar suratin
O'rol Tansiqboyev chizmasa bo'lmas! —

Ilhom savalagan tani salqin og‘ushda,
Ilohiy chiroydan borlig‘ida kayf:
— Ko ‘rmasam kirmasdi aqalli tushga,
Uyqu g‘aflatida o‘tgan umr xayf.

Sakson dara!
Yana sakson yil sevib,
Kezsam, bilsam ona yerni naq dehqon,
Keksalik va dardni bir yoqqa qo'yib,
To'yib-to'yib yozsam qolmasdi armon...

Zavqdanmi, afsusdan lablari qurib
Ichar ko'klam bo'yi anqigan qimiz,
Mezbonlar siylashar ming taom qo'yib,
Hikoya tinglaymiz, she'r o'qiymiz biz.

Nazdimda hammaning tanida bahor,
Faqat insonlarga musharraf huzur.
Adib chehrasida mavj urib nahor
Qo'zg'aladi birdan, so'raydi uzr:

Ziyofat-chun rahmat!

Bu bahri kabir,
Yashil to'lqinida suzib qolaylik.
Unda eshak yo'rtib borar bir kampir,
Bir nafas to'xtatib gapga solaylik.

Bular bari bilgich! —
Deydi-da ildam,
Bosh yalang, to'sh yalang tushadi yo'lga,
Suv kechayotganday tashlaydi qadam
Shoir o'z qalbiga, qo'r berar dilga.

Ortidan boramiz, qomati filday,
Ko'rinar kenglikda yana ulg'ayib,
Kampirning yoniga borib, o'g'ilday,
Suhbat boshlagandi quyuq so'rashib.

Kampir tetik, qotma, chayir jussasi
Qizil mursagini ilib turganday.

Yonida to'lmagan bahor g'unchasi
Qizcha — Hurliqo sehrlanganday.

Ko'zin uzmay turar shoir yuzidan,
«Kim edi bu yaqin tanish, buzrukvor?»
Fikrin qiynaganin uqib ko'zidan,
— Bu Oybek domla-ku! — deyman serviqor.

Ko'zi oftob cho'kkan chuqur chashmaday
Tiniq uchqun bilan yonib ketadi.
Do'lti labda kulgu sof karashmaday
Entikib shodligin bayon etadi:

«Qutlug' qon»,

«Navoiy...»

«Qizlar» dostoni...

Hammasini yozgan domlami chindan?
Nigoh-la erkalab Hurliqoni,
Adib o'y suradi yo yozar zimdan.

Hurliqo yuzi, kulgichlarida
Uchqun sochajakday qaynaydi sevinch,
Tim qora, qirq kokil uch-uchlarida
Acha taqib qo'ygan ko'zmunchoqlar zich.

«Yomon ko'zdan asrab» bodrab turishar...
Oybek domla zavqdan kuladi qotib.
Qiz naq yozilajak qo'shiqqa o'xshar,
Kelajakka kirar oy tongi otib.
Ulg'ayib ufqqa oqadi oftob,
Qaynoq peshonani yalar salqin yer,
Nigoh yetganicha dara-ku atrof
Yaqinga o'xshamas bular borar yer.

Uzr, — dedi shoir — biz yo'ldan qo'ydik,
Hechqisi yo'q, bolam.

Hozir qirqim payt.

Biz ham uy ichi-la qirqimda edik.
Jo'nadik, qilay deb bir qoshiq ovqat.

Yuringlar, bizga ham bo'linglar mehmon.

Cho'poncha qurtova qilib beramiz. —

Qizcha ham iltijo qiladi chunon.

— Rahmat! Hurliqo, atay kelamiz.

Rahmat!

Ona, endi siz ishni qo'yib,

Jujuqlarga so'zlab o'ltiring ertak!

Kampir kular tishsiz og'zini yumib,

Ko'zlari miltillar so'nuvchi cho'g'dak...

Mana, ketib borar qamti yonma-yon,

Kecha va ertaday acha, evara.

«Ko'rsam qanday ekan qiz yashar zamon,

Bizning kurash, mehnat berur samara...»

OYBEK ISHLAYAPTI

Afsus, Shahrisabzga yetolmadi u,

Pachkamar havzasasi ko'rmoq edi farz.

Na iloj?

Erta may.

Azim poytaxtda

Tepchigan shodlikni ko'rmasa bo'lmas.

Bilar, katta qutli uyi to'rida

Bayram dasturxonni ochilmas usiz,

Oybek sulolasin uch bo'g'inida

Shodlik boshlanmaydi uni tavofsiz.

So‘ng ishga... naq darhol to‘xtovsiz ishga,
Qalbni ag‘dar-to‘ntar qildi shodlik, dard.
Miyani parmalar , sig‘maydi ichga,
Aytmog‘i,
bitmog‘i,

o‘ylamog‘i shart.
Do‘stlar-la xo‘splashdi, ko‘ksida qo‘li.
— Rahmat, rahmat! — deydi. —
Xayr, boringlar!..

Azim Toshkentiga chorlaydi yo‘li.
Unga do‘stlar tilar xayrli safar.

Ikki qo‘l orqada, odimlar vazmin,
Xiyol bukchayganday ko‘rindi qaddi.
Balki yozilajak nasrmi, nazm
Eng aziz yuk bo‘lib bosib turgandi?

Adib uchdi juftin qanotga olib,
Quchdi og‘ushiga sof osmon quyosh...
Men birdan junjikdim huvllab qolib,
Ko‘zgamas, halqumga qalqib keldi yosh.
Yosh!

Nega qalqdi?
Neni sezdi dil?
Qay mash‘umlik yalab o‘tdi shodligim?
Nega bahor to‘la qalbim ketdi zil.
Ko‘rdimmi oldinda yo‘lin ozligin?

Na charchashni bildi.

Na darddan zorni,
Shuncha yo‘lni o‘tdi zavqda, mehnatda
Bugun erta uchun bag‘ishlab jonni,
Yana solib dilga necha zamонни,
Yuk, ish ortdi, kirar har bir muddatga.

Yo‘q, yo‘q, umrin yarmi oldinda hali,
Arslon kelbatida qudrat va ilhom.
Dildiragan jonda qancha asari
Yetilmoqda — bizga qiladi in’om.

Dardu keksalikni bir yoqqa qo‘yib,
To‘yib-to‘yib mehnat qilmoqchi hali,
Hamma kechinmani qaytadan tuyib.
Qalamga shivirlab bermoqchi hali.

Axir tinmay kezib, sevib ulgurdi...
Afsus!.. Ulgurmadi qog‘ozga to‘kib.
To‘kilmoqqa tayyor yuragin duri
Nahot qolaverdi tubiga cho‘kib?

Yiqildi yana bir cho‘ng ulkan chinor,
Adab, ma’rifatning yorqin qasrida.
Hali G‘afur G‘ulom, Shayxzoda, Qahhor
Dog‘ida dilimiz yig‘lashda-ku zor.
Nahot yetim qoldik yana o‘lim qasrida?

Ajal hasad kabi boltasin urdi,
Hayot, xayol qurgan yo‘lini to‘sib,
Noshud zaif bizlar termilib turdik,
Ko‘zimizda mash’al borarkan so‘nib,

Tibning kazo-kazo keksa-yu yoshi,
Joniga jonlarin qildilar payvand,
O‘lim — o‘lim ekan, berahm toshi
Eng ayyor jallodday unsiz berdi pand.

U hatto ajal-la qilmadi talash,
Arshidan quladi uchqur ilhomgi,
Garchand haqqi edi yashash va yashash,
Garchand qalbda tig‘iz umidi, komi.

Hech qachon, hech narsa talashmadi u.
Hayot ne'matidan behad baxtiyor,
Qalb undagan yo'ldan adashmadi u,
Bir dilni ranjitib bermadi ozor.

Beozor yiqildi, kirdi sukutga,
Miya, yurak, qonda abadiy uyqu.
Qanday sig'di ekan sovuq tobutga
Shuncha teran, qaynoq xayol va tuyg'u?

Yotibdi, yasharib, yana ulg'ayib,
Behad aziz necha soatlari mehmon.
Evo! Qalbdan uzib, kuyib, o'rtanib
Nechun topshirilar tuproqqa inson?

O'lim vujudiga solgan muzlardan
Kulganday hayotga demay alvido,
Katta mehnatdan so'ng bir dam mizg'igan
Singari bezavol tinch edi siymo.

Yozilajak roman, aytilajak so'z
Jaranglab boqardi dono manglaydan.
Fikr tig'izlikdan taranglashgan yuz
So'zlovchi sukutni oldi qaylarda?..

Go'yo davom etar, yo'lda serparvoz,
Yorqinroq porlaydi tasvirlarda rang.
Go'yo hamma yoqdan beradi ovoz
Har kitob, har misra, har so'z bir jarang.

Davom etar yo'lda adib hayoti.
Yo'l... yo'l mo'l, daryodan ketgan irmoqday
O'g'illarda, qizda po'lat qanoti,
«Bobojon»i dilin tutib mayoqday
Nevaralar boshlar shu yo'ldan yo'lni.

Buyuk bu uyquni etarkan ardoq,
«Oybek ishlayapti!» deydi nasllar...
O'z ko'rkinini ko'rib tasvirlarida
«Oybek ishlayapti!» deydi asrlar...

1970

Sharqning o'zi Ona bo'lgan hamisha

Bir olimimizning ma'ruzalarini tinglab

Men Sizga, o'quvchim,
Na aytib,
 Na-da ko'rsatib
Ulgura olmadim Yurtimni.
Asrlar gardini qalbim-la sidirib
Uzrim-u,
 O'zligim, ko'rkimni,
Qadimning chaqnatib o'tini
Bu kunning nuriga tutmadim.
Bu umr abadiy, derdim-u
Qonimga payvandlab,
Yashash boqiy mulkim, deya shoshmadim,
Yoshlikning jur'ati jo'shqinin,
Abadiy dedim-u toshmadim...
Mana, yosh oxirlab ketarkan,
Necha ne manzilga yon berib o'tarkan,
Ulgurmas burchlarim qiynaydi,
Qoldig'i qalb cho'g'im etarkan,
Yozmasam armonim bitmaydi.

Odamzod... yaralish...
Koinot bitta-yu,

Yer uzra

tuzumlar,

taqdirlar bir emas.

Tafakkur qudug‘in qazimoq

Eng jozib niyat-u

Tabiat va tarix

O‘zini yozishdan,

kamolotdan tinmas!

O‘quvchim!

Nasllar, asri-la g‘ururli bekaday

Men sizni yetaklab yurmadim uyma-uy,

Qay zamon, qay dildan gavharday

To‘kilib yashagan latif kuy?

Goh shodlik,

Goh alam

Torlarin chertganda el qalbin,

Qalamni tanimay qo‘schiq,

Yo ertakdan yaralgan bir bo‘ston;

Naslimiz,

udum-u

qadrni eslatib,

Kurashib va yengib yashashda bu doston!

O‘quvchim!

Sizni men ertakda,

Yo tushda bo‘lganday

Ilm-Urfon koniga yetaklab ketayin,

Tafakkur,

zehnim-la fikr etib,

Qadamim yetgancha

Har biri bir ganja qatlamga eltayin...

Hali men Siz bilan bormadim

Afrosiyobga,

Bobolar dahosin qilib namoyish,

Ming o'lim,

Ming zulm,

Ming tig'li qilichdan

Omon olib chiqqan xalqim javharin

Mehr, iftixor-la berib oroyish

Sizga yaraqlatib ko'rsatolmadim...

Bu tuproq uyimiz,

Bu daryo nonimiz,

Bu oftob jonimiz,

Va lekin bu qasr,

Bu saroy faxrimiz!

Lekin Samarqandni yer yuzin Sayqali

etolgan

Me'morga qilmadik siz bilan biz ta'zim!

Netay, tarix uzoq,

Qatlari ko'proq,

Ajdodlar qalbiga kira olmadim...

Asrlar changlari yon berib o'tgan

Noyob dil durlarin

Tera olmadim.

Kira olmadim...

Qachon shoirlar xalqning

Zakiy qalbin to'kis etolmish izhor!..

G'ururimga shohid:

Jahon nazarin

Qamashtirgan Xiva,

Buxorolar bor!

Duch kelsa adovat — yanchib beayov!

Zakovat,adolat

Iymon, diyonat

Qudratin o'ziga muqaddas yalov —

Bilgan Sohibqiron Temur,

Sarkardalar bor!

Jild-jild javohirin dillardan to'kib,
O'tib ketganlarning

Ruhiga ta'zim!

Ammo, shu chog' jon-u jahdimda cho'kib,
Bir xijolat yotar injitib bag'rim:

Xijolatni yuvar faqatadolat!

« — Aytsam tilim kuyar,

Aytmasam dilim» —

Bu so'z — na o'ch,

na g'iybat!

yitmas haqiqat!

Senga aytay irfon sarvari Elim!

Biz qul bo'l maganmiz,

Muhtaram olim!

Tahqirlarga ko'mmang tariximizni!

Uzr,

bugun dard-la tinglab har so'zingizni

Safroqqa aylandi tomirimda qon.

Yillar qat, qa'rige fikringiz qadang,

Topasiz o'tlarda yonmagich doston!

Shukur,

Sharq she'riyati xazonsiz chaman,

Turfa gullar yashnar atri gurkirab,

Nazm bisotini dil-la ochaman,

Ardog'-u hayratdan barmoqlar titrab.

O'qiymen, diydamda sevinch yoshlarim,

Tubsiz xazinaga ketaman sho'ng'ib,

Va pok go'zallikdan qolib hayratda

Men o'tgan yillarim hechday ko'rinib,

Vijdonim sezaman dardli rohatda!

Siz deysiz:

«Biz qullar bo'l ganmiz,

Qul avlodimiz,

Hayvondek sotganlar,
Olganlar moldek!»
Bir nafas sayr eting o'tmishga, olim!
O, yurtdosh,
Yoppasi qul,
Mute' bo'lsak,
Tax-tax kitoblarni yozib ketgan kim?
Ilm ka'basiga e'tiqod bilan,
Ikir-chikirlardan kiraylik xolis:
Fikr-tafakkurning tig'ini charxlab
Orqangizdan boray qadimga olis!

Hazrat Navoiydan so'rang siz uzr,
Dilingizni poklab bog'iga kiring.
Daho, bir bo'tam, deb qilsa inoyat
Boshingizni egib imdodda turing!

Boburning zakosi Sharqdan yo'l olib
G'arbliklar qalbini isitmadi mi?
Ulug'bek yulduzga so'nmas o't solib,
Jahonning hayratin zabit etmadimi?

Bularni bilasiz,
G'urur tan olsa,
Hali o'y, qalbingiz yetmagan joy ko'p!
Buxoro,
Samarqand aqlingiz olsa,
Hofizga qolmaysiz buncha lol bo'lib!

Men unga qilmayman zarra bo'lsin g'ash,
Zero, shaharlarim ko'chmagich qasr,
Sherozning dilparast,
Turkning parivash
Qizlarini yurtim maftuni sehr —
Etib olganidan xalqimiz go'zal!

Quyoshimiz tahqir dog‘in kuydirgan,
Qullikmas,

Zakovat esh bo‘lib azal,
San’ati o‘lmasga haykal qo‘ydirgan!

Sizni Zebuniso dardidan voqif,
Nodirabegimga etay oshno!
Siz nomi she’r,

She’ri qalbidan oqib
Chiqqan pok dillardan o‘qing chin vafo!
O‘zbek – o‘ziga bek!

degan unvонни
Yaratganning o‘zi qilgan-ku ato!
Shakkoklik bo‘lmasmi, bu suyuk nomni
Qullar deb tahqirlash!

Xatodur, xato!
Boshga toj,

diydalar uzra nur bilib,
Dilda ardog‘laymiz mehr-g‘ururni,
Tarix shohid:

Necha zamon,

asrlar,
Ne ko‘zlardan asrab

Qoldik sururni...

Siz «avom»,

«mute’»,
«qul» degan so‘zlarning
Ildiziga uring vijdondan tesha.

Biling:

Komil,
Fozil
Bashar yulduzlariga
Sharqning o‘zi ONA bo‘lgan hamisha!

Xotiram sinqlari

Hurriyat, keldingmi — nahotki kelding,
Pinhona sog‘indim, pinhona kutdim.
Yomg‘irga bag‘rini tutgan sahrodek —
Sening nasimingga qalbimni tutdim.

Mana, qalb — baxt-u dard to‘la dengizim,
Mavjlari shuhratim, hijron, o‘kinchim.
Qo‘rquv kalxatlari tegib sindirgan —
Yodim siniqlari ostda — cho‘kindi.

Yodim siniqlari, qalq, ovoz beray,
Qalqdi, yuragim, chida, ber bardosh.
Qaragin titroqda — hammasi jonli,
Qara, hammasining yuzi qontalash...

Bu onam — tangrining baxtli onida
Ayri ixlos bilan yaratgani chin.
Qarog‘ida mehr shamlari yoniq —
Gullagan o‘rikday orasta otin.

Kun toyib, shu'lalar ko‘chgach ufqqa,
Sayroqi qushlarning tinganda bazmi,
Onam dilimizni chorlab qo‘shiqqa,
Nim-nim sochar edi mumtozlar nazmin.

So‘fi Olloyormi, devona Mashrab
Bayozlarin o‘pib qo‘lga olardi.
Yumushmi, o‘yinmi — barini tashlab,
Sehrli olamga kirib borardik.

Rang-u ohanglarni jonga quyganda,
Shu'laga to'lardi butun koinot.
O'zimni sehrga asir tuyganda,
Yurakda yozardi qo'shiq o't qanot.

Yangamga esh bo'lib tikdim palagim,
Qog'ozdan sir tutgan satrimni tepchib,
Gullardi palakda shirin tilagim —
Ko'zimdan yoshlikning nurlarin ichib.

Hovlimiz ziynati jambil, rayhonday,
Otam ta'biricha edim boychechak.
Hali biz sezmagan qora qish aro
Nahot, jonlanmoqda ishq otlig' chechak...

Va hademay sezdik bu qahramonni,
Tig'day tillarida yalay boshladi.
Qadami yetganda har xonadonning —
Quvonchi bujmayib, so'liy boshladi...

... Aka, ko'zingizda otash bor edi,
Aka, joningizda quyosh bor edi,
Sultonlikka loyiq kelbat, layoqat,
Sardorniki yanglig' bardosh bor edi.

Sizni-da qora tun oldilarmikin,
Qo'lingizga kishan soldilarmikin,
Yukinish, yalinchmas — g'ururni ko'rib,
Vahshiy g'azablarda yondilarmikin?!

Aka, jonio akam — jondoshim akam,
Oltmis yil izimga qaytib yig'layin,
Bo'g'zimda tosh bo'lgan yo'qlovlarimni
«Oh»larim eritar — aytib yig'layin.

Singilni «mehrdan bino» deydilar,
Ko'z yoshga yetdimi mehrimning kuchi!
Gunohsiz, jonimning qotillariga
O'q qilib otdimmi nafratim, o'chim?

...Buncha chidam qaydan — po'lat, olovdan,
Metindan yaralgan jonmidi otam...
Otash og'ushidan topib bizga non,
G'amga ham chidamli bo'larkan odam.

Onam qo'llarida mushtday tugunchak,
Tosh shaharni kezar avaxta izlab,
Avaxta nechadir, zor ona necha,
Nechalar yashardi zamonni «siz»lab.

Keksa ko'zlarida mo'ldir va mo'ldir
Qotgan ko'z yoshlarga boqardim hayron.
Bu sokin jussani kemirar ne sir,
Ne bois muttasil dillari vayron...

Kuni bo'yi kezib, bukchayib, tolib,
Keksa bag'rin yerga berib yotardi.
Biz nochor bir-biriga ezilib boqib,
Sukut dengiziga og'ir botardik.

Onam, «suv boshidan loyqa» derdingiz,
Bilmasdik bu gapda haqiqat zuhur,
Muhtasham binoda sirli, yashirin
Asl yigitlarga qazilardi go'r.

Qolganda azoblar iskanjasida,
Ota, bir ko'rmadik ko'zingizda yosh.
Yashab umidlarning pok sajdasida,
Hatto yovingizga otmadingiz tosh.

Va faqat dedingiz: «Soldim xudoga»,
Bu qirg‘in doyasi xudosizlar-ku.
...Sabr, qanoatdan yaralgan elim,
So‘qir ham o‘ziga so‘qmoq izlar-ku!

Norg‘ul o‘g‘illaring qirildi qushday
Sibirning nur tushmas o‘rmonlarida.
Sen esa yasharding misoli tushda
Turtinib g‘ofillik tumanlarida.

Menmi? Men shu qadar yosh edim hali.
Yoshlik — g‘am — begona biri biriga.
Qutulmoqqa anduh botqoqlaridan
Osildim muhabbat shodliklariga.

Menmi? Men ishq otlig‘ bir jahon aro
She‘r tinglab, she‘r tizib — she‘rlarda
qoldim...
Behishtiy jaranglar — jonimga oro —
O‘zimning baxtimda o‘zim yo‘qoldim.

Baxt qasrimga kirib meni topdi dard,
Urush, yozda yoqqan qor kabi o‘lim.
O‘ttizga yetmayoq sochim qor yalab,
Ko‘z yoshim soyiga to‘kildi gulim.

Onam, donolikda yagona onam,
Isyon ko‘tarishdan bermabsiz saboq,
Ustimga ketma-ket tog‘ qulagan dam
Qoldim yashin urgan polapon siyoq.

Bo‘ldi, bas! Jangdan so‘ng horg‘in sarkarda
Tirik askarlarin tizganday qator —
Men tirik hislarim bir joyga yig‘dim
Va kuchli yashashga ayladim qaror.

Yurtni bo'ron bo'lib kezdim bosh-oyoq,
Qabristonlar aro quyunday yurdim,
Eng kichik giyoh ham nazdimda uyg'oq,
Faqat el-elatni sukutda ko'rdim.

Tushlarimda topib akam jasadin,
Otamning yoniga qazitdim qabr.
O'zim yonganimda ruhlar yondi deb
Xokiga suv sepib, tiladim sabr.

Taqdir, taqdir dedim, yashadim uzoq,
Taqdir peshonaga yoziq deyishdi.
Yoziqni devorga urdim-u biroq
Men sindim, qonimdan g'ishtlari pishdi.

Alam. Yomon alam ko'zing ko'r bo'lsa,
Lekin so'qir dillik undan-da dahshat.
Xalq ganjin yulmoqqa cho'zilgan qo'lga
Biz alvon guldasta tutibmiz faqat.

«Yangi hayot» debmiz o'sha kunlarni,
Betalab, benolish yashabmiz ko'p yil.
Bir o'ylab ko'rmabmiz bu yurt hokimin
Labi kulib, nechun rang-ro'yi zahil?!

Toji yo'q podshoday sezdimi o'zin,
Shu'la yoyilmadi bukik dilida?
Qo'lida zarra yo'q ixtiyor, izn,
Bildimi yitardi g'urur elida?!

«Vatanparvar» debmiz o'z-o'zimizni,
Dengizlar quribdi, chiribdi baliq,
«Insonsan, boshingni ko'tar», demabdi,
Ko'ngling qolganmidi bizlardan, Xoliq?

O'zing berganding-ku, poklik, halollik,
Ilymon-u ishonchlar — butun, beillat,
Qilolmas edi-ku shayton dallollik,
Ilm-u hikmatlarga yor edi millat.

...Ey gumbazigardun, qoldimmi g'ofil,
Ishonch, e'tiqodlar chiqdi puchlarga?!
Suyanib najotlar kutgandik, nahot,
Bizga choh qazigan qora kuchlarga?!

Kim bilsin, savob deb urinishlar ham,
Zamona soziga o'yinmi bari.
Deydilar: yaratgan eng ulug' hakam,
Hech qachon adashmas tarozulari.

Qay biri vazminroq savobmi — gunoh,
Yashadim-ku riy, haromdan nari.
Kuyganman. Bosh-oyoq kuyuk jismimning
—
Nimasin yoqardi do'zax o'tlari...

Bu dunyoda ko'rgan azob, ko'z yoshlari
Savob posangisin xiyol bosarmi?
Gumrohlik pallasin to'ldirsa toshlar,
Eng baland doriga meni osarmi?

Yoshim ketib-ketib, torday tarangman,
Kapalak sharpasi tegsa, uzilur
Chiday-chiday yupqa tortgan parangman,
Cho'yan bo'lsa ham dil — qulfi buzilur.

Lekin yashayapman, otam va onam
Chayir arqoqlardan to'qishgan chog'i.
Aytilmagan alam, yozilmagan she'r,
Olinmagan qasos — yurak titrog'im.

Boshim – portlovchi dud to‘ldirilgan xum,
Portlashin kutardim soniya sari.
Sabrlar to‘kildi naq kaftdagи qum –
Yuzim ruhlarida qonli izlari...

Bilmayman, savobmi yo koni gunoh,
Zinhor shakkoklikka yo‘ymang tilagim.
Jasadim daryoga tashlang, ruhim pok,
Obi rahmatlarda sovusin tanim...

...Yallig‘lanib yotar keksa xotiram
Ichida shu dardlar, tig‘li siniqlar...
...Holbuki, nur ichra dala-yu daram,
Holbuki, bog‘imda bulbul chahchahlar...

Hurriyat, keldingmi, nahotki kelding!
Kelar yo‘llaringda pinhona toldim.
Mening ota-onam, jon Vatanimda,
Elim taqdirida abadiy qolding...

Kelding-ey, Istiqlol, istiqbol bo‘lib,
Qalbimga nasiming bilan yo‘l solding.
Sen shu hur nazmga ixtiyor berib,
Men og‘ir bulutdek bir yog‘ib oldim...

Hurriyat, kelding-ey, al-omon kelding,
Seni qalbim, ko‘zim, so‘zlarim quchar.
Vaqt yetsa shu xalqda qolar daftaram,
Vaqt yetsa, bu yoqda qolar dardlarim...

Ruhim u yoqlarga qush bo‘lib uchar...

1995

MUNDARIJA

Xalqimga aytar so'zlarim... 5

Baxtiyor sevgini kuylardi sozim

Muhabbat tongi kulganda	8
Sening maftuning	10
Soy kechasi	11
Farzand	11
Oltin kuz	13
Tun	14
Deydilarki, seni ko'rganda...	16
Kechir, qoldim g'aflatda...	16
Biz tongni sevgan-chun	17

Hijron kunlarida

Baxtiyor sevgini kuylardi sozim...	20
Yulduz.....	20
Bahor keldi seni so'roqlab...	21
Ne baloga etding mubtalo	24
Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh?	25
Sen qaydasan, yuragim	26
Hayot jilosi	27
O'rik gullaganda	28
Sog'inganda.....	30
Bu hayotning hamma toza, chiroyli dami...	31
Haykal	31
Sensiz	33
Kelin tushdi	34
Lola	35
Izlayman...	36
O'riklar gullar...	38
To'rtliklar...	39

Seni kuylayman, hayot

Tingla, bulbul	42
O'g'lim, sira bo'lmaydi urush	43
Sahar men bilan...	45
Naqadar yer jamoli ajib...	47

Seni kuylayman, hayot!	47
Qog'ozdan yoqilgan gulxanlar...	49
Oftob, sen borlig'im!	50

Yillar va o'ylar

Rashk	52
O'quvchimga	53
Tinmay og'riydi boshim	54
Men chizolmagan surat	55
Kimni kutasan	56
Okeanda	57
Qatra	58
Qozog'iston o'lanylari	60
Ko'kchatov	61
Bulut o'yini	63
Ukpar jig'ali	64
Balxash oqshomi	66
Yo'lda	68
Daraxt	69
Umr o'tmakda...	69
Bog'bon	70
O'ylar...	72
Emish...	73
O'zimga	74
O'g'irlamang qalamim bir kun	75
Uchib ketdi polapon qushi...	77
Sog'inib	77
«To'rga tashrif!...»	78
Goh-goh bir daqiqa tark etmas xayol...	79
Orzuga ayb yo'q...	80
Suq	80
Shalola	81
O'tli tomchi	82
Marsiya	83
Qalbim qolgan edi bu yerda	84
Harorat	86
Mening mehribon onaginam	88
Mening tongim	91
Shafaq	93
Yana bugun bahorga zorman...	94
Men tug'ilgan kun	95
Quyosh uzib ber	97
Aziz tuyg'ular:	98
Bahor	98
Nevara	99

Majnuntol	100
Nazdimda	100
Bog'lar qiyg'os gulda	101
Orzu	102
Bag'ringdan qo'yma	103
Kamalak	104
Orada sahifa qolibdi bo'm-bo'sh	107
Bo'ron quchog'ida	109
Men o'tgan umrga	110
Kelajak	111
Mehmonlar keldi	114
Pushkinga	115
Ekrandagi yurak	117
Yulduzlar allasi	118
Men bo'lmasam	119
Tun to'la qo'shiqqa	120
Bolakay	122
Do'stlarim	124
Otashparastlar	125
Qo'shiq	126
Yangi yerlar	129
Bilgim keladi	130
Urim karvoni	132
Na go'zal damlar bu!	134
Yomg'ir	135
Kechir, yoshlik	136
Uni qo'zg'atdilar	137
Onam, sening issiq aziz joningni	139
Tuhfa	140
O'n sakkiz yoshlik	141
Men o'zimni yomon ko'raman	142
Hayotdan shoira, hayhot, yumdi ko'z	143
Gulzor	144
Ko'ngil	145
Baxtim bor	146
Menga xasis keldi tabiat	146
Tongda so'z qudug'in tubiga cho'kib	147
Shoir uyida	148
Uchrashuv	148
Bir dona papiro	149
Tunni sevmay qo'ydim	151
Salom, tansiq bahor!	152
Kel, bahor!	153
Ikki she'r	155
Qo'noq	155

Bu kunlarda uyda emasman	157
Tong	159
She'r demak	160
Yillar	161
Onam bog'i	163
Niyatim, aytajak so'z, zorlarimga...	164
Buguningga men bo'lay hokim	165
Uzugim sirg'ilib tushdi	167
Bu kunning she'ri	168
Kuylama hijronni	169
O, ijod	170

Dostonlar

Mushoira	174
Quyoshli qalam	180
Sharqning o'zi Ona bo'lgan hamisha	207
Xotiram siniqlari	213

ZULFIYA

Saylanma

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent – 2016

Muharrir *Gulnora Xaitova*
Badiiy muharrir *Feruza Basharova*
Texnik muharrir *Ra’no Boboxonova*
Sahifalovchi *E’zoza Yo’ldosheva*
Musahhihlar *Ma’mura Ziyamuhamedova,*
Sharofat Xurramova

Nashr litsenziyasi: AI № 201 28.08.2011.

Bosishga ruxsat etildi 23.12.2016.
Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$. «PT Serif» garniturası.
Shartli bosma tabog‘i 11,76. Nashriyot-hisob tabog‘i 8,68.
Adadi 44221 nusxa. Buyurtma № 4524

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik
kompaniyasi bosmaxonasi,
1000000, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41.**

O‘zbekiston xalq shoiri, taniqli jamoat arbobi Zulfiya Isroilova 1915-yilning 1-martida Toshkentda tug‘ilgan. “Hayot varaqlari” (1932), “She’rlar”, “Qizlar qo‘sishig‘i” (1938), “Uni Farhod der edilar” (1943), “Hijron kunlarida” (1944), “Tong qo‘sishig‘i” (1953), “Men tongni kuylayman”, “Yuragimga yaqin kishilar” (1958), “Kuylarim sizga” (1965), “Salom sizga, erkparvar ellar”, “O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush” kabi she’r va to‘plamlarida Vatan madhi, mehnat jarayonida fidokorlik ko‘rsatayotgan kishilar hayoti jo‘sib kuylanadi. “O‘ylar”, “Shalola” kabi she’riy majmualari uchun Davlat mukofoti sovrindori bo‘lgan. Hind mavzusidagi she’rlari uchun Javoharla’l Neru nomidagi umumhindiston sovrini, tinchlik va do‘stlikni tarannum etuvchi asarlari hamda taraqqiyatparvar Osiyo va Afrika yozuvchilari harakatidagi faol ishtiroki uchun xalqaro “Nilufar” mukofotiga sazovor bo‘lgan. Uning she’rlari rus, ingлиз, nemis, hind, bolgar, xitoy, arab, fors va boshqa tillarga tarjima qilingan. Shoira Pushkin, Nekrasov, Lermontov, S.Shipachyov, V.Inber, Lesya Ukrainka, Amrita Pritam asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

ISBN 978-9943-26-608-7



9 789943 266087

